

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG`BEK NOMIDAGI
O`ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

P.G`ulomov, M.Mirakmalov

**TOPONIMIKA VA GEOGRAFIK
TERMINSHUNOSLIK**

**Universitetlar va pedagogika institutarining geografiya, biologiya-
geografiya, tarix-geografiya yo`nalishlari talabalari uchun o`quv
qo`llanma sifatida tavsiya etiladi**

Toshkent-2005

Ushbu o'quv qo'llanma universitetlar va pedagogika institutlari geografiya mutaxassisliklari uchun mo'ljallangan. Lekin undan umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey va, kollejlarning, geografiya o'qituvchilari o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari, u geografik nomlar va terminlar bilan qiziquvchi va tadqiqotchilar uchun ham juda foydali qo'llanma bo'ladi.

Mualliflar: P.G'ulomov - geografiya fanlari nomzodi, dotsent
M.T.Mirakmalov - geografiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar: Sh.S.Zokirov - geografiya fanlari nomzodi, dotsent
I.A.Hasanov - geografiya fanlari nomzodi, dotsent
T.J.Enazarov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Muharrir: T.J.Enazarov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mas'ul muharrir: geografiya fanlari nomzodi, dotsent -
R.Y.Mahamadaliyev

So'zboshi

Yer yuzida millionlab geografik nomlar - toponimlar mavjud. Yer yuzidagi har bir geografik obyekt, hodisa va voqeaning o'z nomi bor. Har bir dengiz, har bir daryo, har bir tog'u - cho'qqi, har bir shahar, qishloq, har bir daha, har bir mahalla, ko'cha o'z nomiga ega. Geografik nomlarga shunday o'rganib ketganmizki, hatto, ularning mavjudligini ham unutib qo'yamiz. Faraz qilaylik, bir zum geografik nomlar yo'qolib qoldi deb: kim qayerga borishini ham, qayerdan kelayotganini ham, shuningdek qayerda yashashini ham bilmay qoladi. Geografik nomlar hayotiy zarurat bo'lib qolgan.

Geografik nomlar asosan ikki xil bo'ladi: ayrim geografik obyektни bildiruvchi atoqli ot, nom va geografik obyekt hamda voqea, hodisalarning, umumiy nomini bildiruvchi turdosh otlar. Atoqli geografik nomlar **toponimlar** deyiladi. Yunoncha *topos* - joy va *onoma* - ism, nom so'zlaridan tashkil topgan.

Toponimlarga, ularning kelib chiqishi, ya'ni etimologiyasi, ma'nosi, o'zgarishi, talaffuz qilinishiga kishilar juda qadim zamonlardan qiziqib kelishgan. Har bir geografik nom orqasida qanchadan - qancha voqea va hodisalar, tabiiy hodisalar, tabiiy xususiyatlar, xalq, qabila, urug', ayrim kishilar faoliyati haqidagi tarixiy ma'lumotlar yashirinib yotadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Tyanshan, Pomir, Amudaryo, Qizilqum nomlarida qancha voqea, hodisalar, tarix yashirinib yotibdi. Nega ular shunday nomlar bilan ataladi?

Har bir kishi, avvalo, o'z joyi - shahri, qishlog'i, mahallasi, ko'chasi nomini, ularning qanday hodisa, voqea, tabiiy xususiyat, qanday inson nomi bilan bog'liqligini bilishni istaydi. Nega Hindikush, Ajal vodiysi, Borsakelmas, Dashti Margoh, Dashti Lut, O'lik dengiz deyiladi? Chet ellardagi nomlarning ba'zilarini o'zbek tiliga tarjima qilinsa, g'alati, ba'zan bema'ni nomlarni ko'rasiz. Krivoy Rog - Egri shoh, Tbilisi - Qaynar buloq, Vladivostok - Sharqni egalla, Velikiye Luki - Katta yoylar, Los - Anjeles - "Bizning janobi oliylari farishtalar qiroli" va h.k.

Joy nomlarini yozishda ham nozik tomonlari bor. Ba'zan bir harf o'zgarishi bilan tamomila boshqa joy tushuniladi. Masalan: Amu - Amur, Avstriya - Avstraliya, Riga - Risa, Jurjon - Juzjon, Mari - Mariy, Neva - Niva va boshqalar.

Bularning hammasini **toponimika** fani o'rganadi. Toponimika ham yunoncha "topos" va "noma" so'zlaridan hosil bo'lgan. Bu fan geografik nomlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, o'zgarishini, ularning mazmuni, shakli va to'g'ri yozilishini o'rganadi. Toponimika geografiya, tarix va tilshunoslik (lingvistika) fanlari o'rtasidagi fan bo'lib, ular bilan juda bog'langan. Bu fanlarning tadqiqot uslublaridan foydalanib ish ko'radi.

Geografik voqea, hodisa va obyektlarning umumiy nomini, turdosh otlarni, ya'ni termin (atama)larni geografik terminshunoslik o'rganadi.

Har bir fanning terminlarini o'rganuvchi terminshunoslik (atamashunoslik) fanlari mavjud. Geografik terminshunoslik geografik terminlarning ma'nosi, kelib chiqishi (etimologiyasi), o'zgarishi, to'g'ri yozilishi va manbalarini o'rganadi. Har bir fanni chuqur o'rganish uning terminlarini qanchalik to'g'ri va to'liq bilishga bog'liq.

Har bir fanning rivojlanishida mukammal o'rganilgan va ilmiy ishlab chiqilgan terminologiyaning ahamiyati kattadir. Terminlarning aniqligi, mukammallagi fanning rivojlanishini ma'lum jihatdan belgilab beradi. Termin yordamida ma'lum hodisa tasnifi ixcham beriladi va o'sha hodisani tez o'zlashtirib olish imkoniyati yaratiladi.

Joy nomlarini o'rganuvchi mutaxassislar **toponimistlar** deb, terminlarni o'rganuvchi mutaxassislar **terminologlar** deb ataladi.

Toponimika va terminshunoslikka oid ma'lumotlar kishilar bilimini juda kengaytiradi hamda madaniy saviyasini o'stiradi. Deyarli barcha buyuk kishilar, allomalar toponimika va terminshunoslikka oid ma'lumotlarga juda qiziqqan va o'zlari ham fanning bu sohalari bilan shug'ullanganlar.

Geografiya darslarida toponimika va terminshunoslikka oid ma'lumotlardan foydalanish o'quvchilarning fanga qiziqishini kuchaytiradi va shu sohada chuqur bilim olishlariga yordam beradi.

I - BO'LIM. TOPONIMIKA

Toponimik atamalar va tushunchalar

Har bir fanni, shu jumladan toponimikani ham puxta o'rganish uchun uning atama va tushunchalarini bilish zarur. Toponimikaning o'ziga xos atama va tushunchalari mavjud. Bularning eng muhimlari quyidagilar:

Abbreviatsiya - geografik nomlarning qisqartirilgan shakli: XXR, AQSH, MAR, BAM, Donbass, Kuzbass, RF va boshqalar.

Antonim nomlar - bir - biriga teskari ma'noli geografik nomlar: Oqdaryo - Qoradaryo, Kungay Olatog'i - Terskay Olatog'i, Yuqori Chirchiq - Quyi Chirchiq, Oqtog' - Qoratog' va boshqalar.

Antroponim nomlar - kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi, laqamidan olingan nomlar: Navoiy shahri, Beruniy tumani, Iskandarko'l, Vashington shahri, Suxe - Bator, Pushkino shahri, Amir Temur ko'chasi.

Arealli nomlar - bir xil qo'shimcha yoki topoterminlar ishtirokida yasalgan geografik nomlar joylashgan hududdagi toponimlar: kent, tepa, qo'rg'on va boshqa terminlar ishtirokida yasalgan nomlar tarqalgan hudud.

Masalan: Toshkent viloyatida kent termini yordamida yasalgan nomlar ko'p: Alimkent, G'azalkent, Toshkent, Parkent, Zarkent va boshqalar.

Birlamchi va ikkilamchi nomlar - Birlamchi nomlar asl nomlar. Ikkilamchi nomlar nom ko'chishidan hosil bo'ladi. Masalan: Chirchiq daryosi, Chirchiq shahri. Nom daryo nomidan shaharga ko'chgan.

Detoponimizatsiya - geografik nomlarning terminlarga, oddiy turdosh otlarga aylanishi: Geyzer bulog'i nomidan *geyzer* termini, Vulkan oroli nomidan *vulqon* termini, Karst rayoni nomidan *karst* termini hosil bo'lgan va h.k.

Dromonim - yo'llar bilan bog'liq nomlar: Yangiyo'l, Buyuk Ipak yo'li, Toshkent - Termiz yo'li.

Ekzonim - yozilishi va talaffuzi odat (traditsion) bo'lib qolgan geografik nomlar.

Etnonim nomlar - xalqlar, qabilalar, urug'lar nomidan kelib chiqqan geografik nomlar: Malik, Bo'ka, Turkqishloq, Sergeli, O'zbekiston.

Gibrid nomlar - turli qismlari turli tildagi so'zlardan iborat bo'lgan murakkab geografik nomlar: Ko'hitangtog', Gugurttog', Taxtapul.

Gidronim - okean, dengiz, ko'l, daryo, soy, buloq, quduqlarning nomi: Sirdaryo, Uchquduq, Qorako'l, G'ovasoy, Volga, Chirchiq va boshqalar. Hidronimlarning ayrim turlari ham mavjud: *potamonim* - daryolar, soylar, irmoqlar, kanallarning nomlari; *limnonim* - ko'llar, buloqlar, hovuzlar va quduqlarning nomlari; *pelagonim* - okeanlar, dengizlar va qo'ltiq (ko'rfaz) lar nomlari.

Indikator (toponimikada) - toponimlarni hosil qiluvchi mahalliy geografik terminlar: qum, tepa, qo'rg'on, daryo, suv, kent va boshqalar.

Makrotoponimlar - ko'pchilikka ma'lum bo'lgan, tez - tez tilga olinadigan yirik nomlar: Yevropa, Osiyo, Tyanshan, Tinch okean, Sibir va boshqalar.

Memorial nomlar - buyuk kishilar nomi, yirik voqealar bilan bog'liq bo'lgan nomlar: Navoiy, Beruniy, Vashington, Pushkin, Magellan, G'alaba cho'qqisi va boshqalar.

Metafora atamalar(terminlar): bo'g'iz, bo'yin, og'iz, etak, lab, tirsak, quloq va boshqalar. Ayrim adabiyotlarda *anatomik terminlar* deyiladi.

Metafora nomlar - ko'chma ma'noda ishlatiladigan ta'rixiy, o'xshatma nomlar: Odamtosh, Qo'ytosh, Qirqqiz, Temir darvoza, Jinko'cha.

Metateza bilan shakllangan toponimlar- (grekcha "metatesis" - joy almashtirish) so'zdagi tovushlarning o'rin almashinishi (Beshog'och - Bechog'osh, Sayram - Saryom).

Mikrotoponimlar - mayda geografik nomlar: mahalla, ko'cha, mavze, bekat, guzar nomlari.

Oronimlar - Yer yuzasi relyefi shakllari (tog', tizma, vodiylar, tekislik, qiralar) nomlari: Himolay, Tyanshan, Pomir, Chotqol, Farg'ona vodiysi.

Oykonimlar - aholi yashaydigan joylar (shahar, qishloq, ovul) nomlari: Toshkent, Parkent, So'qoq, Go'zalkent va boshqalar.

Polisonimlar - (grekcha "polis" - shahar) - shaharlarning nomlari, shahar ichidagi obyektlarning nomlari **urbanimlar** deb ham ataladi.

Speleonim - g'orlar, ungurlarning nomlari: Qirqtog', Qo'ng'ir, Odamtosh, Mamont g'orlari va boshqalar.

Toponim - xususiy geografik nomlar, lotincha "topos" - joy, "onoma" - ism, nom so'zlaridan olingan.

Toponimiya - ma'lum hududdagi joy nomlari yig'indisi. Masalan, Toshkent viloyatidagi barcha joy nomlari Toshkent viloyati toponimiyasi deyiladi.

Toponom - xususiy geografik nomlardan paydo bo'lgan yangi so'zlar, turdosh otlar: doka, tyul, boston, bolonya, saplin, krepdeshin va boshqalar.

Topoformant - geografik nomlar hosil bo'lishida ishtirok etadigan, lekin o'zi muayyan ma'noni anglatmaydigan qo'shimcha va suffikslar. Masalan, Chilonzor, Misrgarlik, Xizmatchi, Ohangaron, Biyxem, Satino va boshqalardagi - zor, - gar, - chi, - garon, - xem, - o.

Topoterm - joy nomlarini hosil qiluvchi terminlar (atamalar). Masalan, daryo, soy, tepa, qo'rg'on, kent, obod, burg, grad, siti va boshqalar: Kattaqo'rg'on, Oqsoy, G'azalkent, Yangiobod.

Transkripsiya - geografik nomlarning to'g'ri yozilishini ta'minlovchi yozuv usuli.

Toponimikaning rivojlanish tarixidan

Geografik nomlarning ma'nosini, ularning kelib chiqishini, o'zgarishini bilishga qiziqish juda qadim zamonlardan boshlangan. Toponimikaga oid ma'lumotlar qadimgi dunyo olimlari asarlarida ko'plab uchraydi. Chunonchi, Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya", Pomponiy Melaning "Xorografiya", Pliniyning "Tabiiy tarix" nomli asarlarida ko'pgina toponimik ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda ham toponimikaga qiziqish qadimdan boshlangan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Abu Rayhon Beruniyning "Qonuni Ma'sudiy", "Hindiston", "Saydana", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Ibn Sinoning "Dengiz qirg'oqlari" asarlarida toponimikaga oid juda ko'p ma'lumotlarni topish mumkin. Toponimik ma'lumotlar muallifi noaniq "Hudud al - olam" nomli geografik asarda ham mavjud. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari

mumtoz o'lkashunoslik asari bo'lishi bilan birga unda toponimikaga oid juda ko'p ma'lumotlar bor.

X - XI asrlarda yashagan Abu Rayhon Beruniy o'z davrining buyuk olimi - astronom, matematik va geograf bo'lgan. U 973 yili 4 sentabrda Xorazmdagi Kot (hozirgi Beruniy) shahrining chekkasida tug'ilgan va 1048 yilda 75 yoshda G'aznada vafot etgan. Uning ilmiy merosi orasida toponimikaga oid ma'lumotlar ko'p uchraydi. Uning geografik va toponimik merosi “At - Tafhim”, “Qonuni Ma'sudiy”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “Minerologiya”, “Osori boqiya”, “Saydana” kitoblarida keltirilgan.

Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarida toponimika qonuniyatlariga oid bir qancha fikrlari mavjud. Chunonchi, yunonlar va arablar turkiy so'zlarni buzib, o'z talaffuzlariga moslab ishlatganliklari oqibatida ayrim so'zlarning ma'nosi o'zgarib ketganini aytadi. Masalan, turkiycha *tosh* so'zini arablar *shosh* deb talaffuz qilishidan ma'no o'zgarganini aytadi. “Saydana” kitobida 400 dan ortiq qishloq, tog', daryo, shahar va orollarning nomlari tilga olingan. “Qonuni Ma'sudiy” kitobida 603 ta joy nomi ko'rsatilgan.

Abu Rayhon Beruniy Mo'lton shahri nomiga quyidagicha izoh bergan (H.H.Hasanov, 1985): “Mo'ltonning (asl) nomi Koshiyapura edi. Keyin Hansapura, keyin Bashapura, keyin Sanbhapura va keyin Mo'lastxona, ya'ni “Asl joy” deb nomlanadi; mo'l - “asl”, tona - “joy” demakdir” deydi. “Mineralogiya” kitobida konlarning geografik tarqalishi, qaysi toshning qaysi tog', qaysi daryo vodiysi va qaysi qishloqdan qazib olinishi haqida yozishi bilan birga ayrim tosh, minerallarga izoh ham bergan. Beruniyning dunyo xaritasida qirqqa yaqin joy nomlari berilgan.

Muallifi noma'lum “Hudud al - olam” (X asr) kitobida ham geografik toponimika va terminshunoslikka oid ma'lumotlar ko'p. Bu kitobda Buxoro, Farob, Poykent, So'g'd, Tavovis, Karmina, Dabusi, Arbinjon, Kushoniya, Samarqand, Kesh, Termiz, Zomin, Jizzax, Farg'ona, Axsikat, Qubo, Shosh, Kot va boshqa joylar haqida ma'lumotlar bor.

Zahiriddin Muhammad Boburning (1483 - 1530) “Boburnoma” kitobi mumtoz o'lkashunoslik kitobi bo'lishi bilan birga, unda toponimikaga va terminshunoslikka oid ma'lumotlar juda ko'p. Xususan Farg'ona vodiysidagi geografik nomlar ma'nosi, etimologiyasiga alohida ahamiyat berilgan. Andijon, Kandibodom, Isfara, Xo'jand, Ahsi, Xo Darvesh, Sayhun, Marg'ilon haqida batafsil ma'lumotlar mavjud.

Bulardan tashqari, Abu Hayyon (XIII - XIV asrlar), Jaloliddin Turkiy (XIV - XV asrlar), Mirzo Ulug'bek (XIV - XV asrlar), Abulg'ozixon (XVI asr), Qori Rahmatulla Buxoriy (Vozix) (XIX asr) asarlarida toponimikaga va geografik terminshunoslikka oid ma'lumotlar keltirilgan. Bu jihatdan

Abulg'ozixonning “Shajarai turk”, Mirzo Ulug'bekning “To'rt ulus tarixi”, Qori Rahmatulla Buxoriyning “Xotiralar”, “Sayram risolasi” nomli asarlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Mamlakatimizda toponimika va geografik terminshunoslikning XX asrdagi rivojlanishida mahalliy tadqiqotchi olimlar bilan birga O'rta Osiyoni o'rgangan rus olimlarining ham hissasi katta bo'ldi. Bular orasida V.V.Bartold, V.P. Semenov - Tyanshanskiy, E.M. Murzayevlarni alohida ko'rsatish mumkin. V.V.Bartold o'zi tarixchi, uning toponimikaga oid maxsus ishi yo'q. Toponimik ma'lumotlarining 9 jildli tarixiy asarida uchraydi. Uning joy nomlarini tushuntirish sodda, ancha aniq va ko'p fikr-mulohazalari ishonarlidir. U o'z asalarida mahalliy geografik terminlardan yaxshi foydalanadi. Uning *asarlari*da *ariq, jo'y, kom, qir, rabod, tarxon, to'rtko'l, shahriston, yurt* kabi terminlar talqinini bergan.

V.V.Bartold hayoti va ilmiy faoliyatining katta bir davri O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston va Toshkent bilan bog'liq. Olimning yaratgan 685 asaridan 320 nafari, faqat Turkistonga bag'ishlangan...”¹.

V.P.Semyonov - Tyanshanskiyning “Aholi punktlarining mahalliy nomlarida geografik manzara qanday aks etadi” (1924) asari toponimik jihatdan o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi. Bu asarda muallif geografik nomlarning paydo bo'lishida tabiiy sharoitning ta'siri haqida yozgan.

E.M.Murzayev yirik geograf olim, toponimist. U O'rta Osiyo, Sinjon, Mongoliyadagi geografik nomlar va xalq terminlarini o'rgangan. Uning “Словарь народных географических терминов” (1984) asari terminshunoslikda katta o'rin tutadi. Unda mahalliy geografik atamalar ma'nosini ochib beradi. Uning “Средняя Азия” (1957) kitobida 100 dan ortiq geografik nomlarning izohi berilgan. Masalan, Oqsuv, Oloy, Amudaryo, Orol, Bodxiz, Darvoz, Qoraqum va boshqalar.

O'rta Osiyo o'lkasidagi geografik nomlarni o'rganishda vengriyalik olim Armeniy Vamberiy (1832 - 1913) ning xizmati katta. O'rta Osiyoga mahfiy sayohat qilgan bu olimning “Buxoro tarixi”, “Markaziy Osiyoning geografik nomlari” kitoblari diqqatga sazovor. Uning lug'atida 600 ga yaqin geografik nom va termin berilgan.

O'zbekistonda toponimika va geografik terminshunoslikni rivojlantirishda H.H.Hasanovning (1919 - 1985) xizmatlari katta. Uning toponimikaga oid fikr, mulohaza va ma'lumotlari “O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan” (1965), “Geografik nomlar imlosi” (1962), “Yer tili” (1977), “Geografik nomlar siri” (1985) asarlarida, terminshunoslikka oid ishlari “Geografiya terminlari lug'ati” (1964) kitobida, geografiya va

¹ B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. T., “O'qituvchi”, 1994, 5-11 betlar.

terminshunoslik tarixiga oid ishlari “O'rta Osiyolik geograf sayyohlar” va ko'pdan - ko'p maqolalarida o'z aksini topgan. Bu olimning toponimikaga oid kitoblarining ikkinchi qismi izohli lug'atlardan iborat bo'lib, bu mazkur asarlarning qiymatini yana ham oshiradi.

O'rta Osiyo o'lkasi, xususan O'zbekiston toponimlarini tadqiq etgan yana bir tadqiqotchi S. Qorayevdir. Bu tadqiqotchi toponimlarning etimologiyasiga oid ancha ish qilgan. U toponimlarni, xususan etnotoponimlarini chuqur o'rgangan. Uning ilmiy xulosalari “Geografik nomlar ma'nosi” (1978), “Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?” (1970), “Toshkent toponimlari” (1991) kitoblarida bayon etilgan. O'zbekistondagi joy nomlarini o'rganish va tadqiq etishda filolog tadqiqotchilardan H.Egamov, Z.Do'simov va T.Nafasovlar ishlari ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Geografik nomlarning paydo bo'lishi

Toponimlarning paydo bo'lishi masalasi bir qarashda juda oddiyga, hech qanday qonuniyat yo'qqa o'xshaydi. Bunda bir qancha misollar keltirish mumkin. Rossiya imperiyasi vaqtida rus qo'shinlari bosib olgan joylarda ruslar mahalliy aholi bilan birga yashashni o'ziga ep ko'rmay, har bir yirik shahar yaqinida rus shahrini qurgan va eski shahar yonida yangi shahar - “город” paydo bo'lgan. O'zbekistondagi har bir yirik shahar yaqinida yangi shahar - город bo'lib, ular shaharga qo'shilib ketib, farq yo'qolgan. Shunday shaharlardan biri Marg'ilon shahridan 12 km masofada qurilib, unga Новый Маргелан deb nom qo'yilgan. Dukchi Eshon boshchiligidagi qo'zg'olon bostirilganidan keyin qo'zg'olonni bostirgan general Skobelev sharafiga shahar Skobelev shahri deb ataladigan bo'ldi. Sovet davrida Farg'ona deb o'zgartirildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Ohangaron vodiysida bunyod etilgan konchilar shaharchasiga Ohangaron daryosining ruscha buzib aytilgan nomi Angren qo'yildi.

Samarqand yaqinidagi Qiriqtog'da topilgan g'orga ukrainalik g'orshunoslar Kiyev g'ori deb nom qo'yishgan.

1482 yilda sayyoh olim Bartolemeo Diash boshchiligidagi ekspeditsiya Afrikani aylanib Hindistonga bormoqchi bo'ladi. Materikning janubiy - g'arbiy qismidagi burun yaqinida qattiq dovulga duch kelib, u yerdan o'tolmay orqasiga qaytadi va burunga “Bo'ronlar burni” deb nom beradi. Portugaliyaga qaytganida uni mamlakat qiroli qabul qilib, xaritadagi “Bo'ronlar burni” nomini o'zgartirib, “Yaxshi umid” deb yozib qo'yadi. Shu bilan “Yaxshi umid” burni nomi paydo bo'lgan.

Dunay daryosining ikki qirg'og'ida ikkita shahar - Buda va Pesht shaharlari bunyodga kelgan. Keyinchalik ular qo'shilib ketib Budapesht deb ataladigan bo'ldi.

Pokiston davlati nomi ham o'ziga xos yo'l bilan paydo bo'lgan. 1931 yilda Hindiston Angliya mustamlakasi davrida hind musulmonlaridan va milliy harakat rahbarlaridan bo'lgan Choudri Rahmat Ali yangi islom davlati barpo qilish rejasini taklif qilib, Panjob, Afg'oniya, Kashmir, Sind va Balujistonni birlashtirishni o'ylagan hamda nomini mazkur viloyatlar nomi bosh harfini olib, unga iston suffiksini qo'shib, Pokiston deb atagan.

Ba'zan geografik nomlar o'sha joylarning xususiyatlaridan vujudga keladi. Masalan, Shamolli orollar, Shamolsiz orollar, Polineziya (poli - ko'p, nezoz - orol), Mikroneziya (makro - mayda, nezoz - orol), Melaneziya (mela - qora, nezoz - orol), Qorasuv, Saritov, Oqtepa va boshqalar.

Ba'zi geografik joylar nomlari o'sha joylarni tadqiq etgan kishilar nomiga, ba'zan ekspeditsiya kemalari nomi, ba'zan tadqiqotchining yaqin kishilari, podshohlar nomi bilan atalishi ham mumkin. Masalan, "Mod", "Foka", "Jannetta", "Vityaz", "Arnem" kemalar nomidagi orollar, yerlar bor. Komandor orollari, Bering bo'g'izi, Dejnev burni, Livingiston sharsharasi va boshqalar esa kishi ism familiyalari bilan bog'liq.

Bu keltirilgan misollarda geografik nomlarning paydo bo'lishida qonuniyatlar mavjudligi ko'zga tashlanmaydi. Aslida bir qancha qonuniyatlar mavjud. Bular quyidagilar:

1. Ko'pgina geografik nomlar til taraqqiyotining dastlabki davrida oddiy turdosh otlardan iborat bo'lib, keyinchalik, vaqt o'tishi bilan atoqli otlarga - geografik nomlarga aylanib ketgan. Masalan: ilgari odamlar oddiygina suv, soy, daryo, qo'rg'on, kent, ko'l, to'qay deb ataganlar. Keyinchalik bu oddiy so'zlar geografik nomga aylangan. Bularga Amur, Jayhun, Don, Edil, Ganga, O'kuz, Nil, Shott nomlari misol bo'ladi. Hammasining ma'nosi bitta, suv demakdir. Aydar - qir, yayla - yaylov, chink - jarlik, alp - tog', rio - suv, xingan - tizma va boshqalar.

2. Oddiy so'zlarga, toponimlarga aniqlovchi qo'shish yo'li bilan geografik nomlar hosil bo'ladi. Bunda aniqlovchi sifat so'z turkumidan, otdan, sondan, ravishdan, sifatdoshdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, sifat qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan toponimlarga Yangiqo'rg'on, Kattaqo'rg'on, Oqmachit, Ko'kterak, Yangiobod, Qoradaryo, Oqdaryoni misol qilib keltirish mumkin. Ot qo'shish yo'li bilan Qumqo'rg'on, Toshqal'a, Taxtakoprik, Toshkent, Chimkent, Shoshtepa, G'azalkent toponimlari vujudga kelgan. Son qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan toponimlarga Yettiterak, Beshqayrag'och, Uchtom, Qo'shtut, Yakkatut kabi toponimlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Qaynarbuloq, Xo'jabaqirgan, Kuyganyor kabi toponimlar otga ravishdosh qo'shilishidan hosil bo'lgan.

3. Geografik nomlarning bir obyektidan ikkinchi, ba'zan uchinchi, to'rtinchi obyektlarga ko'chishi natijasida yangi joy nomlari vujudga keladi. Masalan, Sirdaryo daryosi, Sirdaryo viloyati, Sirdaryo shahri, Sirdaryo tumani; Chirchiq daryosi, Chirchiq shahri; Ohangaron shahri, Ohangaron daryosi; Zarafshon daryosi, Zarafshon shahri, Farg'ona vodiysi, Farg'ona viloyati. Ayrim daryolar bo'yidagi shaharlar nomi daryo nomiga suffiks qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan. Masalan, Angara daryosi - Angarsk shahri, Tom daryosi - Tomsk shahri, Ij daryosi - Ijevsk shahri, Or daryosi - Orsk shahri.

4. Ko'pchilik mamlakatlarning nomlari xalqlar nomiga - iya, - iston suffikslarini qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan: Turkiya, Ispaniya, Finlandiya, Vengriya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston va boshqalar.

Lekin ayrim davlatlar nomining yasallishida - iya, suffiksi xalqlar nomiga emas, balki boshqa so'zlarga ham qo'shilishi mumkin. Masalan, Braziliya (brazil - o'simlik nomi), Kolumbiya (Kolumb - mashhur sayyoh), Islandiya (island - muz mamlakati).

5. Geografik obyektlarga nom qo'yishda o'xshatib nomlash ham mavjud. Bu har xil maqsadlarda bo'lishi mumkin. Chunonchi, Amir Temur Samarqandning shuhratini oshirish maqsadida poytaxt atrofiga bir qancha qishloqlar qurib, o'sha vaqtdagi mashhur shaharlar nomini qo'ygan; Damashq, Parij, Sheroz, Bag'dod, Misr va boshqalar. Bularning ba'zilari hozir ham nomini saqlab keladi. H.H.Hasanov keltirgan ma'lumotga ko'ra, Yer yuzida 18 ta Amerika, 13 ta Vengriya, 9 ta Kanada, 5 ta Braziliya, 3 ta Italiya, 7 ta Venetsiya, 4 ta Praga, 4 ta Kiyev nomlari mavjud ekan. Amerikada Moskva, Parij, London, Uels, Nyukasl va boshqa shaharlar mavjud.

6. Geografik nomlar umumlashtirish yo'li bilan, ya'ni kichik joy nomini katta hudud yoki obyektga ko'chirish natijasida ham vujudga keladi. Bunga misol qilib Osiyo nomini keltirish mumkin. Qadimda Osiyo (Osu) deb Livan, Falastin, Suriya joylashgan kichik hudud atalar edi, keyinchalik bu nom butun qit'a nomiga aylandi. Hozirgi Tyanshan deb ataladigan tog'larning umumiy nomi bo'lmagan, har bir tog' tizmasi o'z nomi bilan Chotqol, Qurama, Ko'kshag'al, Talas, Farg'ona va boshqa nomlar bilan atalar, faqat Tyanshanning markaziy qismi Tangritog', Xontangri, deb atalar edi. Xitoylar Tangritog'ni o'z tiliga tarjima qilib, Tyanshan deb atashgan. Keyinchalik bu nom butun tog' tizimining umumlashma nomi bo'lib qolgan. Huddi shunday Yevropa, Afrika nomlari ham umumlashma nomdir.

7. Tarjima qilish yo'li bilan ham shakllanib, yangi nomlar paydo bo'ladi. Bunday nomlar bir joyda turli xalqlar yashaydigan hududlarda yoki bir geografik obyekt (xususan daryo, tog' tizmalari) turli xalqlar hududlaridan o'tadigan joylarda uchraydi. Bunday geografik nomlarga Qora dengiz - Chyornoye more, Qorasuv - Siyohrud, Qizilsuv - Surxob, Ilono'tti - Morguzar, Baliqchi - Рибачье, Movarounnahr - Daryo orasi, Qizil dengiz - Bahri muhit Ahmar - Красное море, Yangikent - Dehinov, Temir Darvoza - Железное ворота, Shaytonmakon - Чертово городище va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Geografik nomlarning oddiy so'zlarga aylanishi (detoponimizatsiya)

Geografik nomlardan turli xil oddiy so'zlar - terminalar, turdosh otlar vujudga kelish hollari tez - tez uchrab turadi. Mamlaktlar, shaharlar, qishloqlar, tabiiy geografik obyektlar nomlaridan hosil bo'gan yangi so'zlar

toponomlar deyiladi. Toponomlar barcha xalqlar tillarida ham uchraydi. Bir qancha tabiiy geografik terminlar geografik nomlardan olingan: *vulqon* O'rta dengizdagi Vulkano oroli nomidan, *geyzer* Islandiyadagi *Geyzer* deb ataluvchi buloq nomidan, *karst* Bolqon yarimorolidagi Karst platosi nomidan, meandra Turkiyadagi Menderes daryosi nomidan, *delta* Nil daryosi quyiladigan Delta degan joy nomidan kelib chiqqan. Bu geografik nomlar geografik terminlarga aylangan. Ba'zan geografik nomlardan butunlay boshqa ma'nodagi so'zlar paydo bo'ladi.

Bolonya, jersi, boston, krepdeshin, paplin matolari nomlari joy nomlaridan iborat. Bolonya va Paplin Italiyadagi shaharlar, Jersi - Fransiya shimolidagi shahar, krepdeshin - Xitoy matosi (krep - mato, shin - Chin) va boshqalar. *Panama* (bosh kiyim) nomi Panama davlati nomidan, *olimpiada, olimpika* Gretsiyadagi Olimp tog'i nomidan olingan, g'arbiy Yevropadagi Alp tog'lari nomidan *alpinizm, alpinist, alp o'tloqlari, alp burmalanishi, alpid* kabi so'zlar olingan.

Ayrim geologik davrlar, burmalanishlar, tabiiy hodisalar nomlari ham joy nomlaridan olingan. Geologik davrlardan *kembriy* Angliyadagi Uels viloyatining qadimiy nomi, *ordovik* va *silur* Angliya janubida yashaydigan qabilalar nomi, *devon* Angliyadagi graflik, *perm* Uraldagi shahar nomi, *gersin* Markaziy Yevropadagi tog'lar nomi va h.k. *Gondvana* Hindistondagi *gond* qabilasi va *Vand* rayoni nomidan olingan. Lavrosiyo Kanadadagi Lavrentiya va Osiyo nomlaridan kelib chiqqan.

Bir qancha kimyoviy elementlar joy nomlari bilan ataladi: *fransiy, skandiy, germaniy, yevropiy, poloniy, kaliforniy*. Ko'pchilik minerallar topilgan joyi nomi bilan ataladi: *azorit, alebastr, amazonit, arogonit, birmit, gavanit, labradorit, tanzanit* va boshqalar. Kichik sayyoralar - asteroidlar uchasi *Ukraina, Volga, Sumianna* (Sumi shahri nomidan) deb ataladi.

Ko'pchilik ulug' shaxslarning ismi va taxalluslari ham ular tug'ilgan yoki yashagan joylar nomlaridan olingan: Muhammad al Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad Yassaviy, Dehlaviy, Jomiy, Sheroziy, Ho'jandiy, Rumi, Mahmud Torobiy, Muhammad Narshaxiy, Rudakiy va boshqalar.

Juda ko'p kemalarga shahar, daryo va boshqa geografik obyektlar nomlari qo'yilgan: "Volga", "Vladivostok", "Toshkent", "Gruziya", "Neva" va boshqaar. Avtomobillar, sovuqxonalar, kir yuvish mashinalari, radiopriyomnik va boshqalarga ham joy nomlari qo'yilgan. Bulardan boshqa ham joy nomlari bilan ataladigan narsalar ko'p. O'zbek tilida joy nomlariga bog'liq ravishda vujudga kelgan so'zlar juda ko'p. Chunonchi, *makkajo'xori, qo'qon jo'xori, hitori qo'y, angori echki, qorako'l qo'y, shibirg'oni uzumi, qurama guruchi, shotut (shom tuti), balx tut, jilon jiyda (Erondagi G'ilon*

shahri), *qirimiska uzum* (qirmiz - “qizg'ish” so'zidan), *kishmish* (*Eronga qarashli Keshm oroli nomidan*), *chust do'ppi*, *baronas*, *doka*, *tivit*, (*Tibet so'zidan*), *iroqi do'ppi*, *iroqi sovun* (*Iroq nomidan*) va h.k.

Mamlakatimizda mahalliy shevalarda joy nomlaridan hosil bo'gan juda ko'p so'zlar mavjud. Ularni o'rganish fan oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Geografik nomlarning ma'nosi haqida

Geografik nomlarning juda ko'p ekanligi haqida yuqorida aytgan edik. Joy nomlari qancha bo'lsa, ularning kelib chiqishi tarixi, ma'nosi haqidagi taxminlar ham shuncha ko'p. Geografik nomlar qaysi xalq tilida bo'lmasin, ba'zi birlarining ma'nosini osongina tushunsa bo'ladi, ba'zi nomlar murakkab bo'lib, tushunish qiyin yoki butunlay tushunarsizdir. Ba'zi bir nomlar ma'nosi tushunarli bo'lib ko'rinsa ham, lekin ancha murakkab bo'ladi.

O'zbek tilidagi rang ko'rsatkichlar - *qora, oq, ko'k, sariq* so'zlari toponimlar tarkibida kamdan - kam hollarda shu rang ma'nosida qo'llaniladi. Masalan, *qora* so'zining *yomon yer, sharpa, past, shimol, qorsiz* ma'nolari mavjud. Joy nomi tarkibida kelganda ham u o'shanday ma'nolarda ishlatilishi mumkin. Masalan: Qora dengiz - shimoldagi dengiz, Qoratog' - past tog', Qorasuv - sizot suv, buloq suvi ma'nolarini anglatadi. Toponimlar tarkibidagi oq so'zi ham oqni anglatmaydi. Chunonchi Oqtog' - qorli tog', *baland tog', yuksak tog'*; Oqtepa - *boyonlar tepasi, oqsuyaklar tepasi, yorug' tepa* ma'nolarini, Oqqum - *o'simlik bilan mustahkamlanmagan ko'chma qumni* anglatadi.

Shunga o'xshash toponimlar tarkibida uchraydigan *taxta, xotin, oydin, ayron* kabi so'zlar ham boshqa ma'nolarda qo'llaniladi. Masalan; Taxtabozor - *tekis yerdagi bozor*, Xotinko'prik - *tosh ko'prik*, Oydinko'l - *toza suvli, ochiq ko'l*, Ayronko'l - *loyqa suvli ko'l* va boshqalar.

Toponimist olimlar joy nomlarini o'rganib, turli mamlakatlardagi ko'plab nomlarning paydo bo'lishi, ma'nosi, qanday o'zgarganligini aniqlab yozgan bo'lsalar ham hali kelib chiqishi, ma'nosi, hatto qaysi tilda ekanligi noma'lum bo'lgan geografik nomlar juda ko'p. Shularni hisobga olib, H.H.Hasanov (1985) geografik nomlarni ayon nomlar, ya'ni qaysi tildaligi, ma'nosi uchun shunday atalganligi o'zidan anglashib turadigan nomlarga va noayon, ya'ni qaysi tildaligi, ma'nosi, nega shunday atalgani aniqlanmagan nomlarga ajratadi. Ayirtov, Bog'ishamol, Jarariq, Chuqursoy, Yakkasoroy, Amerika, Kolumbiya, Volgograd, Avstraliya, Kumushkon, Oltintopgan, Yangiobod, Tinch okean, Issiqqo'l kabi nomlar ma'nosi ayon nomlardir. Ayrim joy nomlarining geografik o'rni, ayrim xususiyatlari nomning o'zidan anglashib turadi; Kavkazorti, Janubiy Olamushuk, O'rta Chirchiq, Rostov - Don, Janubiy Xitoy dengizi, Zadaryo, Unguzorti qirlari va boshqalar. Lekin Ladoga, Farg'ona, Romiton, G'ijduvon, Taymir, Kolima va boshqa nomlar ma'nosi uncha aniq emas.

Toponimlar orasida ba'zan Uchquduq, Beshqo'rg'on, Qo'shtut, Yettiterak kabi aniq, tushunarli bo'lib ko'rinsa ham, aslida boshqa ma'no anglatadigan nomlar ham bor, chunonchi Beshariq, Oltiariq aslida Peshariq,

Ortariq so'zlaridan kelib chiqib, keyin o'zgargan. Yong'oq, Ko'kterak, Toshkent, Toldiqo'rg'on, Olmaliq, Belgrad kabi toponimlarda ham noaniqlik mavjud. Yong'oq degan joyda yong'oqzor bo'lganmi yoki bir tup yong'oq o'sganmi, Toshkentda shahar paydo bo'lganda hamma binolar toshdan qurilganmi yoki bir qo'rg'on toshdan bo'lganmi yoki shaharni tosh devor bilan o'ralganmidi. Bular noaniq.

Toponimlarning paydo bo'lishi

Geografik joy nomlari juda turli - tuman, ba'zi nomlar g'aroyib, g'alati. Ularning kelib chiqishi ham juda xilma - xil. Ularni turlarga ajratish ham juda murakkabdir. Ko'pincha til qoidalarini nuqtai nazaridan turlarga ajratiladi. Yana shakllanish bosqichlariga, bunyodga kelishiga, nimalar bilan bog'langanligiga ko'ra ham turlarga ajratiladi.

Quyidagi turlarga ajratish joy nomlarining kelib chiqishi, qanday hodisa va voqealarga bog'langanligiga qarab amalga oshirilgan. Geograflar uchun shunday yo'l bilan turlarga ajratish ma'qulroq ko'rindi.

1. Joyning geografik o'rniga bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar. Masalan: Nordkap (Shimoliy burun), Severnaya Zemlya (Shimoliy Yer), Xokkaydo (Shimoliy orol), Janubi - sharqiy burun, Shimoliy dengiz, Sharqiy Xitoy dengizi, Rio - Grande del - Norte (Shimoliy katta daryo), Orqa Oloy, G'arbiy Dvina va boshqalar.

2. Ayrim geografik nomlar o'sha joyning, geografik obyektning o'ziga xos xususiyatlaridan paydo bo'ladi. Bunday nomlar orasida relyef shakllariga bog'liq nomlar ancha ko'p uchraydi. Qrimdagi Ayiqtog', Turkiyadagi Tavr (grekcha buqa) tog'i, Shimoliy Muz okeanidagi Shpisbergen (Nayzatog'), Dunay vodiysidagi Temir darvoza (dara nomi) shular jumlasidandir. Bizning o'lkamiz - O'rta Osiyoda bunday nomlar ko'p: Qumtepa, Egartosh, Belisiniq tizmasi, Odamtosh, Supatog', Beshiktog', Yo'g'ontepa, O'radaryo, To'rg'ay supasimon o'lkasi, Chuqursoy, Qo'ytosh bularga misol bo'ladi.

Relyefdan boshqa xususiyatlarga ko'ra paydo bo'lgan nomlarga Qizil dengiz, Oq dengiz, O'lik dengiz, Sariq dengiz, Islandiya (Muz o'lkasi), Monblan (Oqtog'), Issiqko'l, Kungay Olatov, Terskay Olatov, Bog'ishamol, Qoraqum, Qoraqurum, Shamolli orollar, Shamolsiz orollar, Polineziya, Mikroneziya, Melaneziyani misol qilib ko'rsatish mumkin.

3. Suv bilan bog'liq nomlar (gidronimlar). Okean, dengiz, daryo, ko'l, muzlik, buloqlar nomlari gidronimlar deyiladi. Gidronimlar ham suvning xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'ladi. Daryo, ko'l, buloq va quduqlar

suvining rangi, sho'rliigi, toza (tiniq)ligi, chuqurligi va boshqa xususiyatlariga qarab har xil.

Yer osti suvlaridan, sizot suvlardan hosil bo'lgan daryolar Qorasuv, Qoradaryo deb, tog'lardagi qor va muzlardan suv oluvchi daryolar ko'pincha Oqdaryo deb, suvi tiniq, toza bo'lsa Ko'ksuv deb, loyqa suvli daryolar Sarisuv, Xuanxe (Sariq daryo) deb nom olgan. Tiniq va toza suvli ko'llar Oynako'l, Ko'kko'l, loyqa suvli bo'lsa Ayronko'l, sho'r bo'lsa Sho'rko'l, Achchiqko'l, Achchiko'l deb nomlanadi.

Farg'onadagi Tentaksoy, Surxondaryodagi Jinnidaryo bahorgi toshqin vaqtida jo'shqin bo'lib, o'zanini o'zgartirib, qirg'oqlarini buzib oqqanligi uchun shunday nom olgan. Buloq hamda quduqlar nomi ko'pincha suvning xususiyatlari - harorati, tozaligi, tarkibida qanday minerallar, tuzlar mavjudligiga qarab, yer ostidan qanday tarzda chiqishiga qarab qo'yiladi. Masalan: Sho'rbuloq, Qo'tirbuloq (suvi tarkibida oltingugurt mavjud), Obirahmat (shifobaxsh, suvi shirin buloq), Issiqsuv, Obigarm, Arashon, Qaynarbuloq, Jimbuloq. Quduqlar ham huddi shunday xususiyatiga qarab Shirinquduq, Sho'rquduq, Chuqurquduq kabi nomlarga ega. Yog'ingarchilik vaqtlarida suv oqib, ko'p vaqt qurib yotadigan kichik daryolar ko'pincha Quruqsoy deb ataladi.

4. O'simliklarga bog'liq nomlar (fitonimlar). O'simliklarga bog'liq holda paydo bo'lgan joy nomlari mamlakatimizda ham, boshqa mamlakatlarda ham ko'p uchraydi. O'simliklar bilan bog'liq nomlar ba'zan aniq miqdorini bildiradi. O'rikzor, Bodomzor, Chilonzor, Terakzor, Qatortol nomlari o'sha joylarda shu tur o'simliklarning ko'p tarqalganligini bildirsa, Yakkatut, Qo'shchinor, Qo'shtut kabi nomlar bu tur o'simliklar kamligini bildiradi. Yong'oq, Ko'kterak, Toldiqo'rg'on, Bukovina, Beryozovka, Archaqishloq kabi nomlarda noaniqlik bor. Shu joyda yong'oq bittami yoki ko'pmi, aniq emas. O'simliklar bilan bog'liq paydo bo'lgan nomlarga Yevropadagi Shvarsvald (qora o'rmon), Afrikadagi Drakon tog'lari (drakon - daraxt nomi), Amerikadagi Florida (o'simlik, ko'klamzor), Osiyodagi Kokos orollari nomlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. O'simliklar bilan bog'liq joy nomlari mikrotoponimlarda ayniqsa ko'p uchraydi. Toshkentdagi Olmazor, Sebzor, Qoraqamish, O'rikzor, Bodomzor, Olchazor, Olchali, Qoratal, Yettiterak, Bog'ko'cha, Chilonzor shular jumlasidandir.

5. Hayvonlarning nomi bilan bog'liq joy nomlari (zoonimlar). Dunyo xaritasida hayvonlarga bog'liq holda vujudga kelgan nomlar ko'p uchraydi. Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan bunday nomlarni tahlil qilish bilan qadimda ayrim hayvonlar tarqalgan joylarni ham aniqlash mumkin. Amudaryo bo'yida Termiz yaqinidagi Maymunto'qay, Toshkent viloyatidagi G'azalkent (g'izol - kiyik), Bog'iston (aslida bug'iston so'zidan), So'qoq (oq

kiyik), Ilonlisoy, Kaptarxona, Kurkuldak (qush), Toshkent shahridagi Bo'rijar, Qurbaqaobod va boshqalar mazkur joylarda qadimda shunday hayvonlar ko'p bo'lganidan dalolatdir.

Dunyoning boshqa joylarida ham bunday nomlar ko'p uchraydi. Masalan: Tinch okeandagi Galapagos orollari (galapago - toshbaqa), bu orollarda yirik toshbaqalar hozir ham mavjud. Barens dengizidagi Medvejiy oroli, Shimoliy Amerikadagi Katta Ayiq, Kichik Ayiq ko'llari, Baykal ko'lidagi Tushkani (mahalliy aholi tilida tushkan deb ataydi), O'rta Osiyodagi Qoplonqir, Qoplonsirt nomlari hayvonlar bilan bog'liq.

6. Foydali qazilmalarga bog'liq joy nomlari. Juda ko'p joy nomlari kon bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Qirg'izistondagi Toshko'mir, Moylisuv shaharlari, O'zbekistondagi Kumushkon, Gazli, Tuzkon, Surmatosh, Turkmanistondagi Nebitdog', Gugurtdog', Uraldagi Magnitnaya tog'i, Magnitogorsk, Solikamsk, Kola yarimorolidagi Apatit shahri nomi foydali qazilmalar bilan bog'langan. Janubiy Amerikadagi And tog'lari (mis tog'lari), Argentina (Argentus - kumush), Turkiyadagi Marmara dengizi nomi ham foydali qazilmalar bilan bog'langan.

7. Xalq, qabila, urug'lar nomlari bilan bog'liq toponimlar (etnonimlar). Odatda xalq, urug', qabila nomlari ilmiy tilda etnonim deyiladi. Juda ko'p joy nomlari etnonimlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Etnonimlardan hosil bo'lgan joy nomlari **etnotoponimlar** deyiladi. Etnotoponimlarni o'rganib, tarixiy davrlarda qaysi xalqlar, urug'lar qayerlarda yashaganini, qayerlarga ko'chganligini aniqlash mumkin.

Dunyo xaritasida etnotoponimlar juda ko'p. Ko'pchilik mamlakatlarning nomlari xalq nomidan olingan, xalq nomiga - iya, - iston qo'shimchalari qo'shilib, mamlakat nomi hosil qilingan. Masalan, alban - Albaniya, portugal - Portugaliya, dan - Daniya, rumin - Ruminiya, bolgar - Bolgariya, turk - Turkiya, afg'on - Afg'oniston, qirg'iz - Qirg'iziston, tatar - Tatariston, tojik - Tojikiston va h.k.

Faqat davlatlar nomigina emas, balki etnonimlardan hosil bo'lgan boshqa geografik obyektlar nomlari ham ko'p uchraydi, Masalan, Malik cho'li (Malik urug'i nomidan), Baraba dashti (Baraba urug'i nomidan), shuningdek, Qizil shahri, Eri, Guron ko'llari, Karib dengizi, Appalachi tog'lari, Ayova, Delaver qabilalar nomidan olingan. H.H. Hasanov "Geografik nomlar siri" (1985) kitobida O'rta Osiyo toponimlari hosil qilgan urug'lardan 76 tasini misol qilib ko'rsatadi. Shulardan ayrimlarini keltiramiz; Adoq, Andi, Arlot, Arg'un, Asaka, Bag'ish, Beshkapa, Boyovut, Bayot, Do'rmon, Yorboshi, Kaltatoy, Malik, Ming, Mitan, Mo'g'ul, Nazarbek, Nayman, Nukus, Olot, Savay, Sayot, Saroy, Toyloq, Uzun, Chandir,

Chimboy, Chig'ay, Chig'atoy, Yuz, Qalmoq, Qashqa, Qoraxitoy, Quti, Qo'ng'iro't.

Ba'zi xalqlar nomi aksincha mamlakat nomidan olingan. Bularga indoneziyaliklar, avstraliyaliklar, braziliyaliklar, kubaliklar, isroilliklar, falastinliklar, ekvadorliklar, amerikaliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

8. Aholining kasb - hunaridan olingan nomlar. Kasb - hunar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan geografik nomlar o'rta va ayniqsa kichik (mikro) toponimlar orasida ko'p uchraydi. Moskva yaqinidagi Ximki shaharchasi, Sirdaryo viloyatidagi Paxtakor tumani, Qashqadaryodagi Chiroqchi, Dehqonobod shaharlari, Buxoro viloyatidagi Qorovulbozor shahri shular jumlasidandir. Toshkentda Egarchi, O'qchi, Pichoqchilik, Zargarchilik, Choponbozor, Qalandarxona, Shifokorlar shaharchasi va boshqalar bor. O'rda, Xonaqo, Mahkama, Qoziko'cha kabi toponimlar ma'muriyatga tegishli tashkilotlar nomidan paydo bo'lgan.

9. Shaxslarning ism - shariflari, tahalluslariga qo'yilgan geografik nomlar (antroponimlar). Dunyo xaritasida bunday nomlar tilga kirganda sayyoh va geograflar, yangi yer ochuvchi, noma'lum o'lkalarga borib, jonini garovga qo'ygan tadqiqotchi olimlar, ularning qilgan ishlari, yozilgan asarlari, qahramonliklari haqida ko'p bilib olardik. Afsuski, xaritalar gapirmaydi. Lekin bunday toponimlarda ana shunday kishilarning nomlari mangu saqlanadi. Ana shuning uchun ham joy nomlarini o'zgartirganda shu nomlar egalarining kimligini bilmasak, ko'p shoshmasligimiz zarur. Dunyo xaritasidagi Kuk, Bering, Magellan, Kolumb, Gudzon, Livingiston, Mikluxo - Maklay, Barens, Laptevlar, Bass, Flinders, Shokolskiy nomlari ana shunday nomlardandir. Jahon fani, madaniyati, ma'naviyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan allomalarning, vatan ozodligi, mustaqilligi uchun kurashgan, jonini fido qilgan vatanparvarlarning nomlari ham joy nomlarida mangu saqlanadi. Bunday nomlarga Beruniy, Navoiy, Ulug'bek, Al - Xorazmiy, Ibn Sino, Al - Farg'oniy, Forobiy, Pushkin, Vashington, Jaloliddin Manguberdi kabi nomlarni kiritish mumkin.

Ba'zan davlat boshliqlari, podshohlar, sayyoh va tadqiqotchilarning sevikli kishilari, hatto qaroqchilar nomlari ham xaritada abadiylashib qoladi. Masalan, Angliya qirolichasi Viktoriya, mashhur dengiz qaroqchisi Dreyk nomlari ham xaritada abadiylashib qolgan.

Kishilarning ism - sharifi, tahallusi bilan bog'liq nomlarni memorial va oddiyroq nomlarga ajratish mumkin. Memorial nomlarga haqiqatan haqiqiy buyuk kishilar, ya'ni zamon, jamiyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar hurmat bilan tilga olinadigan, butun insoniyatga xizmat qilgan shaxslar nomlarini kiritish mumkin. Bunday nomlar har qanday jamiyatda saqlanib qoladi. Qanday nomlar memorial ekanligini vaqt belgilaydi. Mikrotoponimlar

orasida shaxslarning ism - shariflari, tahalluslari bilan bog'liq nomlar juda ko'p. Lekin ularning ko'pchiligi zamon o'zgarishi bilan o'zgarib ketadi, yangi nomlar bilan almashinadi. Bunday nomlar memorial nomga kiritilmaydi. General Chernyayev nomi bilan atalagan Chernyayevka, general Kaufman sharafiga qo'yilgan Kaufmanskaya stansiyasi, Skobelev, sho'ro qo'mondonlaridan Frunze, Kuybishev (shaharlari) nomlari shunday nomlar bo'lib, ular nomlari almashtirildi.

10. Afsonaviy va diniy nomlar. Geografik xaritalarda o'sha joyga hech qanday aloqasi bo'lmagan nomlar ham uchraydi. Bunday nomlar kishilarning eshitgan ertak, hikoyalari, o'qigan kitoblari qahramonlari, afsonaviy mahluqlar nomlari bilan bog'liq holda vujudga keladi. Bunday nomlarga O'sh shahridagi Taxti Sulaymon, Toshkentdagi Kaykovus arig'i, Shri - Lankadagi Odamota tog'i, Uraldagi Shaytonmakon, Sirdaryodagi Farhod qoyasi, Xorazmdagi Duldulotlagan, Shohimardon, Ohangarondagi Ali qoyasi misol bo'ladi. Bunday nomlarni afsonaviy nomlar deyiladi. Aslida o'zi yo'q - ku nomi saqlanib qolgan joy nomlari ham afsonaviy nomlar hisoblanadi. Sannikov Yeri, Ko'hi Qof, Ya'juz - Ma'juz yeri ana shunday nomlardir.

Dinga va din namoyondalari nomlariga, diniy bayramlarga bog'liq toponimlar ham ko'p uchraydi. O'zbek tilidagi, umuman turkiy tillardagi dinga bog'liq nomlarga ko'pincha *ota*, *avliyo*, *bobo*, *islom*, *momo*, *nur*, *ziyo*, *shayx* kabi qo'shimchalar qo'shiladi va bunday nomlar aksariyat hollarda muayyan shaxslar nomlari bilan bog'langan bo'ladi: Avliyoota, Zangibuva (Zangiota), Cho'ponota, Nurota, Shavkatbobo, Oqsoqota, Norakota, Surenota, Yalong'ochbuva, Islomobod, Shayx Zayniddinbobo, Ho'jaalandorbuva, Bibi Mariyam va h.k.

G'arb mamlakatlarida diniy geografik nomlarga odatda *san*, *sankt*, *svyatoy* kabi so'zlar qo'shib yoziladi: San - Marino, San - Tome, San - Fransisko, San - Salvador, Santyago, Sankt - Peterburg, Svyatoy Lavrentiy, Svyatoy Nos va b.

11. G'aroyib nomlar. Ba'zi bir geografik nomlar g'alati ma'noli, kulgili, ayrimlari qo'rqinchli bo'ladi. Toshkent shahrida Xotinko'prik, Pushtihammom, Chuvalachi, Yalang'och, Qoryog'di, Padarkush, Injiqobod, Jinko'cha, Kallaxona, Kampirdevor, Qonqus, Moxovzor kabi g'aroyib nomli ko'cha, mahalla, mavzalar mavjud. Dunyo xaritasida ham g'aroyib nomlarni ko'p uchratamiz. G'alati nomlardan Krivoy Rog (egri shoh), Kapri (echki) oroli, Kanar (it) orollari, Labbay tog'i, Cho'ntakqishloq, Zolotoy Rog (Oltin shoh), qo'rqinchli, vahimali nomlardan Dashti Lut (O'lim dashti), Ajal vodiysi, Dashti Margoh (O'lim dashti), Borsakelmas, O'lik dengiz, Jonchiqar kabi nomlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Angliyadagi ayrim joy nomlari

o'zbek tiliga tarjima qilinsa, “Rahming kelsin”, “So'qir kuyovlar”, “Qurbaqalar”, “Zo'r Muhabbat”, “Kalamush qal'a”, “Ko'rinmay qoldi” degan ma'nolarni beradi. Bunday nomlarni O'zbekistonda ham ko'plab uchratish mumkin: Ko'kdo'ppi (Farg'ona viloyatida), Og'zikeng, Jo'jao'g'ri, Kampirchiqdi, Qorko'mdi, G'alcha va boshqalar shular jumlasidandir. G'aroyib nomlar qayerda bo'lmasin o'z tarixiga va qandaydir o'ziga hos xususiyatiga ega bo'ladi.

12. Zamonaviy nomlar. Geografik nomlar boshqa hamma narsalar kabi vaqt o'tishi, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, tabiiy o'zgarishlar ro'y berishi bilan o'zgaradi, eski nomlar yangilanadi, zamonasiga munosib yangi nomlar paydo bo'ladi. Obruchevo, Gorchakovo Chernyayevka, Skobeev, Kaufman stansiyalari va boshqalar o'zgartirilganligini hamma biladi.

O'rta Osiyoni Rossiya bosib olgandan keyin O'rta Osiyo xaritasida rus bosqinchi generallari nomlari, o'lka tabiati, tabiiy boyliklarini o'rgangan rus tadqiqotchilari nomlari bilan bog'liq geografik nomlar paydo bo'ldi. Fedchenko, Korjenevskiy muzliklari, Mushketov, Semenov, Ivanov muzliklari, Pyotr I tog' tizmasi kabi nomlar shular jumlasidandir.

Sovet tuzumi davrida kommunist dohiylar, sarkardalar, rahbarlar umuman sovetlar tuzumi vakillari nomlari juda ko'payib ketdi. Lenin, Stalin, Marks, Engels, Molotov, Voroshilov, Chapayev va h.k nomlari yuzlab joylarga qo'yildi. Bundan tashqari ismi –jismiga mos kelmaydigan kommunizm, sosializm, Yangihayot, Olg'a, Oktabr, Ilg'or, Qizil bayroq, Qizil qo'shin va h.k nomlar ham juda ko'paydi.

Shu bilan birga bu davrda xalqimizning jahon fani va adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan namoyondalari Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi kishilarning nomlari abadiylashtirildi: Navoiy, Beruniy nomlari shaharlarga qo'yildi. Lekin bular dengizdan tomchi edi. Mamlakatimiz O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin zamon o'zgardi – istiqloq davri boshlandi. Zamonga xos yangi joy nomlari paydo bo'ldi, noo'rin o'zgartirilgan joy nomlari tiklandi va tiklanayapti. Mustaqillik maydoni, Amir Temur hiyoboni, Bobur bog'i, Alisher Navoiy saylgohi, Buyuk Ipak yo'li metro bekati va boshqalar shular jumlasidandir.

Joy nomlarining to'g'ri yozilishi

Geografik nomlarning to'g'ri yozilishi masalasi juda muhim va murakkab masala. Muhimligi shundaki, geografik nomdagi biror harf noto'g'ri yozilib qolsa, ma'no butunlay o'zgarib ketishi mumkin. Masalan, Qoraqo'l (Qirg'izistondagi daryo) va Qorako'l (Tojikistondagi ko'l). Bunda “q” harfi “k” bilan almashinib qolsa, daryo ko'lga aylanib, joyi o'zgarib

ketadi. Beshariq, Oltiariq, (Farg'ona viloyatida) aslida Peshariq va Ortariq bo'lgan. Fonetik o'zgarishlar oqibatida boshqa ma'noli toponimlarga aylangan. Toponimlarning to'g'ri yozilishi masalasining murakkabligi shundaki, ular turli tillarda bo'lib, aslida o'sha tillar qoidalariga muvofiq yoziladi. Boshqa tillarga o'tganda talaffuzida ham, yozilishida ham o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Ko'pchilik mamlakatlarda geografik nomlarning to'g'ri yozilishiga katta ahamiyat beriladi. Masalan, Buyuk Britaniyada geografik nomlar komiteti, AQShda geografik kengash, Belgiyada Toponimika va dialektlar komissiyasi geografik nomlarning to'g'ri yozilishini tartibga solib turadi. Rossiya Federasiyasida Ensiklopediya Bosh tahririyati toponimlar va terminlarning to'g'ri yozilishini boshqaradi.

O'zbekistonda Atamalar qo'mitasi tashkil etilgan. Bulardan tashqari toponimika komissiyalari mavjud. Shunga qaramay geografik nomlarning yozilishida chalkashliklar ko'p uchraydi. Geografik nomlarni to'g'ri yozish juda muhim. Bu xalqning bilim va madaniy saviyasini ko'rsatadi. Kundalik matbuotda, xususan gazetalar, jurnallarda, radio va televideniya, darsliklarimiz hamda badiiy adabiyotda mamlakatimizga va chet ellarga doir minglab geografik nomlar uchraydi. Bularning hammasini ham to'g'ri ekanligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Hatto davlatlar nomi (shahar, qishloq va h.k.larni qo'yaturaylik) har hil aytiladi, har hil yoziladi. Biri Olmoniya desa, biri Germaniya, biri Fransiya desa, biri Farangiston deydi, biri Tursiya desa, yana biri Turkiya deydi.

Ko'pchilik xalqlarda geografik nomlarni yozishda transkripsiya usuli eng ko'p qo'llaniladi. Transkripsiya deganda geografiyada nomlarni talaffuziga qarab yozish, ya'ni quloqqa qanday eshitilgan bo'lsa, shunday yozish tushuniladi. Toponimikada transkripsiya kengroq ma'noda ham qo'llaniladi. Bunda geografik nomlar transkripsiyasi deganda talaffuziga ko'ra yozish ham, tarjima ham, qanday yozish masalasi ham, umuman geografik nomlar imlosining barcha masalalari nazarda tutiladi. Lekin geografik nomlarni talaffuziga qarab yozish ko'pincha to'liq bo'lmaydi. Chunki boshqa tillarda mavjud bo'lgan ba'zi bir harf va tovushlar o'zbek tilida bo'lmasligi mumkin. Masalan, rus tilidagi *и, у* harflari o'zbek tilida yo'q. Yoki o'zbek tilida mavjud bo'lgan *q, o', g', h, j* rus tilida yo'q. Bunday hollarda tilida yo'q tovushlar ularga yaqinroq bo'lgan boshqa tovushlar (harflar) bilan almashtiriladi. Bunday hollarda transkripsiya shartli fonetik transkripsiya bo'ladi. Chet ellar tillaridagi geografik nomlarni yozishda ba'zan transliteratsiya usuli qo'llaniladi. Bunda nomlar biron boshqa tildan ko'chirilganida harfma-harf yozish, ya'ni chet tillar alifbosidagi harflarni

o'zimizdagi harflar bilan almashtirilib yoziladi. So'zning qanday talaffuz qilinishi e'tiborga olinmaydi.

Geografiyada nomlarni yozishning bir qancha tartib qoidalari mavjud.

Chet el nomlarini yozishda ko'pincha transkripsiya usuli qo'llaniladi. Ba'zan transliteratsiya usulidan foydalaniladi. Umuman, har bir geografik nomni uning mahalliy tildagi asl talaffuziga yaqinlashtirib yozishga harakat qilinadi. Keyingi yillarda bir qancha nomlarning asli tiklandi. Qozog'istondagi Shevchenko Oqto'v, Olmaota Almati, Qirg'izistondagi Frunze Bishkek, Tojikistondagi Leninobod Ho'jand deb ataladigan bo'ldi.

Agar biror mamlakat o'z nomini, poytaxti, shahar, qishloq va boshqa geografik obyektlari nomini o'zgartirishni rasmiy ravishda taklif etsa, o'zbek tilida ham o'sha nom qabul qilinadi. Masalan;

Ilgargi nomi:

Hozirgi nomi:

RSFSR

Rossiya Federatsiyasi

Belorussiya SSR

Belorus

Qirg'iziston SSR

Qirg'iziston Respublikasi

Habashiston

Efiopiya

Birma

Myanma

Polsha Xalq Resp.

Polsha

Selinograd

Astana

Qo'shma geografik nomlarni yozishda ko'pincha xatoga yo'l qo'yiladi. Agar geografik xaritalarni ko'zdan kechirsangiz bunday nomlar bir joyda qo'shib yozilganini (Kattaqo'rg'on, Qorasuv), boshqa joyda ajratib yozilganini (Moyli suv) (O'zbekiston iqtisodiy xaritasida) ko'rasiz. Ba'zi nomlar defis bilan ajratib yoziladi (Volga - Don, Petropavlovsk - Kamchatsk).

O'zbekistondagi bunday geografik nomlarni yozishda quyidagi qoidaga amal qilinadi: agar murakkab (qo'shma) geografik nomlarning ikkinchi o'zagi (komponenti) atoqli ot bo'lsa, ularning har biri alohida – alohida va bosh harf bilan yoziladi. Masalan, Eski Toshkent, Yuqori Chirchiq, Yangi Urganch, Qo'hna Urganch va h.k. Agar murakkab geografik nomlarning ikkinchi komponenti turdosh ot bo'lsa, u holda qo'shib yoziladi; Kattaqo'rg'on, Yangiyo'l, Jumabozor, Bekobod. Murakkab geografik nomlarning har ikkala komponenti bosh kelishikdagi atoqli otlardan iborat bo'lsa, u holda defis orqali bosh harf bilan yoziladi; Orexovo - Zuyevo, Volga - Don, Qozi - Muhammad va boshqalar.

Geografik nomlarni yozishda bizda rus tilidagi manbalar – atlas, xarita, lug'at va qo'llanmalar asos qilib olinar edi. Bunda geografik nomlarni yozish osonlashgan. Chunki turli shakldagi toponimlardan foydalanilmasdan faqat rus tilidagi shaklidan foydalanilgan. Lekin ruscha yozishda yo'l qo'yilgan xatolar o'zbekcha yozganda ham takrorlangan. Masalan, Xamburg - Gamburg, Xollandiya - Gollandiya, Xenova - Genuya, Norge - Norvegiya, Napoli - Neapol, Kyobenxavn - Kopengagen va h.k. deb yozilgan. Endi bularni tuzatish mumkin, lekin ayrimlari an'anaviy (traditsion) nomga aylanib qoladi va shunday xatoligacha yozilaveradi.

Rus tilida geografik nomlar ba'zan bosh kelishikda (m. Chelyuskin, o. Chkalov, g. Amundsen, o. Rudolf), ko'pincha qaratqich kelishikda (mis Dejneva, ostrov Vrangelya, gora Kuka, proliv Laperuza) yoziladi. O'zbek tilida bunday nomlarning hammasi, rus tilida qanday yozilganidan qat'iy nazar, bosh kelishikda yozila beradi. Masalan, Chelyuskin burni, Chkalov oroli, Amundsen tog'i, Rudolf ko'li, Dejnev burni, Vrangel oroli, Kuk tog'i, Laperuz bo'g'izi.

An'anaviy nomlar, ya'ni o'zbek tilida qadimdan muayyan shaklda yozilib kelinayotgan joy nomlarining talaffuzi ham, yozilishi ham bir xil. Bunday nomlar o'zgartirilmay yozilaveradi. Ular o'zbek tilida o'nlab va yuzlab yillar davomida bir xil yozilib kelmoqda. Qadimgi ilmiy, tarixiy va sayohatnoma, badiiy asarlarda ko'p uchraydi. Bular asosan sharq mamlakatlaridagi nomlardir; Bag'dod, Dehli, Iroq, Misr, Tehron, Hirot, Eron, Qashg'ar, Hindiston, Marokash, Xitoy, Suriya, Damashq, Bombey, Karochi va b. Rus tilida an'anaviy bo'lib qolgan ko'pchilik geografik nomlar o'zbek tiliga o'tib, shundayligicha saqlanib qolgan. Bularga Avstriya (asli Esterreyx), Albaniya (Shkiperiya), Angliya (Inglad), Bryussel (Bryuksel), Buxarest (Bukaresht), Vashington (Uoshington), Oslo (Uslo), Rim (Roma), Tibr (Tevere), Finlyandiya (Suomi), Fransiya (Frans), Shvesiya (Sverige), Yaponiya (Nippon) va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

An'anaviy nomlar ham o'zgarishi mumkin. Eski an'anaviy nomlar yangilari bilan almashinadi. Bunda hozirgi zamon nomlari bilan almashinadi, hatto bo'lsa tuzatiladi. Afriqo Afrika deb, Amriqo Amerika deb tuzatildi. Bahri Muhit Kabiriy o'rniga Tinch okean, Bahri Muhit Atlosiy o'rniga Atlantika okeani, Bahri Muhit Hindiy o'rniga Hind okeani, Bahri Hazar o'rniga Kaspiy dengizi, Otalar dengizi o'rniga Egey dengizi deyiladigan bo'ldi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin (1989 yil) tilimizni chetdan, asosan rus tilidan kirib kelgan yot so'zlardan tozalash bahonasi bilan yangi an'anaviy nomlarni yana eski nomlar bilan almashtirishga

urinishlar bo'ldi. Albatta bu to'g'ri emas. Xato bo'lsa tuzatish kerak, lekin eskisiga noo'rin qaytish noto'g'ri.

O'rta Osiyo o'lkasidagi geografik nomlarni yozishda tog'larning nomiga qo'shiladigan tog' atamasi tog', tov, too, dog' ko'rinishida yoziladi. Bunday hollarda Qirg'iziston va Qozog'istonda tov, O'zbekistonda tog', Turkmanistonda dog' shakllari qo'llaniladi.

Tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlar ¹

Odatda ismlar tarjima qilinmaydi. Geografik joylar, obyektlar nomi ham aslida ismlardir. Lekin jahon geografiyasi va xaritashunosligida ba'zi bir xil nomlarni to'liq, ba'zilarini qisman tarjima qilish an'anasi mavjud.

Bunday an'ana o'zbek tiliga ham tadbiiq etildi va xalqaro tarjima qilinadigan geografik nomlar o'zbekchaga tarjima qilib yoziladi. Odatda bir qancha xalqlar yashaydigan hududlarga tegishli yirik geografik obyektlar nomlari, obyektning tabiiy xususiyatiga bog'liq holda paydo bo'lgan geografik nomlar to'liq tarjima qilinadi. Masalan; Qora dengiz, fors tilida Daryoi siyoh, rus tilida Чёрное море, rumin tilida More Neagre, nemis tilida Shvarzes Meyers, fransuz tilida Mer Noire deb yuritiladi. O'lik dengiz ruscha Myortvoye more, nemis tilida Totes Meyer, arab tilida Bahr Lut, italyan tilida Mar Moto deyiladi. Huddi shunday Yaxshi Umid burni, Yuqori ko'l, Ko'k Nil, Qizil dengiz, Oq dengiz, O'rta dengiz, Katta Suvayirg'ich tizmasi, Qoyali tog'lar, Katta Sho'r ko'l, Shayton oroli, Olovli Yer oroli, Qorli tog'lar, Shamolli orollar, Shamolsiz orollar ham tarjima qilinadi.

Ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan geografik nomlar qisman tarjima qilinadi. Bunda murakkab geografik nomlarning aniqlovchidan iborat bo'lgan qismi tarjima qilinib, atoqli otdan iborat qismi tarjima qilinmaydi. Ruscha yozilgan geografik nomlardan misol keltiramiz. Южный, северный, восточный, западный, белый, голубой, зеленый, красный, черный, дальний, ближний верхний, нижний, большой, малый, средний, старый, новый kabi sifat aniqlovchilar odatda tarjima qilinadi. Asosiy nom fonetik transkripsiyaga muvofiq o'zicha yozilaveradi. Misollar; Bolshoy Vostochniy Erg–Katta Sharqiy Erg, Vostochno - Avstraliyskoye techeniye–Sharqiy Avstraliya oqimi, Velikobritanskiye ostrova–Buyuk Britaniya orollari, Vostochno–Sibirskiye ostrova–Sharqiy Sibir orollari, Zapadno - Frizeskiye ostrova - G'arbiy Friz orollari, Novaya Gvineya–Yangi Gvineya, Maliy Atlas - Kichik Atlas, Sredne - Russkaya vozvishennost–O'rta Rossiya qirlari, Severnaya Amerika–Shimoliy Amerika, Verxniy Chirchik–Yuqori Chirchiq,

¹ H.Hasanovning “Geografik nomlar siri” kitobining shunday mavzusi asosida yozildi. T., “Fan”, 1962.

Novaya Kaledoniya–Yangi Kaledoniya, Sentralnaya Aziya–Markaziy Osiyo va boshqalar.

Lekin to'liq va qisman tarjima qilish usuli ma'muriy va siyosiy geografik nomlarga, shaharlar, qishloqlar nomlariga qo'llanilmaydi. Masalan, O'zbekistondagi Yangiqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Yangiyo'l, Yangibozor, Yakkabog', Kattaqo'rg'on, Ko'kterak hamma tillarda ham tarjima qilinmay yozilaveradi. Xuddi shunday Velikiye Luki, Verxoyansk, Jeleznovodsk, Krivoy Rog, Nijniy Tagil, Nijniy Novgorod, Yujno - Saxalinsk, Staraya Russa o'zbek tilida o'z shaklida yozilaveradi. Biroq har bir tilda o'z tili grammatikasi imkoniyatida shartli transkripsiya qo'llanishi mumkin.

Tarkibida ruscha *zemlya* (*yer*) so'zi bo'lgan geografik nomlarni yozishda ikkita qoida mavjud; 1) Agar *zemlya* turdosh ot (termin) bo'lsa tarjima qilib yoziladi. Masalan, Zemlya Adeli – Adeli Yeri, Zemlya Amudsena – Amudsen Yeri, Zemlya Fransa Iosifa – Frans Iosif Yeri deb yoziladi. 2) Agar *zemlya* so'zi atoqli ot bo'lib kelsa, u tarjima qilinmaydi. Masalan, Novaya Zemlya, Severnaya Zemlya ko'rinishida yozilaveradi. Agar geografik nomlar faqat aniqlovchidan iborat bo'lsa, u holda tarjima qilinmaydi. Masalan; Belaye ko'li, Tixaya daryosi, Issiqko'l, Qorako'l, Olako'l, Muzko'l va boshqalar hamma tilda ham tarjima qilinmay yozilaveradi. Tov, too, dog' so'zlari geografik nomlar tarkibida kelgan hollarda tov, dog' deb yoziladi. Masalan, Kopetdog', Nebitdog', Qoratorov, Saritov, Olatov va h.k. Bular nom tarkibiga kirmasdan tog' ma'nosida kelganda tog' deb alohida yoziladi. Masalan, Ili Olatog'i, Talas Olatog'i va b.

Toshkent toponimlari

Toshkentning buniyod etilgan vaqti aniq emas. Saqlanib qolgan yozma ma'lumotlarga qaraganda shahar 2000 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr mobaynida Toshkent qanchadan qancha tarixiy voqealarni boshidan kechirgan. Shahar “Buyuk Ipak yo'li” ustida joylashganidan bu yerga turli el - yurtlardan har xil millatlar vakillari kelgan, ularning ko'plari shu joyda o'rnashib qolgan. Ular o'z jamoalarini, mahallalarini buniyod etib, mavze, ko'cha, guzar mahallalariga o'z tillaridagi nomlarni qo'yganlar.

Toshkent bir necha bor yovlar bosqinini boshidan kechirgan. Mo'g'ullar, arablar, ruslar shaharni bosib olib, vayron qilishgan. Shahar yana tiklangan, rivojlangan. Bosqinchilar uzoq vaqt davomida hukmronlik qilib, o'z odamlarini ko'plab keltirishgan. Ular ham o'z tilidagi joy nomlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Shu boisdan Toshkentda turli xalqlar tillariga mansub bo'lgan xilma - xil nomlarni yonma - yon uchratish mumkin. Agar shaharlarga joy nomlarining xilma - xilligiga qarab sovrin beriladigan bo'lsa, Toshkent, shubhasiz, birinchi sovrindor bo'lar edi.

Shu bilan birga Toshkentda joyning tabiiy xususiyatlarini ifodalovchi nomlar ham ko'p.

Toshkent nomining o'zi haqida ham turli fikrlar mavjud. Toshkent haqidagi fikrlar Klavdiy Ptolomey, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Zahiriddin Bobur asarlarida uchraydi. Toshkentning joy nomlarini Y.G'ulomov, H.Hasanov, N.Mallitskiy, V.Shishkin, M.Masson, S.Qorayev o'rganishgan.

Toshkent turli davrlarda turli nomlar bilan atalgan. Yozma manbalarda shaharning Tarkan, Binkent, Shosh, Choch, Joj, Tashkuna, Chjeshi, Tashixan, Toshkand, Toshkent nomlari mavjud. Ptolemey, Lifivos Petros deb atagan shahar ham aslida Toshkent bo'lsa kerak.

Toshkent nomining etimologiyasi haqida turli fikrlar mavjud. Y.D.Polivanov “mahalliy aholi arablarni tozi, tozilar deb atashardi. Toshkent nomi shu so'zdan kelib chiqqan. Toshkent shahri, *tozilar shahari*, *musulmonlar shahri*. Tozi - toshi, tosh so'ziga aylangan” deydi. Ya'ni Toshkent tosh so'zidan emas, tozi so'zidan kelib chiqqan deydi.¹ M.Y.Masson Toshkent nomini choch so'zidan kelib chiqqan deb tushuntiradi. Arablar Chochni “shosh” deb talaffuz qilishgan. Mahalliy aholi “*shosh*” ni “*tosh*” deb talaffuz qilgan. Toshkentning tosh qal'aga aloqasi yo'q deb tushuntiradi.²

Abu Rayhon Beruniy “Binket - Shosh shaharlaridan biri”. Turkiycha nomi Toshkent. Bu qadimgi yunonlarning Burj ul Hijora qal'asi “(Qonuni

¹ Мурзаев Э.М. Средняя Азия М., 254 б.

² Массон М. Пошлос Ташкента Изд. АН РУз. № 2. 1954.

Ma'sudi II - jild, 576 - bet)”. Toshkent - tosh qal'a. Ptolemeyning “Geografiya” kitobida tosh qal'a deyilgan” (“Hindiston”, 271 - bet) deb yozgan.

Mahmud Koshg'ariy o'zining “Devonu lug'atit turk” kitobida “Tarkon Shoshning nomi. Shaharning haqiqiy nomi Toshkand, ya'ni toshdan qurilgan shahar” deb yozadi. (Devonu lug'atit turk, I, 414 - bet). Binobarin, Toshkent tosh va kent so'zlaridan tuzilgan.

H.H.Hasanov Toshkent nomining tahlili to'g'risida dalillar keltirib, quyidagicha xulosa qiladi: “Ikki ming yildan ziyodroq davr mobaynida faqat “tosh” so'zi (so'g'diycha “choch”, grekcha - “petros”, xitoycha - “shi”, arabcha - “hijora”) tosh shahar, tog'u tosh etagidagi shahar, tog' daryosi Chirchiq bo'yidagi shahar sharafigini saqlab turibdi. Bu nom ikki ming yil muqaddam ham ma'lum edi. Uni faqat mahalliy aholining bir qismi Choch, bir qismi Shosh shaklida yuritgan. Tarixda Toshkentning Tarkan, Binkent, Afrosiyob kabi nomlari ham uchraydiki, bular ma'lum davrlardagi shaharning bir qisminigina bildiradi”.¹

Toshkent shaharida kichik joy nomlari (mikrotoponimlar) juda ko'p. Faqat ko'chalarning nomi 2000 dan ortiq. Shahardagi joy nomlarini tahlil qilib, ularni yirik 6 ta guruhga jamlash mumkin.

1. Joyning tabiiy xususiyatlarini ifodalovchi nomlar. “Toshkent yetti qiru yetti o'rda o'rnashgan” degan ibora bor. Haqiqatdan ham shunday. Navoiy ko'chasida Anhor ko'prigi ustida Chorsu tomonga diqqat bilan nazar solsangiz, shahrimiz yer yuzasining o'r - qirligini ko'rasiz. Yer yuzasining bunday holati shahardagi joy nomlarida aks etgan. Masalan, Jarariq, Jarko'cha, Chuqursoy, Chuqurko'prik, O'rko'cha, Zahariq, Pastak degan nomlar bor. Bular shahar yer yuzasining past, soylik joylariga to'g'ri keladi. Oltintepa, Sho'rtepa, Kuloltepa, Oqtepa, Ganchtepa kabi joy nomlari qir, balandlik joylarga to'g'ri keladi.

Toshkent juda qadimdan sug'orib dehqonchilik qilinadigan vohada joylashgan. Chirchiq daryosidan juda ko'p ariqlar chiqarilgan, aholini suv bilan ta'minlash uchun quduqlar qazilgan, hovuzlar bunyod etilgan. Ko'p joy nomlari mana shu inshootlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Bularga Bo'zariq, Damariq, Zog'ariq, Shofayziquloq, Shoshariq, Tarnovboshi, Jo'nariq, Tersariq, Qorasuv, Shirinquduq, Kattahovuz, Sassiqlhovuz, Hovuzlik kabi nomlar misol bo'ladi.

Toshkentda o'simliklar bilan bog'langan joy nomlari juda ko'p: Bodomzor, O'rikzor, Olmazor, Sebzor, Qatortol, Qatortarak, Yettiterak, Ko'kterak, Yakkatut, Qo'shtut, Yong'oq, Beshqayrag'och, Mingo'rik,

¹ H.Hasanov Geografik nomlar siri. 1985. 101-bet

Chilonzor, Qoraqamish kabi nomlar shular jumlasidandir. Hayvonlar nomi ilan bog'langan nomlar kamroq uchraydi: Bo'rijar, Kaptarxona, Sakbon (Sag'bon), Chivintepa va boshqalar.

2. Toshkentda shaharning boy tarixi kabi **tarixiy nomlar** ham ko'p. Anhor, Jangob, Beshyog'och, Xadra, Chorsu, Namozgoh, Salor, Darxon, Arpapoya, Kamolon, Eskijo'va kabi nomlar bilan qanchadan qancha tarixiy voqealar bog'langan. Anhor arabcha “nahr” - daryo so'zining ko'plik shakli. Toshkentdagi ariqlar umumiy nom bilan anhor deyilgan. Bu arablar istilosi davridan qolgan nom. Hozirgi vaqtda Toshkentni suv bilan ta'minlaydigan ariqlardan eng kattasi Anhor nomi bilan ataladi.

Jangob nomi ayrim tadqiqotchilarning fikricha, jang bo'ladigan joy. Aslida jang tomoshalari, sport o'yinlari o'tkaziladigan joy bo'lgan. Beshyog'och nomi uzunlik (masofa) o'lchov birligidan olingan. Bir yog'och 7 - 8 kmga teng bo'lgan. Eski Toshkentdan Beshyog'och darvozasigacha masofa besh yog'ochga teng bo'lgan. Shundan darvoza nomi shunday deb atalgan. Hadra ikki so'zdan: had - chegara va roh - ko'cha so'zlaridan hosil bo'lgan. Bu ko'cha xon o'rdisidagi chegara ko'cha bo'lgan. Chorsu to'rt suv emas. To'rt nomi ma'nosini anglatadi. Toshkentning asosiy ko'chalari shu yerda kesishgan (tutashgan). Binobarin, Chorsu chorraha so'zidan kelib chiqqan. Chorsuning bozor degan ma'nosi ham bor.

Arpapoya nomining arpa ekilgan joyga hech bir aloqasi yo'q. U ikki so'zdan “aropa” - handak va “poy” - oyoq - chekka so'zlaridan iborat. Qadimda ko'pchilik o'rta asr shaharlari kabi Toshkent atrofiga ham mudofaa handagi qazilgan. Hozirgi Arpapoya o'rnidagi handak chekkadagi, poy - oyoqdagi handak bo'lgan.

3. Toshkent juda qadimdan hunarmandchilik markazi bo'lib kelgan. Shu boisdan **aholining kasb - hunari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan joy nomlari** ko'p. Bunday nomlarga Degrez, Taqachi, O'qchi, Pichoqchilik, Zargarlik, Xizmatchi, Shifokorlar shaharchasi, To'qimachilik, Aviasozlar shaharchasi, Talabalar shaharchasi va boshqalarni misol qilib keltirsa bo'ladi. Xususiylar hunarmandchilik man etilgan va hunarmandlar ta'qib qilingan sovet davrida kasb - korlik, hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan joy nomlarining ko'pi o'zgartirib yuborildi. Bunday nomlarni iloji bo'lgan joylarda tiklansa, yomon bo'lmaydi va tarixdan dalolat berib turadi.

4. **Kishilarning ism - shariflari, taxalluslari bilan bog'liq nomlar.** Toshkentda bunday nomlar juda ko'p va ular xilma - xil. O'rta Osiyoni Rossiya bosib olgandan keyin va sovet davrida ko'p mahalliy nomlar o'zgartirilib, O'zbekistonga, Toshkentga hech qanday aloqasi bo'lmagan kishilar nomlari qo'yildi. Lekin joylarga kishilar nomini qo'yishga juda berilib ketmaslik kerak. Memorial nomlar bundan mustasno, albatta. O'zbek

xalqining jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, taniqli olim, yozuvchi, shoirlar, sarkardalar, ma'rifiy namoyondalar, xalq ustalari nomlarini Toshkentda hurmat va g'urur bilan e'tirof qilishadi. Ularning nomlari ko'chalar, maydonlar, bog'lar, hiyobonlarga, o'quv yurtlari, ayrim muassasa, korxona, tashkilotlarga qo'yilgan. Lekin kishilar nomlari berilgan joylarga o'sha shaxs haqida ma'lumotnoma yozib qo'yilsa yaxshi bo'lardi. Amir Temur, Bobur, Ulug'bek, Beruniy, Navoiy, Mashrab, Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Muqimiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Abdulla Avloniy, G'ofur G'ulomlarning kimligini ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin chet ellik sayyohlar hammasi ham bilmasligi mumkin. Huddi shunday Yunusobod mavzeyi kimning nomiga qo'yilganligini ko'pchilik bilmasa kerak. Bu joyni nisbatan yaqinda, 1919 yilda taxtapullik Yunus ismli kosi bu yerga kelib, o'zlashtira boshlagan. Yer ochib, dehqonchilik qilgan. Keyinchalik taxtapullik ko'p oilalar kelib unga qo'shilishgan. Bu yer shu tariqa obod bo'lgan. Mavze nomi birinchi bo'lib qo'riq ochib, obod qilishni boshlagan Yunus aka nomi bilan Yunusobod deb ataladigan bo'lgan.

5. Toshkentda ma'nosini tushunish qiyin bo'lgan **“g'aroyib” nomlar** ham uchraydi. Shunday nomlarga Jinko'cha, O'g'riko'cha, Alvastiko'prik, Xotinko'prik, Pushtihammom, Ho'jatarashkan kabi nomlar misol bo'la oladi. Jinko'cha deb juda tor, zim - ziyo, odam kam yuradigan ko'chaga aytishgan. Alvasti ko'prikni ikki xil izohlashadi: ko'prikka go'yo Ali (Hazrat Ali) qadam bosgan emish. “Ali qadam bosdi” iborasi o'zgarib, Alvasti bo'lib ketgan deyishadi. Bu izoh haqiqatiga to'g'ri kelmaydi. Bu ko'prik tepalar orasida, pastak, bir vaqtlar qo'rqinchli joyda bo'lganidan, bu joy alvasti (jinlar, “opa”lar) ko'prigi degan nom olgan. Xotinko'prik urush vaqtida erkaklar urushda bo'lib, ayol kishi boshchiligida ayollar qurgan ekan. Shundan Xotinko'prik nomini olgan. Ho'jatarashgan nomli mahalla Toshkentning Sebzor dahasida bo'lgan. Nomi Ho'jai Tarozi ishgan, ya'ni “noto'g'ri tarozi ishlatgan ho'ja” degan iboradan kelib chiqqan.

6. Toshkentda **har xil tasodifiy, ismi - jismiga to'g'ri kelmaydigan bema'ni nomlar** ham bor. Respublikamiz istiqlolga erishgandan keyin bunday nomlarning ko'pi o'zgartirildi, asl nomlari tiklandi, lekin ayrim joylarda hali ham saqlangan. Boychechak, Vijdon, Gramplastinka, Jonon, Znamya, Intizom, Iskra, Ko'sak, Lochin, Mashhur, Muloyim, Odob, Palma, Paxta, Ravshan, Sadaf, Tajriba, Muxbir, Tarbiya, Uylanish, Farmon, Shamol, Shanba, Yashna, Yaxshi, Harakat, Hurmatli va boshqalar bunga misol bo'ladi.

Umuman olganda nom qo'yish, hoh u farzandiga nom qo'yish bo'lsin, hoh shahar, qishloq, maydon, mavze, ko'chaga nom qo'yish bo'lsin, katta san'atdir. Nom qo'yishda yaxshi o'ylab, shoshmasdan mulohaza qilib ish

tutish kerak. Aslida nomni ma'muriy tashkilotlar qarori bilan qo'ymaslik kerak, nom o'zi shakllansin, shunda haqiqiy nom bo'ladi. Keyinchalik o'zgartirib, katta harajat qilib o'zgartirilmaydi. Toshkentda bunday o'zgarmas nomlar ko'p: Chorsu, Beshyog'och, Olmazor, Qoraqamish, Chilonzor, Sergeli, Yunusobod, Oltintepa, Chuqursoy, Anhor va boshqalar.

Geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish

Geografik nomlar geografiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ulardan geografiyada beriladigan ma'lumotlarni hududiy bog'lashda foydalaniladi. Geografiyada biror hodisa yoki voqeani tushuntirmoqchi bo'linsa, albatta joy nomi bilan bog'lanadi. Geografik qonuniyatlarni geografik obyekt nomisiz tushuntirib bo'lmaydi.

Umuman, geografiyada joy yoki geografik obyekt nomi bog'lanmasdan bilim berish mumkin emas. Ikki joy tabiatini qiyoslash uchun ham joylar nomini bilish kerak. Umuman o'quvchilarning xaritani bilishi, joy nomlarini qanchalik darajada bilishi bilan belgilanadi.

Biroq geografik nomlar, ayniqsa chet el geografik nomlari bolalarga tushunarsiz, ularni eslab qolish u yoqda tursin hatto talaffuz qilish ham juda qiyin. Bunday nomlarni o'quvchilar eslab qolishlari uchun ularning ma'nosini tushuntirib berish juda muhimdir. Chunki tushunarsiz so'zlarni eslab qolishdan ko'ra tushunarli so'zni, hatto so'z birikmasini eslab qolish osonroqdir.

Geografik nomlarni chuqur tushunishga mahalliy geografik terminlarni (atamalarni) o'rganish yordam beradi. Mahalliy geografik terminlarni tushunish o'quvchilarga atrof muhitni ongli bilib olishga yordam beradi. Bu esa o'z o'lkasiga, vatanga muhabbatni tarbiyalaydi.

Geografik nomlarni maktabda o'rganishda o'quvchilarning nomlarni to'g'ri yozishni va to'g'ri talaffuz qilishni bilib olishlariga erishish zarur. Bu talabning ahamiyati shundaki, geografik nomlarni to'g'ri yozish o'quvchilar savodxonligini muhim qismi hisoblanadi, nomlarni to'g'ri talaffuz qilish esa nutq madaniyatini o'stiradi.

Geografik nomlarning tarbiyaviy, ilmiy ahamiyati ham juda katta. Mamlakat siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar uning xaritasida aks etib turadi. Mamlakatimiz O'zbekiston istiqlolga erishgandan keyin uning xaritasida ham o'zgarishlar bo'ldi. Mustamlakalik davrida o'sha vaqtning siyosatini ifodalovchi geografik nomlar o'zgardi. Istiqlolni, milliy qadriyatni ulug'lovchi geografik nomlar vujudga keldi. Mamlakatimiz tabiati, xalqimiz kasb - hunari, milliy an'analar, qadriyatlarimiz bilan bog'liq nomlar tiklandi.

Istiqlol, Mustaqillik maydoni, Amir Temur hiyoboni, Mirzo Ulug'bek tumani, Bobur bog'i, Alisher Navoiy bog'i, Mirobod, Muzrabot tumanlari shular jumlasidandir. Dunyoda ro'y beradigan siyosiy o'zgarishlar xaritada, binobarin, geografik nomlarda ham o'z aksini topadi.

Geografik nomlarda Yerni geografik o'rganish tarixi ham aks etadi. Yangi yerlarni ochgan, o'rgangan ko'pchilik sayyohlar, dengizchilar, tadqiqotchilar nomlari geografik xaritalardan mustahkam o'rin olgan.

Ko'pchilik geografik nomlar tabiiy sharoitni (yer yuzasi relyefini, o'simliklar va hayvonot dunyosini, tabiiy hodisa va voqealarni), aholining urf - odatlari, xo'jaligini aks ettiradi. Geografik nomlar asrlar davomida saqlanishini nazarda tutsak, ularni o'tgan zamon tabiati, ro'y bergan hodisa, voqealar, kishilarning tarixiy kasb - korligi, urf - odatlari, aholining migratsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin.

Geografik nomlarni o'rganish, o'qitishda predmetlararo aloqalarda ham qo'l keladi. Geografiya o'qitishda ona tili, chet el toponimlarini o'rganishda chet tillari bilan bog'lanish yaxshi natija beradi. Ayrim geografik nomlarning joylashishi va ma'nosi tarixiy voqealar bilan bog'langan. Bu esa geografiyaning tarix fani bilan aloqasini mustahkamlashga imkon beradi. Geografik nomlarning ma'nosini yaxshi bilish chet tillarini o'rganishga ham yordam beradi.

Toponimik ma'lumotlarni to'plash

Har bir joyning geografik nomlarini o'rganish ma'lumotlar to'plashdan boshlanadi. Geografik nomlar haqidagi ma'lumotlar bevosita joyda, o'rganilayotgan hududda yig'iladi.

Kerakli ma'lumotlarni yana xaritalardan, turli xil ma'lumotlardan, badiiy, tarixiy adabiyotlardan, shuningdek davlat arxivlaridan olinadi. Ilmiy sayohatlar vaqtida aholidan, xususan qariyalardan so'rab o'rganish ma'lumot to'plashda katta yordam beradi. Ma'lumotlar qanday manbalardan to'plangan bo'lishidan qat'iy nazar, to'g'ri bo'lishi kerak.

Joyda ma'lumot yig'ish vaqtida hamma nomlarni, shu jumladan juda kichik geografik obyektlar nomlarini ham yozib borish kerak. Geografik nomlar tushunarli bo'lsa ham, tushunarsiz bo'lsa ham, o'zbekcha bo'ladimi, boshqa tilda bo'ladimi baribir yozib olish zarur. Yozuv o'zbek tili qoidalariga mos bo'lsin.

Joy nomlarini o'rganishni har bir nom uchun kartoteka tuzishdan boshlash zarur. Har bir nomni o'rganganda va ma'lumot to'plaganda muayyan tartibdagi savollar tuzilishi va nomlarni dastlabki o'rganish ana shu savollarga javob tayyorlashdan iborat bo'lishi kerak.

Bu savollar quyidagilar:

1. Mazkur nom nimaning nomi: qishloqmi, shaharmi, tog'mi, daryomi, ko'lmi, ko'chami, ovulmi, mahallami, guzarmi, buloqmi, jarmi va h.k.
2. Bu obyektning boshqa nomi ham bormi, bo'lsa ilgarigi nomi qanday, qachon, nega o'zgartirilgan?
3. Bu nom qachondan beri mavjud?
4. Yaqin atrofda yana shu nomda boshqa obyektlar (daryo, ko'l, jar, qishloq va boshqalar) bormi?
5. Mahalliy aholi joy nomi ma'nosini qanday tushuntiradi?
6. Mahalliy aholining joy nomi haqidagi fikri siz yiqqan ma'lumotlarga to'g'ri keladimi?
7. Joy nomida mahalliy tabiiy xususiyatlar qanchalik aks etgan.

Har bir nom uchun tayyorlanadigan kartochka o'lchami 7,5 x 12,5 sm bo'lib, yupqa kardon qog'ozdan tayyorlansa yaxshi bo'ladi. Kartochkaning bir tomoniga eng yuqori qismiga yirikroq harflar bilan joy nomi yozib qo'yiladi. So'ngra bu nomning nimadan iboratligi, qayerda joylashganligi, boshqa nomlar bo'lsa, ular ham yoziladi. Kartochkaning orqasiga mazkur nomning etimologiyasi, hozirgi vaqtda qanday talaffuz qilinishi, to'g'ri yozilishi yozib qo'yiladi.

Arpapoya. Toshkentdagi ko'cha. Ilgari mavze nomi bo'lgan Qadimgi Toshkentning janubiy qasmida joylashgan	“Arpapoya” aropa - xandaq va “poy” - oyoq, chekka so'zlardan hosil bo'lgan. Qadimgi Toshkent atrofiga mudofaa handagi qazilgan bo'lgan. Bu xandaq chekkadagi, oyoqdagi xandaq bo'lgan, nomi shundan kelib chiqqan.
Old tomoni	Orqa tomoni

Toponimik kartochka namunasi

Kartochkalar tayyor bo'lganidan keyin geografik nomlarni alifbo bo'yicha tartibga solib, lug'at tayyorlash mumkin. Yoki nomlarning turlariga qarab (oronim, gidronim, etnonim, diniy nomlar va h.k.), guruhlariga ajratish ham mumkin. Nomlarni hosil bo'lishiga qarab ham guruhlariga jamlasa bo'ladi. Agar toponimik ma'lumotlar yuqorida bayon etilgan talablar hisobga olinib, to'g'ri to'plangan bo'lsa katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mahalliy geografik terminlar (atamalarini) o'rganishda ham har bir termin uchun kartochka to'ldirib borish juda yaxshi natija beradi. Har bir joy toponimiyasini (joy nomlarini) tadqiq qilishda mahalliy terminlar haqidagi ma'lumotlar juda zarur. Chunki ko'p joy nomlari asosini terminlar tashkil etadi.

II - BO'LIM.

GEOGRAFIK TERMINSHUNOSLIK

Geografik terminlar va ularning turlari

Ba'zan atama bilan termin so'zlarini chalkashtirib yuborishadi. Aslida **atama** narsa – hodisa, belgi va harakat kabilarning nomi, atovchi so'z, ya'ni umumiy nomdir. Atama terminni ham, geografik nomni ham o'z ichiga oladi. Masalan, momaqaldiriq, sharshara, girdob, chaqmoq, uchqun, olma, hovuz, buloq, tutun, yaproq, Jumabozor, Yangiqo'rg'on va h.k. Geografiyada atamalar ikki tur otlarga bo'linadi; termin va geografik nom. **Termin** lotincha so'z bo'lib, fan, texnika, kasb - hunarning biror sohasiga, shu jumladan geografiyaga ham xos bo'lgan muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'zlar birikmasidan iboratdir. Termin–turdosh ot, ism, nom - atoqli ot. Har ikkisi ham atama.

Geografik terminlarga quyidagi **talablar** qo'yiladi;

1. Terminlar ilmiy va etimologik jihatdan to'g'ri bo'lishi kerak. Bunga fanning nomini misol qilib keltirish mumkin; geografiya deb atalgani ma'qulmi, jo'g'rofiya deyilganimi? Geografiya termini asli yunoncha bo'lib, “ge” - yer, “grafo” - tasvirlayman so'zlaridan iborat. Jo'g'rofiya bizga ingliz va turklar orqali kirib kelgan bo'lib, geografiyaning buzilgan shaklidir. Ge – yer so'zi bilan boshlanadigan bir qancha fanlar bor; geografiya, geologiya, geomorfologiya, geofizika, geotektonika va boshqalar. Hammasi o'zgarmay qolgan. Faqat geografiyani o'zgartirsak ham ilmiy, ham etimologik xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Chunki jo'g'rofiya deganda asl ma'nosi o'zgarib ketadi, bema'ni so'zga aylanib qoladi.

2. Terminlar ko'pchilikka tushunarli, aytishga oson, ixcham, tugal ma'noli bo'lishi kerak. Keyingi vaqtda taklif qilingan muvoziy, mador, bahr, jo'g'rofiyun kabi terminlar arabchadan kirib kelgan bo'lib, hozirgi vaqtda muomaladan chiqib ketgan, ularga ko'pchilik tushunmaydi. Binobarin, ularni qo'llanish maqsadga muvofiq emas. Ular o'rniga parallel, tropik, dengiz (okean), geograf terminlari paydo bo'lgan, hamma tushunadi.

3. O'zbek tili normalariga mos bo'lishi kerak.

4. Terminlar lug'at boyligi, qotib qolgan emas. Eskirgan terminlar muomaladan chiqib ketib, yangilanishi, yangi terminlar kirib kelishi mumkin. Masalan: xattiystvo, mador, qarat, bahr, ummon o'rniga ekvator, tropik, materik, dengiz, okean deb ataladigan bo'lgan.

Ho'sh, terminlar qayerdan olinadi? Terminlarning bir qancha **manbalari** mavjud.

1. O'zbek abadiy tilining so'z zahirasi, ya'ni lug'atlar, badiiy va ilmiy adabiyotlar. Bunday adabiyotlarda mavjud bo'lgan terminlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

a) Sof o'zbek (turkiy) terminlari. Masalan: jar, bulut, yoz, yomg'ir, kechik, kent, qo'rg'on, soz, gilmoya va boshqalar.

b) O'zbek tili zahirasi ga kirib, o'zlashib ketgan boshqa xalqlar terminlari: manba, mansab, chashma, sohil, daryo va boshqalar.

2. Shevalar tili so'z zahirasi. Shevalar tili so'z zahirasi dan ilmiy adabiyotga ko'pgina terminlar kirib, o'zlashib ketgan. Masalan, qayir, adoq (odoq), gaza, cho'qalak va b. Xorazmda sug'orma dehqonchilik juda qadimdan rivojlangan. Shuning uchun u yerda sug'orma dehqonchilikka oid terminlar ko'p: yop, arna, ariq, zayk, xariq, solma, yorma. Bularni o'zbek tili muomalasiga asta - sekin kiritish mumkin.

3. Tarjima qilish yo'li bilan ham yangi terminlar paydo bo'ladi. Chunonchi, qalashma muz, qirg'oq bo'yi, daryo boshi, quyar joyi, suv sarfi, oqim, qora sovuq kabi terminlar tarjima yo'li bilan muomalaga kiritilgan.

4. Har bir xalqning lug'at boyligi boshqa xalqlardan kirib kelgan terminlar hisobiga boyib boradi. Shu jumladan, geografik terminlar ham kirib keladi. Masalan: sunami, garmisel, chashma, sohil, erg, hamada, siklon, antisiklon va b. Chet ellar bilan, turli xalqlar bilan aloqalarning ko'payishi turli atama, termin va tushunchalarning kirib kelishiga sharoit yaratadi. Lekin bunda biz o'zimizda yo'q, tarjima qilib bo'lmaydigan terminlarni olishimiz kerak. O'zimizda bo'la turib yoki tarjima qilsa bo'ladigan terminlarni chetdan olmaslik zarur.

Ilm - fan, texnika, ishlab chiqarish o'sgan sari yangi atama va terminlar ham paydo bo'lib va eskirganlari til muomalasidan chiqib keta beradi.

Geografik terminlarni shartli ravishda **ilmiy**, **xalq (mahalliy)**, **baynalmilal**, **toponimik** va **tarjima** terminlarga bo'lish mumkin. Milliy terminlar biror millatning adabiy tilida va ilmiy adabiyotlarida barqaror o'rin olgan hamda mazkur millat vakillarining ko'pchiligi tushunadigan terminlardir. Bularga tog', tekislik, dara, ko'l, soy, daro, vodi, jar, cho'qqi, g'or, sel, bulut, yomg'ir, qor, ko'chki, dovon va boshqalar misol bo'la oladi. Mahalliy terminlar ma'lum hududda, biror shevada qo'llaniladigan terminlar bo'lib, ularni boshqa shevasidagilar, boshqa hududdagilar tushunmasligi mumkin. Masalan, Xorazm shevasidagi yop, arna, zayk, xariq, solma, yorma terminlari, Qashqadaryo va Surhondaryo viloyatlari tog'li yerlarda gaza, adoq, xovar kabi terminlar uchraydi. Baynalmilal terminlar boshqa xalqlar tilidan kirgan bo'lib, ko'pchilik xalqlarda bir xil qo'llaniladi. Bunga fan nomi geografiyani, lyoss, geyzer, karst, delta, artezian suv, siklon, antisiklon, fyon, kondensatsiya yadrosi, kristall va boshqalar misol bo'ladi. Tarjima terminlarga suv sarfi, daryo boshi, quyar joyi, qirg'oq bo'yi, suvayirg'ich, havza kabi terminlarni misol keltirish mumkin.

O'zbek (turkiy) geografik terminshunosligiga oid ilk manbalar

O'zbek (turkiy) geografik terminshunosligining eng yaxlit va qadimiy yozma manbai - Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit - turk" ("Turkiy so'zlar devoni") asari bo'lib, ushbu asar 1074 - 1075 yillarda yozib tugatilgan. Muallifning tarjimai holi haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. Uning to'liq ismi Mahmud ibn Muhammad Koshg'ariy ekanligi, u XI asr boshlarida Qashqar shahrida dunyoga kelganligi, uning otasi asli Issiqko'l bo'yidagi Barsg'on shahridan ekanligi, yoshligidan puxta bilim olish uchun atoqli olimlar qo'lida bo'lganligi, ko'p o'lkalarga sayohat qilganligi ma'lum.¹

¹ Bu haqda qarang: Hasanov H. Mahmud Koshg'ariy (hayoti va geografik merosi). Toshkent "Fan" 1963.

Koshg'ariy o'zi hadiqa "...men turklarning xush faxmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim" deb yozadi.²

U umrining ko'p qismini Bag'dod shahrida o'z zamonasining atoqli olimlari bilan bir qatorda o'tkazgan bo'lib, arab, fors va turkiy tillarni atroflicha bilgan.

Bag'dodda yashab uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rganidan so'ng "...Mahmud o'z oldiga qo'ygan maqsadi - umumiy turkiy lug'at va turkiy shevalarning qiyosiy grammatikasini tuzish vazifasini bajarishga kirishdi. Shu maqsadda u o'z zamonasi sharoitida nihoyatda og'ir bo'lgan uzoq muddatli safarga otlandi..."¹

Sayohat haqida Koshg'ariy quyidagicha yozadi: "Men turklar, turkmanlar, ug'uzlar, chig'illar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim... Ularga shuncha diqqat qildim - ki, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chig'illar, yag'molar va qirg'iz qabilalarining tillari butunlay tilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim".

Sayohat davomida Koshg'ariy mahalliy aholi bilan ko'p suhbatlar uyushtiradi: "Men bu narsani Konigutda yag'molardan eshitdim", "Farg'onada kishilardan buqoq kasalligining sirini so'raganimda, shunday javob bergan edilar...", "bu so'zlarni ishonchli bir buxorolik olimdan va nisoburlik (nishopurlik) boshqa bir olimdan shunday eshitgan edim" kabi iboralar shulardan dalolat berib turibdi.

Chamasi o'n yillar davom etgan sayohat davomida to'plangan filologik, etnografik ma'lumotlar ulkan "Devon" tuzishga asos bo'ldi.

"Kitob hijriy 464 yilda yozila boshlandi va to'rt marta qayta ko'chirilgandan so'ng, hijriy 466 yilda yozib tugatildi."² Demak, kitob 1072 - 1074 yillarda yozib bo'lingan va 1075 yilda Bag'dodga - xalifalikka taqdim etilgan.

Asarda bir necha shaharlar tilga olingan va aholi so'zlashuvi, tillar haqida ma'lumotlar berilgan: "...Qashg'arda kanjakcha so'zlashadigan qishloqlar bor. Shahar o'rtasida turuvchilar haqqoniy turkchasida so'zlaydilar. Rumdan Mochingacha bo'lgan turk shaharlarining hammasining bo'yi besh mingdan sakkiz ming farsaxgacha yetadi. Bu shaharlarning o'rnini aniqlash

² Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit-turk" T. I. Toshkent, 1960 y.

¹ Жузье П.К. "Диван лу\ат-ат-турк". Изв. Востафа АзГУ Баку 1928 т.2. с.27-58.

² "Devon" III tom 853 bet.

maqsadida ularning hammasini yer shaklidagi doirada ko'rsatdim"¹. Bu doirada Koshg'ariyning "Devon" ga ishlangan dunyo xaritasidir.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, bu yerda Mahmud Koshg'ariyning tilshunos, etnograf bo'lishi bilan birga, haqiqiy geograf ekanligi namoyon bo'lgan, chunki har qanday geografik ilmiy tadqiqotning poyoni geografik xaritadir.

"Devon"ning tadqiq etilishi ham o'z tarixiga ega. Asar va uning muallifi XX asr boshlarigacha sharqshunoslarga uncha ma'lum emas edi. U to'g'risida faqat ayrim asarlarda qisqacha to'xtab o'tilardi, xolos. Masalan, Badriddin Ayniy (XV asr) Mahmud Koshg'ariyning "Devoni"ni o'qiganligini yozadi.

"...Misrlik Sahobiddin Ahmadning "Tarix - ul - badr fi avsof ahli al asar" kitobidagi etnografik ma'lumotlar..., Qashg'arlik olim ibn Muhammad (XIV asrning ikkinchi yarmi) yozgan. "Toj - ulq - saodat va unvon - ul - saodat" kitobidagi, hatto andalusiyalik Abu Hayyomning "Kitob - ul - idroy" asaridagi ba'zi jumlar aynan "Devon"dan ko'chirilgan. Ayniqsa, XVII asr mashhur sharqshunosi Xoji Xalfa Kotib Chalabiyning "Kashf - az - Zunun" nomli asarida... shunday izoh berilgan: Muhammad inb Xusayn ibn Mahmudning "Devonu - lug'atit - turk" bir jilddir ...Asarni arabcha izoh etgan. Turk tilining 18 harfi izohlangan. Asarni muqtadi bir Amrullox o'g'li Xalifa Abulqosim Abdulloxga hadya etgan"... Shu "Kashf - az - Zunnunga" asoslanib, bunday lug'at borligi Yevropa matbuotida ham tilga olindi. 1904 yilda Vengriya akademiyasining til bo'limi bir to'plam nashr etdi, unda XI - XV asrlar orasida turkiy tillarda yozilgan asarlardan biri "Devonu lug'atit - turk" nomli bir asar ekanligi zikr etilgan. Ammo qo'lyozmaning o'zi ma'lum emas edi..."¹

Qo'lyozma 1914 yili ktobsevar Ali Amiriy tomonidan Turkiyada topilgan. "...Qo'lyozmani olib kelgach, Ali Amiriy bir necha kun, ertayu kech, uni varaqlab, undan ko'zini uzolmas edi. "Kitod oldim, uyga keldim, yemak - ichmakni unutdim. Bu kitobga haqiqiy qiymat berilmak lozim bo'lsa - jahonning xazinalari kifoya qilmas" (deb baho bergan edi Ali Amiriy). Axir, bu tamomila yangi bir asar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit - turk" degan ajoyib durdonasi bo'lib chiqdi..."²

Bu asar yozilgandan 200 yilcha keyin, 1266 yilda qayta ko'chirilgan nusxasi edi. U ikki tilda: so'z va iboralar turk tilida, izohlar arab tilida bitilgan.

¹ "Devon" I tom 65-66 bet.

¹ Hasanov H.H. Mahmud Koshg'ariy (hayoti va geografik merosi) Toshkent "Fan", 1963 y. 11 bet.

² Hasanov H.H. O'sha asar 3-bet.

“Devonu lug'atit - turk” 1915 1917 yillarda arab tilida (3 tomlik) bosilib chiqqanidan so'ng, turli olimlar asarni tadqiq eta boshladilar. So'ngra boshqa tillarga ham tarjima qilindi. Asar va uning muallifi to'g'risida turli tillarda (nemis, turk, rus va boshqa) asarlar, maqolalar e'lon qilindi.

Sobiq Ittifoqda ham “Devon”ga qiziquvchilar ko'p bo'lgan. V.V.Bartold, I.Samoylovich, P.K.Juzye, S.YE.Malov, S.P.Tolstov, A.N.Kononov, A.K.Borovkov, V.I.Belyayev va boshqalar asar haqida maqolalar yozgan, o'z fikr - mulohazalarini bildirishgan.

Sobiq Ittifoqning birinchi koshg'ariyshunosi akademik V.V.Bartold hisoblanadi. U asarga yuqori baho beradi va muallif haqida shunday yozadi: “Mahmud Koshg'ariy shunday yagona bir adibki, u, O'rta Osiyo haqida arab tilida yozgan mualliflardan farq qiladi; Mahmud turli kitoblardan ko'chirib emas, balki o'z ko'zi bilan ko'rib bilib yozgan”.³

Atoqli arxeolog va etnograf S.P.Tolstov: “Mahmud Koshg'ariy - turkiy qabilalar turmushini eng yaxshi bilgan muallifdir... U XI asrga doir til ma'lumotlarini nihoyatda mukammal va sinchiklab to'plangan” deb yozgan edi.

O'zbek olimlari orasida Mahmud Koshg'ariyning “Devon”ini astoydil ilmiy asosda o'rganish 1937 yildan boshlangan. Bu og'ir, murakkab ilmiy tekshirishlarning tashabbuskori keksa filolog olim va pedagog Solix Mutallibov bo'ldi.¹

Solix Mutallibov “Devonu lug'atit - turk” haqida bir necha maqolalar, monografiyalar yozgan, asarni to'la ravishda o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr etgan. Solix Mutallibovning “Devon” ga bag'ishlangan ilmiy ishlari quyidagilardir: “Mahmud Koshg'ariy lug'ati va turkiy tillarni o'rganishda uning ahamiyati” (1947), “XI asr filologi Mahmud Koshg'ariyning tilshunoslikdagi faoliyati” (1957), “Mahmud Koshg'ariyning tilshunoslikdagi faoliyati” (1957), “Mahmud Koshg'ariy va uning “Devonu lug'atit - turk” asari (1958)”, “Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk” (1959), “Turkiy so'zlar devoni” (Devonu lug'atit - turk) I tom (1960), II tom (1961), III tom (1963), “Mahmud Koshg'ariy” (1967), “Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'atit - turk” asari” (1967) (nomzodlik dissertasiyasi avtoreferati). “Devon”ning S.Mutallibov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirgan nusxasiga bir qancha ijobiy taqrizlar bosilgan. “Mahmud Koshg'ariyning kamtarlik bilan lug'at deb atagan bu asari yolg'iz bu kungi ma'nodagi lug'atgina emas, balki shu bilan birga... bebaho bir qomusdir” deb yozgan edi S. Mutallibov.

³ Бартольд В.В. Сочинения. Т II. Стр. 491.

¹ Hasanov H.H. Mahmud Koshg'ariy (hayoti va geografik merosi). Toshkent, “Fan”, 1963, 20 bet

“Devonu lug'atit turk”ning geografik jihatlarini birinchi bo'lib o'rganib, atroflicha yoritib bergan, ilmiy tadqiq etgan olim Hamidulla Hasanovich Hasanov hisoblanadi. H.Hasanov o'zining “Mahmud Koshg'ariy” (Toshkent, 1963, 82 bet) monografiyasida asar muallifining qisqacha hayoti, asarning tekshirilish tarixi, asardagi geografik ma'lumotlarni tahlil etib bergan. U Mahmud Koshg'ariyning geografik merosini quyidagilarga bo'ladi:.

1. “Devon” ga ilova qilingan dunyo xaritasi;
2. “Devon”da uchraydigan joy nomlari va ularning izohi;
3. O'rta Osiyodagi (Turkistondagi) ayrim qabilalarning joylanishi haqidagi “aholi geografiyasi” ga oid ma'lumotlar;
4. “Devon” da berilgan tabiiy geografik terminlar, ularning izohi;
5. “Devon”da izoh qilingan astronomik ma'lumotlar, kalendar sistemasi - muchalar va ularning tarixi.¹

Geografiya atamalari haqida shunday yozadi: “Devonu lug'atit - turk” sahifalarini varaqlar ekansiz, unda tabiat va tabiiy hodisalarga doir - yer va suv, tog' va cho'l, iqlim va osmon, hayvon va o'simlik singarilarga bog'liq yuzlab xalq so'z - terminlari, maqol va iboralarni topasiz. Shunday so'zlarki, xilma - xil, sodda va sermazmun. Bularni yig'ish uchun Mahmud ko'p yillar sayohat qilgani, har bir hodisaga, har bir qabilaning so'zlariga diqqat bilan e'tibor bergani ko'rinib turibdi.²

Geografik atamalarni H.Hasanov yer va tuproqqa doir terminlar, meteorologik terminlar va boshqalarga ajratib, ularni izohlab beradi, hamda o'z fikr - mulohazalarini bildiradi. Shu bilan birga “Devon”ga ilova qilingan dunyo xaritasini va undagi joy nomlarini izohlaydi. “Devon”dagi geografik ma'lumotlar xususida ayrim manbalardan fikr - mulohazalar bildirilgan.

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asari O'rta Osiyo (Turkiston) geografiyasini terminologiyasi nuqtai nazaridan ham juda muhim ilmiy manbadir.³

“Devon”da ko'pgina geografik terminlar berilganki, bu terminlar hozirgi vaqtda ham keng qo'llaniladi. Ariq, art (ort), botiq, bulut, yel, jar, kechik, kun, ko'k (osmon), muz (buz), suv, sayram suv, talgoq, tog', tun, tuman, ungur, qayir, qor, quduq, qum, qish va boshqalar shular jumlasidandir.

“Devonu lug'atit - turk” da ishlatilgan terminlarning ayrimlari hozirgi paytda o'zgargan holda, ayrimlari o'z holicha ishlatiladi:

¹ Hasanov H.H. Mahmud Koshg'ariy (hayoti va geografik merosi). Toshkent, “Fan”, 1963, 22 bet.

² Hasanov H. O'sha asar. 26-bet.

³ Rahimbekov R.U., Donsova Z.N. O'rta Osiyo tabiatini geografik o'rganish tarixi. Toshkent, “O'qituvchi”, 1982

“Devonu lug'atit - turk” da	Hozirgi shakl
O'ngur (ungur)	Ungur, go'r
O'trug' (utrug')	Orol
Obri	Chuqurlik
Tag' (tog')	Tog'
Kol (ko'l)	Ko'l
Kend (kand)	Kent, shahar
Tuman	Tuman
Kirag'u (kiragu)	Qirov
Art	Ort, art, dovon
Talg'ag'	Talg'oq (sovuq shamol)
O'rkuch (urkuch)	mavj, to'lqin
Bulut	Bulut
Batir	Botiq
Tegra	Tegra
Qasirqu (kasirku)	Quyun, aylanma shamol
Qamish	Qamish
Buz	Muz
Ezizilik	Balandlik, adir
Tuz jer (tuz yer)	Tekis yer
Kuz (kuz)	Kuz, kuz fasli
Qish (qish)	Qish
Tabiz	tuzli, sho'rhok yer
O'kuz (ukuz)	Soy, daryo
Kun tug'di	Quyosh chiqdi
Kun tundi	Havo bulutlandi
Taz jer (tazyer)	Oriq yer (o'simligi oz yer)
Tirsgak	Tirsak

O'zbek (turkiy) geografiya terminshunosligining yana bir muhim manbi XI asrda yashab ijod etgan turkiygo'y adib Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilig” nomli asaridir. Ushbu asar 1069 yilda yozilgan bo'lib, “Devonu lug'atit turk” kabi ilk turkiy manbalardan hisoblanadi. Jahon adabiyotining nodir asarlaridan biri hisoblanmish “Qutadg'u bilig”ni “xalq donolarining ko'zgusi” deb atash mumkin.

Asar muallifi haqida hozircha “Qutadg'u bilig”dan boshqa biron bir tarixiy manbada ma'lumt yo'q, shoir o'z nomini ushbu asarida eslatib o'tadi, xolos. Lekin Yusufning vatani Issiqko'l atrofidagi Quz urdu, ya'ni

Bolosog'un ekanligi ma'lum. Qashg'arda yozib tugatilgan asar, qo'shni mamlakatlarga keng tarqalib, xalq tilida turlicha nomlangan.

Chinlar (xitoylar) uni "Adab - ul - mulk", mochinliklar (Sharqiy turkistonliklar) "Anis ul mamolik", eronliklar "Shoxnoma", turonliklar "Qutadg'u bilik" deb ataganlar. Asar xalq orasida juda yaxshi ma'lum bo'lgan va keng tarqalgan. XIX asrda Yoyiq (Volga) daryosi qirg'og'ida joylashgan Saroychuq shaharchasi yaqinida topilgan oddiygina sopol ko'zachaga "Qutadg'u bilig"dan olingan misralar bitilganligi ma'lum bo'ldi.

Yusuf asarni yozish uchun turli o'lkalarga safar qilgan va shu o'lkalardagi xalqlarning an'alarini o'rgangan. Qashg'arda yozib tugatilgan asar Tavg'ochxon (Qoraxoniylar davlatining o'sha davrdagi xoni) ga taqdim etilgan, xon uni qadrlab shoirga Xos Xojib unvonini bergan.

"Qutadg'u bilig"da tilga olingan masalalar qamrovi juda keng bo'lib, unda geografik ma'lumotlarni ham uchratish mumkin. Chin (Xitoy), Mochin (Sharqiy Turkiston), Eron, Turon, Qashg'ar, Rum (Rim), Hind (Hindiston), Bolosog'un kabi joy nomlari va bir qancha geografik terminlar keltirilgan.

Asardagi ayrim terminlar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida ham uchraydi. Chunki har ikki asar ham deyarli bir vaqtda ("Qutadgu bilig" - 1069 yilda, "Devonu lug'atit turk" - 1074 yilda) yozilgan.

"Qutadg'u bilig"dagi terminlar XI asr va undan avvalgi davr til koloritini aks ettiradi. Albatta, bizning davrimizga kelib asarda qo'llanilgan ayrim terminlar, so'z va iboralar muomaladan (iste'moldan) chiqib ketgan, lekin ayrim terminlar hozirgacha saqlanib, asosan xalq og'zaki nutqida keng ishlatiladi, hamda tilimizning lug'at tarkibidadir. "Qutadg'u bilig"da uchraydigan geografik terminlarning ayrimlarini izohlaymiz:

Art - dovon, tepalik, balandlik, do'nglik. "Devon"da ham "art" - chiqish qiyin bo'lgan balandlik, dovon (III, 9); **Botar** - kunbotar, mag'rib, g'arb. Asarda "Tugardan Botarga..." degan ibora qo'llanilgan, bu "sharqdan g'arbga" ma'nosini beradi; **Buz** - muz. "Devon"da ham "buzdan suv tomar" (III, 137), ya'ni "muzdan suv tomar" deyilgan, demak, XI asrda va undan avval muz, "buz" shaklida ishlatilgan; **Buloq** - buloq, chashma; **Yoz** - bahor fasli, ko'klam ma'nosida. Folklorda "Laylak keldi, yoz bo'ldi" deyiladi, bu "Laylak keldi, bahor boshlandi" ma'noni bildiradi. **Yoy** - yoz fasli ma'nosida; **Kechig** - kechuv, kechik, ko'l, daryo va soylardan kechib o'tish mumkin bo'lgan sayoz joy; **Kus** - kuchli shamol, dovul; **Mashriq** - mashriq, sharq, kun chiqish tomoni; **Mulk** - keng ma'noda mamlakat; **Sabo** - ertalab tog'dan esadigan mayin va yoqimli shabada; **Tarig'** - ekin, hamma turkiy qabilalar tilida aslida bug'doy, o'guzlar uni tarig' deyishadi, targ'ilig - ekinzor, ekin ekiladigan joy; **Tubi** - kuchli shamol, bo'ron; **Tunak** - tunash joyi, kechasi tunab o'tiladigan joy; **Chechaklik** - gulzor, maysazor, o't - o'lan, ko'p bo'lgan

joy; **Ol** - buloq, qaynar, chashma. M.Koshg'ariy olni buloq ko'zi deb atagan (III, 158); **Yar** - jar, tik qoya; **O'bri** - chuqurlik, dara. Yuvilish natijasida hosil bo'lgan tor va chuqur soy, vodi, dara deyiladi. "Qutadg'u bilig"dan keyingi manbalarda bundan tashqari soy, soylik, tangi ko'rinishida ham uchraydi; **O'ngdun** - sharqdan esadigan mayin shabada; **Kuz** - tog'ning quyosh nuri tushmaydigan yonbag'ri, terskay, M.Koshg'ariyda ham "Kuz tog' - quyosh nuri tushmaydigan tog', tog'ning quyosh nuri tushmaydigan joyi, shimoliy yonbag'ir (III, 136). Xullas, "Qutadg'u bilig"da ko'pgina geografik ma'lumotlar bor. Asarni ilmiy jihatdan o'rganishga V.V.Radlov, A.Vamberi, P.M.Melioranskiy, A.A.Samoylovich, R.R.Arat va boshqa ko'pgina turkshunos olimlar katta hissa qo'shganlar. "Qutadg'u bilig" jahonning ko'pgina tillariga tarjima qilingan bo'lib, uning ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekistonda asarni to'liq holda birinchi bo'lib, tilshunos olim K.Karimov 1971-yilda nashr ettirdi. Unda asar matni transkripsiyada berilib, o'zbekcha matn ilova qilinib berilgan. Keyinchalik 1990 yilda filologiya fanlari nomzodi B.To'xliyev o'zbek tilidagi bayoni va so'z boshisi bilan nashrga tayyorladi. Ilova qismida izoh va lug'atlar berilgan.

Quyida "Qutadg'u bilig"da ishlartilgan xalq geografik terminlari ro'yxati keltirildi:

"Qutadg'u bilig" da	Hozir ishlatiladi
Art	Art, dovon, oshuv
Botar	G'arb
Buz	Muz
Buloq	Buloq, chashma, qaynar
Yoz	Bahor
Yozi	Dala
Yoy	Yoz
Kechig	Kechuv, guzar
Kus	Dovul
Mashriq	Sharq
Ojun, ochun	Dunyo, olam
Sabo	Sabo (shabada)
Tarig'ig'	Ekin
Targ'ilig'	Ekinzor
Tunak	Tunak (yurt)
Chechaklik	Maysazor
Ol	Chashma, buloq
Yar	Jar

O' bri	Chuqurlik, dara
O' ngdun	Mayin shabada
Kuz	Terskay

Geografik terminshunoslikka oid ma'lumotlarni XIII - XIV asrlarda yashab ijod etgan olimlar - Abu Hayyon va Jamollidin Turkiy asarlarida ham uchratish mumkin.

Abu Hayyon (1256 - 1345) andalusiyalik mashhur tilshunos olim bo'lib, umrining 80 yilini ilmga bag'ishlagan. Uning 50 dan ortiq asarlari bo'lib, bu asarlarda ko'plab geografik ma'lumotlar ham uchraydi. Uning asarlarida uchraydigan geografik atamalar namunalari quyida keltiriladi.

Jamoliddin Turkiy (XIV - XV asrlar) arab va turkiy tillarni mukammal bilgan olimdir. Jamoliddin Turkiy ham bir necha asarlar muallifi bo'lib, uning bizga faqatgina “Kitob bulgat al - mushtoq fi lug'atit - turk va - l - kifchoq” (“Turk va qipchoq tillariga mushtoqlarni qoniqtiruvchi kitob”) nomli asarigina yetib kelgan. Bu asar to'rt bobdan iborat bo'lib, uning ikkinchi bobida ko'proq geografik ma'lumotlar bor. Masalan, tog'lar, daryolar, sahrolar, o'rmonlar, shaharlar, daraxtlar va boshqalar bilan bog'liq terminlar ko'p uchraydi.

XI va XIII - XIV asrlar oralig'ida xalq og'zaki nutqida ishlatilgan terminlarni bir - biriga taqqoslaymiz.

“Qutadg’u bilig” (XI asr)	“Devonu - lug’atit - turk” (XI asr)	Abu Xayyon asarlari (XIII - XIV asrlar)	J.Turkiy asarlari (XIV - XV asrlar)	Hozirgi Shakli
	Qaya	Qaya	Qaya	Qoya
	Ko'l (dengiz, hovuz)	Kol	Ko'l	Ko'l
Art	Art			Ort, art
Botar				G'arb
Buz	Buz	Buz	Buz	Muz
Yaz (yoz)	Yaz (bahor)	Yaz (yoz)	Yaz (yoz)	Yoz
	Jar	Jar	Jar	Jar
Tubi	Tupi	Tipi		Bo'ron
Quz	Quz	Quz	Quz	Kungay
Qiragu	Qirgu (arkim)	Qiravu	Qiravu	Qirov
O' bri	O' bri (obri)	O' r	O' r (or)	Chuqurlik
		Chiq	Chiq	Shudring
O' kuz	O' kuz	Ukuz	Say	Daryo

		O'zan (ozan)	O'zan	O'zan
	Tabiz	Tibiz	Tibiz	Sho'rhok
Tubrak	Tubrak	Toproq	Toprak	Tuproq

XI asrda bitilgan, yuqorida zikr etilgan asarlarda shuni ko'rish mumkinki, qadimdan ishlatilib kelgan turkiy terminlar qatoriga arab tili orqali (VII arsdan boshlangan arablar istilosidan so'ng) ham turli terminlar kirib kelgan. Demak, milodning I asrdan VII asrlarigacha Turkiston xalqlari keng qo'llangan turkiy terminlar, arablarning zo'rma - zo'raki olib kirgan arab terminlari bilan boyidi.

XIII - XIV asrlarda esa mo'g'ullar istilosi sababli kirib kelgan mo'g'ulcha terminlar ham turkiy terminlar qatoridan o'rin olgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'rta Osiyo - Turkiston zaminidagi ulkan tarixiy o'zgarishlar, bosqinchilik yurishlari - avval arablar, so'nrga mo'g'ullar istilosi natijasida o'sha xalqlar terminlari ham kirib keldi va o'rnashib qoldi.

Qadimiy qo'lyozmalar bilan bir qatorda, tarixiy geografik memuar asarlar ham terminshunoslikning muhim manbalaridan hisoblanadi. Tarixiy - geografik memuar asarlarda muayyan davrdagi tarixiy voqea - hodisalar, biror tarixiy shaxsning hayot yo'li aks ettirildi. Ana shunday asarlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asaridir.

O'zining ajoyib qobiliyatlari bilan Bobur Sharq tarixida faqatgina shox va harbiy sarkarda, Hindistonda Boburiylar sulolasining asochisi bo'libgina emas, balki buyuk olim, o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondasi, etnograf, tarixchi, mashshoq, binokor, sayyoh va tabiatshunos sifatida o'chmas iz qoldirgan. Uning sarguzashtlarga boy hayoti avtobiografik xarakterdagi "Boburnoma" da keltirilgan.

Andijonda boshlanib, Hindistonda yozib tugatilgan ushbu asar XV asr oxiri, XVI asr boshlaridagi O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlari tarixi, tabiati, har bir tasvirlanayotgan hududning geografik o'rni, iqlimi, o'simliklari, qazilma boyliklari, hayvonot dunyosi va umuman muallifning Farg'ona vodiysida o'tgan yoshlik yillaridan to Hindistonda podsholik qilgan yillarigacha bo'lgan voqea - hodisalarni o'z ichiga olgan tarixiy asardir.

"Boburnoma"dagi ma'lumotlar bevosita Boburning kuzatishlari asosida yozilgan original asar bo'lib, muallif asarni yozishda birorta hattot ham yollamagan.

Asardagi keng qamrovli ma'lumotlar shu darajada qimmatliki, mana besh asrdan buyon tarixchilar, geograflar, tilshunoslar, sharqshunoslar, etnograflar, arxeologlar, adabiyotshunoslar va botaniklarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Asar uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida Movarounnahr voqealari, ikkinchi qismida Kobul davlati hududidagi voqealar, uchinchi qismida esa Hindiston aks ettirilgan.

“Boburnoma”dagi geografik nomlar, tarixiy sanalar va voqealarni ko'pligiga qaramay, u oson va qiziqib o'qiladi. Bobur asarda Movarounnahr, Afg'oniston, Xuroson, Eron, Hindistonning ko'plab shahalarini tilga olgan. Andijon, Samarqand, Buxoro, Kobul, G'azna, Balx, Badaxshon, Dehli, Delavpur, Lohur shaharlarining geografik joylanishi, o'sha davr xo'jaligida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar qoldirgan.

Muallif Farg'ona vodiysidan Hindistongacha bo'lgan ulkan hududni ustalik bilan ma'lum tartibda tavsiflaydi. Bunda uning yirik geograf ekanligi namoyon bo'ladi: avvalo joyning geografik o'rni (qaysi iqlimga mansubligi), uning chegarasi, qishloq xo'jaligi, suvlari, o'simliklari, foydali qazilmalari, hayvonot olami, aholisi va boshqa ma'lumotlar beriladi. Bunday tartib ayrim hollarda buzilsada, har bir joyning tavsifi shu yo'sinda keltiriladi.

Bulardan tashqari Bobur taqqoslash metodidan foydalanib, O'rta Osiyo va Hindiston tabiatini taqqoslab, ularni bir - biriga o'xshamasligini aytadi.

“Boburnoma”ning birinchi qismida Zarafshon daryosi haqida ancha ishonarli ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlarning haqqoniyligini Samarqand tarixini bayon etuvchi “Samariya” asari ham tasdiqlaydi.

“Boburnoma”dan Kobul (Afg'oniston) viloyatining geomorfologik, iqlimiy va geobotanik rayonlashtirishga oid misollarni uchratish mumkin. H.H.Hasanov buni Bobur geografiyasining eng yuqori cho'qqilaridan biri deb hisoblaydi.

Asarning uchinchi qismida Hindiston tabiati, undagi tarixiy voqealar aks etgan. Hindiston tabiatini ta'riflab uning tog'lari va daryolari, iqlimi, o'simliklari, hayvonot dunyosi haqida batafsil ma'lumotlar yozgan.

“Boburnoma” geografik terminshunoslik uchun ham muhim manba hisoblanadi. Unda turli tabiiy hodisalar, tabiatning turli komponentlariga oid xalq terminlaridan keng foydalanilgan. Hatto ba'zi terminlar o'z o'rnida izohlab berilgan. Bobur ishlatgan xalq geografik terminlarini quyidagicha guhulashtiramiz va ayrimlarini izohlaymiz:

1. Relyefga oid xalq terminlari. Asarda tog' termini bilan bir qatorda ko'h atamasi ham barobar ishlatilgan. Bundan ko'hpoya (tog' etagi, adir), ko'hiy (tog'lik) terminlari yasalgan.

Bobur tog' etagini “**tog' domanasi**” yoki “**ko'h domanasi**” deb atagan. Qulla cho'qqi, “**tog' qullasi**” - tog' cho'qqisi demakdir. **Pushta** - atrofga nisbatan ko'tarilib turgan yer, tepa, balandlik, qir; **Tuz yer** - tepa yer, **tup** - **tuz yer** - tep - tekis yer, M.Koshg'ariyning “Devonu lug'atit turk”ida

ham shunday (I. 314.) **Dovon** - tog'larning oshib o'tish oson bo'lgan joyi, ko'tal, dovon, **band** deb ham ishlatilgan. Dovonlarning qor bosib qolishini **yo'llar bog'lanur** deb atagan. - Gurbon tumanida... ko'tallarni band derlar. Gur sari bu ko'tal bila borilur, golibo ul jihatdin Gurband deb turlar...". Bu Boburning mohir toponimist ekanligiga yana bir misoldir. Yana **tangi** - dara, tog' oralig'idagi yo'l, chuqur daryo vodiysi; tangi o'rnida **dara** ham ishlatilgan. **Jar** - yumshoq jinslarning uyilib ketishi natijasida hosil bo'lgan chuqurlik. **Kamar** - tog' yoki tepalik yon bag'rida yoysimon o'yilgan chuqurlik, bu quruq o'zan bo'lishi ham mumkin.

Ma'lumki, Bobur ov qilishni yaxshi ko'rgan va mohir ovchi ham bo'lgan. Ayniqsa tog'larda ov qilinadigan joylar ko'p bo'lgan, bunday joylarni **ovloq** deb yuritishgan. Daryo qayirlarida ham ovloq ko'p bo'lgan. **Pargana** - atroflari tog' bilan o'ralgan va bir tomoni ochiq bo'lgan vodi. **Uchma** - chuqur jar yoqasi, tik yonbag'ir, undan o'tgan yo'l - uchma yo'l. Bobur kichik va past tog'larni **ushoq tog'lar**, Dehli atrofidagi tog'larni esa **toqqina** deb atagan. Tog' etagidagi jarlik, kirish qiyin bo'lgan joy, boshi berk dara, chuqur yer, tog' beli - **arg'adol** deyilgan. Tog'lardagi g'or va kovaklar **havol** deb ataladi.

2. Iqlim bilan bog'liq xalq terminlari. Bobur Afg'onistonning issiq mintaqasini **garmser**, iqlimi sovuq bo'lgan qismlarni **sadser** deb atagan. Xalq tilida issiq shamol **garmsel**, sovuq shamol **sarsar** deyiladi. **Sel** - kuchli yog'inlar yog'ishi natijasida tog' vodiylari, soylar va jarlardan qisqa vaqt ichida juda katta tezlik bilan oqib keluvchi tosh aralash loyqa suv oqimi. Bobur Hindistonning "...yog'inlarida bir zamonda sellar keladur, hech suv yo'q yerlarda daryolar oqadur..." deydi.

Samum (arabcha "samum" - issiq shamol) - asosan cho'llarda esadigan issiq va quruq shamol. Bobur samum ta'sirida hind ahli o'rtasida qurbonlar bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirgan. **Sabo** - ertalab esadigan mayin shamol. Kuchli yomg'irlarni Bobur **qalin yomg'ir** deb ham yozgan. **Tobariston** - Hindistonda yoz fasli, **pashkol** - yomg'uriy fasl, **zimiston** esa qish faslidir. Tobariston quyidagi oylardan iborat: **chitar oyi** (hut, 19 fevraldan 21 martgacha 31 kun davom etadi), **baysik oyi** (hamal, 22 mart - 21 aprel, 30 kun), **jit oyi** (savr, 21 aprel - 21 may, 31 kun), **asor oyi** (javzo, 22 may - 21 iyun, 31 kun).

Pashkol, ya'ni yomg'uriy fasl **savon oyi** (saraton, 22 iyun - 22 - iyul, 31 kun), **bodun oyi** (asad, 23 iyul - 22 avgust, 31 kun), **kuvor oyi** (sunbula, 23 avgust - 21 sentabr, 30 kun) va **kotik oyi** (mezon, 22 sentabr - 20 oktabr, 29 kun) dan iborat.

Zimiston (qish) fasli **axchan oyi** (aqrab, 21 - oktabr - 18 noyabr, 29 kun), **pus oyi** (qavs, 19 noyabr - 18 dekabr, 30 kun), **mox oyi** (jادی, 19 dekar

- 18 yanvar, 31 kun) va **pogun oyi** (dalv, 19 yanvar - 18 fevral, 31 kun) dan iborat.

3. Hidrologiyaga oid xalq terminlari. Ariq, soy, daryo bilan bog'liq iboralar ko'p ishlatilgan. Shu bilan bir qatorda **rud** (tojikcha - “rud” - ariq, suv, kanal, daryo) ham keng qo'llanilgan. Qo'l - daryo, daryo vodiysi, irmoq ma'nosida qo'llanilganligini quyidagi jumladan bilish oson: “...qo'lning ichi kishi mamarridi yiroq xilat yo'l, ko'l yuqori - uq yurib, suvni o'ng qo'lga quyub, yana bir quruq qo'lga kirduk...”.

Qo'l - tog' yo'li, tog'dan daryo vodiysiga tushgan yo'l ma'nosida kelgan.

Guzarning ikki ma'nosi bor, birinchidan, **guzar** - kechik, kechuv, daryoni kechib o'tish mumkin bo'lgan sayoz joy. Asarda bir necha guzar nomlari tilga olingan: Kilif guzari, Uoj (Uyoj) guzari, Uyoch (Uyoj) guzari, Nilob guzari va boshqalar. Ikkinchidan, **guzar** - gavjum joy ma'nosida ham kelgan. Masalan, “...Kura ko'talida erta yozlar qushlarning guzaridir... yoki ...Boron suyida balig'ning guzari bo'lur”. Shahar yoki qishloqning chorraha joyi yoki turli do'konlari, choyxanalari bo'lgan gavjum, serqatnov joylari ham **guzar** deyilgan.

Shoxjo'y - ariq (kanal), bosh arig'dan chiqarilgan tarmoq, daryo yoqasi - qirg'oq, daryo qirg'og'i, **ulug' yo'l** - katta yo'l ma'nosida kelgan. Bobur daryolardagi suv kamayishi, pasayishi holatini yoki hozirgi geografik ilmiy adabiyotda qo'llaniladigan “mejen” ni **suv kichik bo'lganda**, toshqinni esa **suv ulug' bo'lganda** yoki **suv kirganda** deydi. Daryolar qo'shilgan, tutashgan joyni **suv qotilishi** deb ifodalaydi. **Chashma** - uncha kuchli bo'lmagan bosim ostidagi yer osti suvlarining yer betiga chiqqan joyi, buloq, **garm chashma** - issiq buloq. Asarda chashma ko'proq ishlatilgan bo'lsa - da, uning **qaynar** sinonimi ham bor. Yer osti suvlarining yer betiga sizib chiqqan joyi buloq deb ifodalanadi. Har ikki termin ham “Boburnoma”da keng qo'llanilgan.

Mohixona (“mohi” - baliq) - baliq saqlanadigan joy, chuqur o'yilgan yer. Suv oqib turadigan joydan chamasi 3 - 5 metrcha keladigan chuqur qazib, chiqish faqat bir tomondan (chiqish tomoniga chig' yasab qo'yiladi) qilib maxsus yasaladi. Mohixona, asosan, qish faslida baliq saqlash uchun quriladi. Bunday usulda baliq tutishni Bobur hech yerda uchratmaganligini aytadi.

4. Tuproq, o'simlik va hayvonot olami bilan bog'liq xalq terminlari. **Sho'r yer** - qurg'oqchil o'lkalardagi pastqam yerlarda minerallashgan yer osti suvlarining yer betiga chiqishi, “Boburnoma” da “...Kobul va G'azni purshar va sho'r yerlar edi...” deyiladi. Haqiqatdan ham arid zonada joylashgan Kobul va G'azni atrofida sho'r yerlar ko'plab uchraydi. **O'lang** (ruschasi “polyana”)

- o'tloq yer, keng maydon. **Yayloq** - yaylov, "...Farg'ona viloyatining girdo - gidri tog'larida yaxshi yayloqlari bor...". julg'a - ko'klamzor, hindlar julg'ani "dun deydilar". **To'qay** termini "Boburnoma"da faqat bir joyda tilga olinadi. Bu terminni V.Radlov "o'rmon" deb tarjima qilgan. Mo'g'ulcha va ko'pgina turkiy tillarda bu termin "daryo bo'yidagi o'rmon, chakalakzor" deb izohlanadi".

"Boburnoma"da quyidagi o'simliklar tilga olingan:

Tobulg'u	Panyola	Anbula (hindi hurmo)
Koju (qarag'ay)	Omila	Amradpal (limon navi)
Chilg'o'za (kedr)	Xurma	Amalbu (limon navi)
Bolut (dub)	Norgil	Amalbel (limon navi)
Xanjak	Limu (limon)	Joman
Kila (banan)	Sangtora (apelsin navi)	Kamrak
Maxva (gulchikan)	chanbariy (limon navi)	Badxal (non daraxti)
Kirni	Mehrigiyo ("ayiq o'ti")	Karunda
Kadxil	Nayshakar (shakarqa mish)	Gula
Biyir		Chirunchi
Tor (hurma navi)		Turunj (sitron)
Galgl limu		Sadofal (limon navi)

Bobur, uning ziddiyatli, sarguzashtlarga boy bo'lgan hayoti va ilmiy merosi sharqshunoslar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Uning ilmiy merosi - Sharq madaniyati va umuman jahon madaniyatiga qo'shilgan bebaho xazinalardan ekanligini butun dunyoda tan olingan. Mashhur sharqshunos olim S.P.Tolstov unga yuksak baho berib "...Farg'onalik Zahiriddin Bobur - Sharqdagi Uyg'onish davrining eng atoqli siyosiy va madaniy arboblardan biridir" degan edi.

Hindistonning davlat arboblari va olimlari Bobur haqida ijobiy fikrdalar, chunki Bobur Hindistonni talab ketmay, odilona podsholik qildi, insonparvar, xalqparvar ekanligini isbotladi. Javoharlal Neru shunday yozadi: "Bobur dilbar shaxs, uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor shaxs bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevgan, hayot nafosatidan lazzatlana bilgan... Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o'zgarishlar sodir bo'ldi, san'atda, hayotda, me'morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha taraqqiyot yuz berdi".

"Boburnoma" dunyoning turli tillariga tarjima qilingan bo'lib, turli davrlarda asar ustida tadqiqot ishlari olib borilgan va ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Asarni tadqiq etishda yirik mamlakatlar (AQSH, Rossiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Turkiya, Pokiston, Afg'oniston, Italiya, Hindiston va boshqalar) olimlarining ishlari diqqatga sazovordir. Gollandiyada Vitsen (1705), Angliyada U.Erskin va J.Leyden (1826), R.Koldekot (1844), A.Beverij (1905), Talbot (1909) lar, Germaniyada YU.Klaprat (1810), A.Keyzer (1828), Frnsiyada Pave de Kurteyl (1871), B.Gramoye (1980, 1985), Rossiyada N.Ilminskiy (1857), Afg'onistonda Abdulaxay Xabibiy, Pokistonda Rashid Axtor Nodviy, Hindistonda Mirza Nasriddin Haydar (1924), Turkiyada R.Arat va N.Bayur (1943 - 1946) va boshqa olimlar “Boburnoma”ni ilmiy tadqiq etishga ulkan hissa qo'shdilar. 1980 - 1985 yillarda dunyoning eng nufuzli tashkilotlaridan biri - YUNESKO tashabbusi bilan “Boburnoma” fransuz tilida bosib chiqarildi.

“Boburnoma”ni ilmiy tadqiq etishda o'zbekistonlik olimlarning ham xizmatlari kattadir. N.Ilminskiy (Qozon, 1857) va A.Beverij (London, 1905) lar tomonidan nashr etilgan asar nusxalariga asoslanib, 1948 - 1949 yillarda “Boburnoma”ning ikki qismdan iborat to'liq matni o'zbek tilida bosilib chiqdi.

P.Shamsiyev va S.Mirzayevlar nashrga tayyorlagan ushbu asar nusxasi kiril asosidagi o'zbek alifbosida geografik nomlar va kishi ismlari ko'rsatkichi, lug'at va ba'zi bir qisqa izoh hamda tarjimalar bilan nashr etildi. Bu asar nusxasi 1960-yilga kelib, V.Zohidovning so'z boshisi bilan qayta nashr qilindi. Toshkentda “Boburnoma” ning birinchi ruscha nashri 1958-yilda amalga oshirildi.

M.Salye tarjimasiga asoslanib 1982-yili S.Azimjonova so'z boshisi va M.Xayrullayev tahriri ostida “Boburnoma” rus tilida qayta nashr etildi.

Tilshunos olim P.Shamsiyev o'zbek tilida nashr etilgan yuqoridagi asar nusxalariga asoslanib, ularda yo'l qo'yilgan ba'zi kamchiliklar, tarjima izohlarga qo'shimcha qilib, asarni 1989-yili qayta nashr etdi. Umuman, tilshunos olim P.Shamsiyevning “Boburnoma” ustida olib borgan ishlari taxsinga loyiqdir.

Boburshunos, tarixchi olima S.Azimjonovanning xizmatlarini ham alohida ta'kidlash lozim. Sharqshunoslardan A.Nosirov Bobur asarlarining to'la ro'yxati va Bobur haqida turli tillarda e'lon qilingan materiallarni to'plagan.

Tilshunos olim X.Nazarova Bobur asarlarida uchraydigan va tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarning izohli lug'atini tuzdi.

Boburshunoslar orasida xassos olim, atoqli geograf Hamidulla Hasanovni alohida ta'kidlab o'tish joizdir. H.Hasanov Boburnining hayoti va uning me'rosini chuqurroq o'rganish maqsadida Bobur izidan - Andijondan Hindistonga safar uyushtirdi. Boburning poyi qadami tekkan bir necha

shaharlarda bo'ldi, bobokalonimiz tomonidan qurdirilgan ziyoratgohlarni hamda Boburning Kobuldagi qabrini borib ziyorat qildilar. Safardan ajoyib ma'lumotlar bilan qaytgan olim, keyinchalik Bobur va uning geografik merosi haqida risola yozdilar. Risoladagi Bobur merosining geografik jihatlari talqin qilingan va "Boburnoma"da tilga olingan yirik joylar xaritasi ishlangan. Ayrim joy nomlari va atamalarni izohlab bergan. Xullas, muallif "Boburnoma"ning geografik jihatlarini to'la ochib bergan.

Quyida "Boburnoma" da keltirilgan xalq geografik terminlardan namunalar keltirildi:

Ariq	Yel	Orol	Shoxjuy
Arg'adol	Yomg'ir	Pushta	(ariq
Ark	Jangal	Ravoch	tarmog'i)
Asad	Jar	Raxguzar	Shaxr
Band (ko'tal)	Jilg'a	Rud	Yayloq
Bandar	Zilzila	Sabo	O'lang
Bahor	Iqlim	Savr	O'rdu
Botqoqlik	Qamar	Samum	Qasaba
Buloq	Kent	Saraton	Qasabacha
(chashma)	(kentgina)	Sarhad	Qishloq
Bulut	Koriz	Sahro	Qorasuv
Vodiy	Kechit	Sel	Qor va yax
Viloyat	(kechuv)	Soy	Qum
Garmser	Kuz	Suv ulg'ayishi	Qushloq
Guzar	Ko'h	Suv yoqasi	Qo'l
Dalv	Ko'hiy	Tangi	(daryo
Daryo	Ko'histon	Tarnov	irmog'i)
(daryocha)	Kuhpoya	Tepa	Qo'rug'
Dasht	Langar	Tuz yer	Qo'rg'on
Dobon	Mashriq	(tekis yer)	G'arb
(dovon)	Ma'mura (obod	Tuman (rayon)	G'or
Domana	joy)	Ushoq tog'	Xut
Dun	Navroz	Chorbog'	
(ko'klamzor)	Nov	Chashma	
Duob	Ovloq	(buloq)	

O'zbek geografik terminshunosligining XX asrda rivojlanishi

O'zbek geografik terminshunosligining XX asrdagi taraqqiyotini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. *XX asr boshidan 40 - yillargacha bo'lgan davr;*
2. *1940 - 90 yillar;*
3. *1990 yildan keyingi davr*

XX asr boshidan 40 - yillargacha bo'lgan davr

XX asr boshidan 40 - yillargacha bo'lgan davr o'zbek geografik terminshunosligi taraqqiyotining o'ziga xos davri hisoblanadi. Bu davrda eski o'zbek alifbosi ikki marta (1929 va 1940 yillari) o'zgartirilgan. 1929 yilgacha nashr etilgan barcha adabiyotlar arab alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvida yozildi. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning “Qisqacha umumiy jo'g'rofiya” (Samarqand, 1902), “Aholi jo'g'rofiyasiga kirish” (Samarqand, 1903), “Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi” (Samarqand, 1905), F.Karimiyning “Jo'g'rofiya” (Orenburg, 1902), Muhammad Amin Karimiyning “Jug'rofiyai riyoziy” (1914), Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining “Yer yuzi (jo'g'rofiya risolasi)” (Toshkent, 1913), N.I. Balashovning “Turkiston. Jug'rofiya o'qimligi” (Toshkent, 1925), “O'rta Osiyo iqtisodiy jo'g'rofiyasi” (Toshkent, 1925), “O'rta Osiyo iqtisodiy jo'g'rofiyasi” (Toshkent, 1926) kabi darslik va risolalar arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvida yozilgan. Bu asarlarda xalq terminlaridan keng foydalanilgan. O'sha davrning eng mukammal va ommabop qo'llanmalaridan biri Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining “Yer yuzi” geografik risolasidir. Risolada hozirgi davr uchun eskirib muomaladan chiqib ketgan deb hisoblanadigan terminlar – bahri muhit, kurai musanna, kurai musattah, xattiistivo, chaqirim va boshqalar bilan bir qatorda manba, mansab, sayyoh, cho'l, xarita kabi hozirgi geografik adabiyotda keng ishlatiladigan terminlar ham bor. Ko'rinib turibdiki, ushbu qo'llanmada keltirilgan terminlarning aksariyati arabcha terminlardir. Demak, o'sha davrda umuman terminshunoslikda bo'lgani kabi geografik terminshunoslikda ham arabcha terminlarning ta'siri kuchli bo'lgan.

Rus tilidan tarjima qilingan N.I. Balashovning darsligida ham shunday terminlarni uchratamiz.

G.Ivanovning “Boshlang'ich jo'g'rofiya” qo'llanmasida ham arz, asg'ariy, bandar, bekat, bo'y chizig'i, darajai rasatiya, yonar tog', janubiy

mador, zanj, kura, kurai mujassama, mador o'rmonlari, miqyos, taqim otalar, terma kitob, tul, usuli ta'lim, ufq, xarita, xattiistivo, shimoliy mador, en chizig'i, yarim kura, yasama daryo, havoii nasimiy, hind qamichi kabi ko'pgina geografik so'zlar ishlatilgan.

A.Obizovning "O'zbekiston Sotsialistik Sho'rolari Jumhuriyati jo'g'rofiyasi" kitobida ariq, bo'y chiziq, viloyat, jumhuriyat, jo'g'rofiya, ziroatchilik, kimyo, xarita, en chiziq kabi ko'plab terminlar ishlatilganki, ularning aksariyati 30 - yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, rus va Yevropa tillari orqali kirib kelgan terminlar bilan almashtirildi. Shu bilan birga mazkur kitobda injener, passajir, prosess, temperatura, ekonomika kabi terminlar ham uchraydiki, bu narsa o'sha davrdan boshlab rus tili orqali xorijiy tillar terminlarining o'zbek tiliga kirib kela boshlaganligidan dalolatdir.

A.Abizovning "O'lkani o'rganish dasrligi. Tabiat" kitobida O'rta Osiyo o'simliklari va hayvonot dunyosi haqida ma'lumotlar berilgan. O'rta Osiyo o'simliklari quyidagicha guruhlashtirilgan: erta bahor o'simliklari (gunafsha), chuchmoma, lolaqizg'aldoq, qayrag'och, foydali ildizlar (beda, tog' saqich), cho'l o'simliklari (saksovul, juzg'un), mevali o'simliklar (sholi, tariq, mosh), to'qimachilik o'simliklari (paxta, kanof va boshqalar), moyli ekinlar (kunjut, kanakunjut, xitoy bodomi, ko'knori), begona o'tlar (g'umay, sariq pechak, qamish, qurmaq), daryo o'simliklari (darmana, totli tomir), hush hidli o'tlar (sumbul, taran), to'qay o'simliklari (jiyda, tol, terak), tog' o'simliklari (yovvoyi olma, nok, o'rik, archa, qayrog'och).

Hayvonot dunyosi baliqlar (fil bo'yin, laqqa), suvda ham quruqlikda yashovchilar (ko'k qurbaqa), sudralib yuruvchilar (sahro bo'g'ma iloni, toshbaqa, echkiemar), qushlar, yirik sut emizuvchilar (qulon, tog' echkisi, arxar, yumronqoziq, o'rmon suvsari, sirtlon, Tyanshan ayig'i, Qorako'l qo'yi, qo'tos) ga bo'lingan.

Ko'rinib turibdiki, muallif O'rta Osiyo o'simliklari va hayvonot olamiga oid xalq terminlaridan keng foydalangan.

30 - yillarning o'rtalari va ikkinchi yarmida rus tilidan tarjima qilingan darsliklar va qo'llanmalarda ham tarjimonlar xalq geografik terminlaridan foydalanishga harakat qilgan, lekin rus tili orqali ko'p xorijiy terminlar kirib kela boshlagan edi. 1930 yillarning o'rtalaridan boshlab o'zbek geografik nomlari buzila boshladi, an'anaviy geografik termin va nomlarga nisbatan ta'qib va siyosiy zo'ravonlik boshlanadi. 1937-yilgacha ishlatilgan xalq geografik terminlari turkiy til bilan bir qatorda, asosan arab va fors - tojik tillari orqali singib ketgan terminlardir.

1935 - 37 yillarda faqatgina terminlarimiz emas, fikr - qarashlarimiz, tilimiz, an'analarimiz, milliy urf - odatlarimiz yevropalashtirildi, hayotning turli jabhalarida yevropalashuv ildiz ota boshladi. Xalqimizning yillar dovomida saqlab kelayotgan urf - odatlari, an'analari, qadriyatlari, shu jumladan, terminlari quvg'in ostiga olindi.

“Baynalmilalchilik” niqobi ostida xorijiy (rus tili orqali kirib kelgan) terminlar xalq terminlari o'rnini egalladi.

30 - yillarning o'rtalarida terminshunoslikka bag'ishlangan lug'atlardan biri O.Ibrohimovning “Geografiya atamalari”dir. Bu lug'at dastlabki urinish bo'lganligidan ayrim kamchiliklardan holi bo'lmagan. Geografik nomlar bilan birga terminlar ham berilgan, lekin terminlar va nomlar ancha tartibsiz, tavsiya etilgan terminlarning ko'pchiligi yasama, termin bilan nomning farqiga yetilmagan.

Asrimiz boshidan 40 - yillargacha bo'lgan davrda yaratilgan yana bir lug'at M.Bektemirov va S.Saidrasulovlar tomonidan tuzilgan “Qisqacha ruscha - o'zbekcha geografiya terminlari lug'ati”dir. Professor N.G.Mallitskiy va R.G'afurovlar tahriri ostida nashr etilgan ushbu lug'at oldingi lug'atdan biroz mukammalroq bo'lsa - da, bu ham kamchiliklardan holi emas. H.Hasanov ta'biri bilan aytganda “ unda ham xalq terminlariga e'tibor berilmagan, yasama so'zlar ko'p. Shuningdek, *ustup*, *utyos*, *stremnina*, *skala*, *podukt*, *purga*, *poyma*, *lyoss*, *obolochka*, *nanos*, *korabl* kabi so'zlar o'zbekchada ham aynan o'lina berilgan, holbuki ularning har birining o'zbekcha ekvivalentlari bor. Lug'atda yana ortiqcha so'zlar ham (masalan, *gryaz*, *dikar* kabi), noto'g'ri yozuvlar ham (masalan, *grigorian*, *yulian*, *laza*, *laguna* kabi) bor. Afsuski, O'rta Osiyo mahalliy geografik terminlarini juda yaxshi bilgan professor N.G.Mallitskiy ushbu lug'atda negadir keng quloq yoza olmagan”

1940 yildan so'ng lotin imlosidan, kirill yozuviga o'tildi, shuning uchun yuqoridagi ikki lug'atning amaliy ahamiyati deyarli qolmadi.

1940 - 1990 yillar

1940 - 1990 yillar ham o'zbek geografik terminshunosligi tarixida alohida bir davrni tashkil etadi. 50 - yillarning boshlarida bir guruh geograflar tomonidan “Qisqa ruscha - o'zbekcha geografiya terminlari lug'ati” tuzildi. Ushbu lug'at “...ilgarigi barcha lug'atlardan ancha afzal bo'lib, geografiyaning ko'pgina sohalarini qamrab olgan yangi va tartibli

lug'at edi...”¹. Lug'at haqida matbuotda bir necha ijobiy fikrlar bildirilgan maqolalar e'lon qilingan, shu bilan ayrim e'tirozlar ham bo'lgan.

O'zbek geografik terminshunosligining tarixida, rivojlanishida hassos olim, mohir pedagog, geograf - terminshunos Hamidulla Hasanovning o'rnini alohida qayd etib o'tish lozim.

H.Hasanovning “Geografiya terminlari lug'ati” (T.,1964) kitobida o'zbek geografik terminshunosligining manbalari va taraqqiyoti, xalq atamalaridan namunalar, geografik terminlarning ruscha - o'zbekcha va o'zbekcha - ruscha lug'ati berilgan. Ruscha terminlardan “step”ning dasht, “pustinya” ning cho'l, “vpadina”ning botiq, “vodorazdel”ning suvayirg'ich, “zaliv”ning qo'litiq deb va boshqa shu kabi ko'lab terminlarni o'zbek geografik terminologiyasida mustahkam qaror toptirish olimning hizmati natijasidir. Asarda terminlarni tanlash prinsiplari va ayrim xalq geografik atamalarining izohi berilgan.

Lug'atdagi xalq atamalari “Devonu lug'atit turk”, “Badoyi lug'ati”, “Kilurnoma”, Shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug'ati chig'atoy va turkiy usmoniy”, L.Z.Budagovning lug'atidan va turli sayohatlar davomida to'plangan. *Arg'adol, orqa, “tog'ning og'zi”, uchma, o'r, olatog', qoratog', o'y, o'y - qir, o'ydin, o'yqin yer, bayir (boyir), tirsak, ayri (ayrilish), osilma (yo'l), sakratma, sangboron (sangbo'ron), etak, tumshuq, ko'l, qorako'l, bo'z (yer, suv, tuproq), to'rtko'l, chink, chopqun yog'in, qoradovul, garmsar, sarsar, angiz (angqizoq), jiltir muz, serka muz, muzdoq (do'l), yaqoriqon, yel yoq, obdon, ters oqin, girdob, oqma, oyoq (odoq), butoq (shoxcha, qo'l), zix, qodir yer, erkuz suv, oqim, chuqurdon, sel (seldara), guzar (kechuv), o'zgun suv, o'zdurma, toyig', qo'l, qopchig'ay, ko'ksuv, qisnoq, qumtosh (toshqum), to'qay, qo'shorol, oyqin ko'l, chig'ir va boshqa ko'pgina xalq atamalari izohlab berilgan. Bulardan tashqari, xalqimizning ming yillar davomida tabiat hodisalariga zehn solib, qiziqish bilan qarab, kuzatib kelishi natijasida paydo bo'lgan xalq iboralari ham tahlil etilgan. Chilla, “oy o'tov tutdi”, ayamajiz, beshqo'noq, “o't yoqmas oyi” (aprel), “sorchu” (iyul), qirqkuyak (avgust), mezon oyi (sentabr), “qoracha” (oktabr), “xazon oyi” (xazonrezgi) (oktabr - noyabr), “qozon oyi” (noyabr), “so'g'um oyi” (noyabr - dekabr), “qantar oyi” (dekabr), “o'p'qon” (yanvar) kabi atama va oy nomlari, “javzoda arpa pishadi”, “asad ekinini yasat”, “qantarda qarg'a odimiday kun uzayadi”, “aymajiz olti kun, qahri kelsa qattiq kun” kabi xalq naqlari izohlangan.*

¹ Hasanov H. Geografiya terminlari lug'ati. T., “Fan”, 1964, 10-bet

H.Hasanovning “Mahmud Koshg'ariy” (T., “Fan”, 1963) kitobchasida ham xalq geografik terminlari izohlangan.

1958-yili A.S.Barkovning “Словарь справочник по физической географии” kitobi o'zbekchaga tarjima qilindi (T., “O'quvpeddavnashr”, 1958). Lekin o'zbek tilida mahalliy mualliflar tomonidan yozilgan geografiyadan birinchi izohli lug'at 1979-yilda yozildi. S.Qorayev, P.N.G'ulomov va R.U.Rahimbekovlar tomonidan tuzilgan ushbu lug'at o'lkashunoslik prinsipida, mahalliy geografik atamalarni o'z ichiga olgan holda, mukammal yozilgan o'zbek tilidagi geografiyadan birinchi izohli lug'atidir. Lug'atda geografiya terminlaridan tashqari muhim ahamiyatga molik ilmiy - nazariy tushunchalarning ham izohi berildi. Lekin iqtisodiy geografik terminlar nisbatan kam berilgan, mualliflar iqtisodiy geografiya terminlari lug'ati kengaytirilgan tarzda tegishli mutaxassislar tomonidan alohida tayyorlanishini lozim topishdi. Lug'atda *adir, ayoz, azon, aydar, ayri, angqizoq, angor, ang'iz, anhor, arna, achchi, aqba, badoq, band, bandar, beshqo'noq, voha, garmsel, damba, darband, deygish, dovon, do'ng, yovon (yobon), yona, jala, jangal, jilg'a, jimbuloq, jo'y, zayak, zov, zovur, ildirim, irmoq, yilg'a, kamgak, kent, kechuv, kom, koriz, kunash, kungay, ko'lanka, ko'lmak (xalqob), ko'lob, ko'sa yer, ko'tal, ko'tarma, langar, mavze, mansab, marza, marg'zor, mashriq, muztog', mo'ynoq, nahr, nov, nura, obdon, obombor, ovdon, ovloq, ovring, oydin, olatov, olish, orol (ota), orqa, osilma, otanoq, oftobro', oshuv, oqin, oqqum, oqquyu, og'iz, partov yer, rabod (rabot), sayrob, sayxon, sakratma, sangbo'ron, sangir, sangzor, sardoba, sarg'an yer, sel, soy, taqir, tepa, terskay, to'qay, unguz, ungur, chashma, chilla, chopqun yog'in, chuvoq, shovva, shovush, sho'rtob, sho'rxok, yut, yaylov, o'zan, o'zbo'y, qaynar, kasaba, qashqa, qisnoq, qoq, hovar, hovuz, homa* va boshqa ko'pgina xalq (mahalliy) geografik terminlari izohlab berilgan. Ushbu lug'at ko'p yillar davomida o'qituvchilar, talabalar va o'quvchilar uchun dasturilamal xizmatini o'tab keldi.

Xullas, 1940 - 90 yillar o'zbek geografik terminshunosligi tarixining o'ziga xos xususiyatlari shulardan iboratki, 40 - yillardan 90 - yillar boshlarigacha yozilgan geografiya darsliklari, qo'llanmalari, asosan rus tilidan tarjima qilinganligi sababli, bu davrdagi terminlarning aksariyati **tarjima terminlaridir.**

1990 - yillardan keyingi davr

Bu davr mustaqillik davri hisoblanadi. 90 - yillarning boshidan boshlab bir necha tarjima va izohli lug'atlar bosib chiqila boshlandi.

1992-yilda taniqli olim Mirortiq Mirabdulla o'g'li (Ortiq Mo'minov) ning “Jo'g'rofiy atamalar lug'ati” nashr qilindi. Muallif tili bilan aytilganda “...mazkur lug'atdan 1929-yilga qadar chop etilgan arab alifbosi (o'zbek tili)dagi jo'g'rofiy nashrlar, 1939-yilgacha nashr etilgan lotin alifbosidagi jo'g'rofiy darslik va qo'llanmalar, 1940-yildan keyin bosmadan chiqqan jo'g'rofiy lug'atlarni varaqlab, tahlil qilib, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan jo'g'rofiy atamalarni qayta ishlash va ayrim yangi atamalarni yaratishga oid olib borilgan dastlabki tadqiqot natijalari o'z ifodasini topdi. . .”.

Lug'atda o'zbek geografik terminshunosligining asrimiz boshlaridagi qisqacha tarixi ham bayon etildi. “.. 1937-yildan boshlab jo'g'rofiy lug'atimizda, jo'g'rofiy atamalarda anchagina salbiy o'zgarishlar ro'y berdi, ta'bir joiz bo'lsa tilimizning sharqona, an'anaviy, milliy tarovati yo'qolib ovrupolashdi, yasama so'zlar paydo bo'ldi ...”¹. Haqiqatdan ham, ko'pgina arab, fors - tojik, turkiy terminlar o'rniga rus tili orqali kirib kelgan xorijiy terminlar qabul qilindi.

Bundan tashqari, muallifning ayrim terminlar xususida o'z fikr - mulohazalari bayon etilgan. Bularning hammasiga qo'shilib bo'lmaydi, albatta. *Geografiya* o'rniga *jo'g'rofiya*, *ekvator* o'rniga *xattiistvo*, *tropik* o'rniga *mador*, *okean* o'rniga *ummon*, *parallel* o'rniga *muvoziy*, *materik* o'rniga *qarrat* kabi eskirib, muomaladan chiqib ketgan terminlar ham taklif etilgan. Fan rivojlanib borgan sari ayrim termin va tushunchalar ham eskirib muomaladan chiqib boradi, yangi terminlar paydo bo'ladi. Shunday ekan ayrim, eskirib muomaladan chiqib ketgan terminlarni yana zo'rma - zo'raki tilga kirtish ham to'g'ri emas. Lug'atda *karta* o'rniga *xarita*, *zapovednik* o'rniga *qo'riqxon*a, *kanal* o'rniga *ariq* kabi taklif etilgan terminlar o'rinlidir.

“Jo'g'rofiy atamalar lug'ati”dan so'ng, 1993-yilda geograf - terminshunos P.N.G'ulomovning “Geografiyadan qisqacha ruscha - o'zbekcha atamalar va tushunchalar lug'ati” bosilib chiqdi. Ushbu lug'atda, o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan ilgari qabul qilingan ayrim terminlar qayta ko'rib chiqilib, iloji boricha o'zbekchalashtirishga harakat qilingan. Lug'at so'z boshisida ruscha termin va tushunchalarning o'zbekcha muqobilini topish va tanlashdagi manbalar ko'rsatilgan. Shuningdek, geografiya terminini jo'g'rofiyaga almashtirish

¹ Mirortiq Mirabdulla o'g'li. Jo'g'rofiy atamalar lug'ati. T., “Fan”, 1992, 10-bet.

noto'g'ri ekanligi aytib o'tilgan va unga bir qancha dalillar keltirilgan. Taklif etilayotgan ayrim terminlarni eskirib, muomaladan chiqib ketganligi to'g'ri qayd etilgan.

A.Rasulov, F.Hikmatov va A.Akbarovlar tomonidan chiqarilgan “Gidrologiya atamaları va tushunchalarining ruscha - o'zbekcha lug'ati” (T., “Universitet”, 1993) dan ham ko'pgina ruscha gidrologik terminlar o'rniga o'zbek tilidagi mahalliy terminlardan foydalanishga harakat qilingan, ayrim terminlarning qisqacha izohi ham berilgan. Bunda ilmiy - baynalmilallik tamoyili ham saqlanib qolingan bo'lib, gidrologik ilmiy - tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1994-yilda P.N.G'ulomovning “Jo'g'rofiya atamaları va tushunchalari izohli lug'ati” kitobi nashr etildi. Bu lug'atda maktab geografiya darsliklari va dasturlari, xaritalar hamda turli sayohatlar davomida to'plangan xalq (mahalliy) geografik terminlarining izohi berildi. Garchi lug'at maktab geografiya terminlari va tushunchalari izohli lug'ati bo'lsada, unga maktab darsliklari va dasturlarida ko'zda tutilmagan xalq (mahalliy) geografik atamaları ham kiritilgan. Izohli lug'atning so'zboshisida, muallif terminlar tanlashdagi prinsiplar (mezonlar) ni sanab o'tgan. Lug'atda ayrim sabablarga ko'ra, geografiya termini o'rniga (garchi muallif “geografiya” tarafdori bo'lsada) jo'g'rofiya deb ishlatilgan, shunga bog'liq ravishda *jo'g'rofiy bashorat, jo'g'rofiy zonallik, jo'g'rofiy kenglik, jo'g'rofiy koordinatalar, jo'g'rofiy mintaqqa, jo'g'rofiy muhit, jo'g'rofiy uzunlik, jo'g'rofiy xarita, jo'g'rofiy qobiq, jo'g'rofiya, zoojo'g'rofiya, iqtisodiy jo'g'rofiya* kabi terminlar qo'llanilgan. “Jo'g'rofiya atamaları va tushunchalari izohli lug'ati” tarkibida xalq (mahalliy) geografik atamalarning seroblighi, ular izohi ham berilganligi bilan ajralib turadi, ayrim hollarda terminlarning etimologiyasiga ham e'tibor berilgan.

Umuman olganda ushbu davrda o'zbek geografik terminshunosligiga oid H.Hasanov (1963, 1964), S.Qorayev (1979, 1986), P.G'ulomov (1979, 1993, 1994), R.U.Rahimbekov (1979), O.Mo'minov (1993), Q. Hurramov (1981) larning ilmiy ishlari va turli maqolalari nashr etildi.

1989-yil 21-oktabrda o'zbek tili Davlat tili deb e'lon qilingandan so'ng, darsliklar, qo'llanmalar, lug'atlarni o'zbekchallashtirishga kirishildi. Lekin ayrim eskirib, muomaladan chiqib ketgan terminlarni yana qaytadan fanga olib kirish holatlari ham kuzatildi.

Quyida ayrim terminlarni biz taklif etadigan variantlarini keltiramiz:

Absolyut balandlik - mutlaq balandlik

Agat - aqiq

Agrobiotsenoz - agrobiotsenoz
 Agroklimatologiya - qishloq xo'jaligi iqlimshunosligi
 Adaptatsiya - moslashuv
 Aysberg - muztog', aysberg
 Antisiklon - antisiklon
 Arid iqlim - qurg'oqchil iqlim
 Atmosfera - havo qobig'i, atmosfera
 Barxan - barxan, qumtepa
 Basseyn - havza, hovuz
 Bedlend - buzuvq yer, yaroqsiz yer, moxov yer
 Val - marza, do'nglik
 Valun - g'o'latosh
 Vulkan - vulqon, yonartog'
 Vulkanologiya - vulqonshunoslik
 Gavan–bandar, bandargoh
 Galo - gardish
 Garmsel - garmsel, issiq shamol
 Geografiya - geografiya
 Geografik zona - geografik zona
 Geografik sikl - geografik davriylik
 Geografik karta - geografik xarita
 Geografik kenglik - geografik kenglik
 Geografik kompleks - geografik majmua, kompleks
 Geografik qobiq - geografik qobiq
 Gidrosfera - Yerning suv qobig'i, gidrosfera
 Globus - globus
 Glyatsiologiya - muzshunoslik, glyatsiologiya
 Gorizont - ufq, gorizont
 Gradus to'ri - daraja to'ri
 Grunt suvi - sizot suv
 Dalnomer - uzoqlik o'lchagich, dalnomer
 Delta - delta, daryo mansabidagi tekislik
 Denudatsiya - yuvilish, olib ketish, denudatsiya
 Dominant - asosiy, hukmron
 Drenaj - zovur, suvni qochirish
 Dyuna - qumtepa, dyuna
 Zakaznik - zakaznik, buyurtma maskan
 Zapas - zahira

Zapovednik - qo'riqxon
 Zenit - tik tepa, zenit
 Irrigatsiya - sug'orish
 Kanal - ariq, kanal
 Kanyon - chuqur dara, tor vodi
 Kaolin - chinni gil
 Karta - xarita
 Kartografiya - xaritashunoslik, kartografiya
 Klimatologiya - iqlimshunoslik
 Komponent - tarkibiy qism, komponent
 Kontur karta - yozuvsiz xarita
 Kotlovina - qozonsoy, tovoqsoy, soylik
 Krater - vulqon og'zi, chuqurlik, krater
 Krik - tentaksoy, quruq o'zanli soy
 Kriosfera - sovuq qobiq, muz qobig'i, kriosfera
 Laguna - sayoz qo'ltiq, ko'rfaz, laguna
 Landshaft - landshaft
 Lyoss - soztuproq, lyoss
 Limnologiya - ko'lshunoslik
 Liman - ko'rfaz, qo'ltiqcha
 Litosfera - toshqobiq, litosfera
 Masshtab - masshtab
 Meandra - ilonizli o'zan, meandra
 Meditsina geografiyasi - tibbiyot geografiyasi
 Meridian - meridian, tush chizig'i
 Migratsiya - ko'chish
 Milliy park - milliy bog'
 Miraj - sarob
 Navigatsiya - kemalar qatnovi, navigatsiya
 Okean - okean
 Okeanografiya - okeanshunoslik
 Oriyentirlash - chamalash, mo'ljal olish
 Orogenez - tog' paydo bo'lishi
 Osadkometr - yog'ino'lchagich
 Parallel - parallel
 Plan - tarx, reja, plan
 Planeta - sayyora
 Plato - supaqir, yassi va to'lqinsimon baland tekislik

Poyma - qayir
 Reg - qum, qumli cho'l
 Region - hudud, o'lka, region
 Relyef - relyef, yer yuzasi tuzilishi
 Resurs - boylik
 Savanna - savanna
 Seysmologiya - seysmologiya, zilzila haqidagi fan
 Sinekliza - sinekliza, yassi botiq
 Sopka - yakka tepa (tog', do'ng)
 Subtropik - tropikyoni, subtropik
 Subtropik iqlim - subtropik iqlim, tropikyoni iqlimi
 Subekvatoriyal - subekvatorial, ekvatoryoni
 Sutka - sutka, kecha - kunduz
 Temperatura - harorat
 Terrasa - ko'hna qayir, terrasa
 Territoriya - hudud, maydon
 Topografiya - topografiya, joyni o'rganuvchi fan
 Topnimika - toponimika, joy nomlarini o'rganuvchi fan
 Toroslar - uyurma muzlar, qalashma muzlar
 Tropik - tropik
 Tuproqlar kartasi - tuproqlar xaritasi
 Uvallar - yassi tepaliklar
 Firn - qotgan qor, firn
 Flyuger - flyuger, shamol yo'nalishini o'lchaydigan asbob
 Siklon - siklon, quyun
 Ekvator - ekvator
 Ekologik krizis - ekologik buxron
 Epitsentr - zilzila markazi
 Ekosistema - ekologik tizim
 Endogen protsesslar - endogen jarayonlar, ichki kuchlar ta'sirida bo'ladigan jarayonlar
 Efemer - qisqa umrli (o'simlik), efemer
 Qo'ltiq - ko'rfaz, qo'ltiq
 Hamada - toshloq cho'l, hamada

**O'zbek geografik terminshunosligining rivojlanishida tarjima
 (ruscha - o'zbekcha) adabiyotining ahamiyati**

Geografik terminshunoslikning rivojlanishida tarjima adabiyoti muhim o'rin tutadi. Tarjima jarayonida tarjima terminlari paydo bo'ladi. Bunday terminlar o'z tilimiz zahirasiidan olinadi. Hayot to'xtab qolmagani kabi geografik terminlar va tushunchalar ham to'xtovsiz boyib boradi. O'z tilimizda yo'q bo'lgan termin va tushunchalar boshqa xalqlar tillaridan bizning tilimizga kirib keladi. Lekin boshqa xalqlar tilidan kirib kelgan terminlar ko'pincha qabul qiluvchi xalqlarning talaffuziga, til qoidalariga (xususiyatlariga) moslab, biroz o'zgartirilib olinishi mumkin.

O'zbek geografik terminshunosligida tarjima terminlari (ruschadan) o'tgan asrning 30 - yillaridan paydo bo'la boshlagan edi. O'sha davrda mamlakatimizda geografiya ta'limining rivojlanishi, geografik bilimlarning ommalashuvida, rus tilidagi geografiya darsliklari va qo'llanmalar tarjimoni A.Obizovning hizmatlari katta bo'ldi. A.Obizov rus tilidagi bir qator o'rta va oliy maktab darsliklari tarjimonidir. Olimning 1933 - 1939 yillar davomida rus tilidan tarjima qilgan "O'lkani o'rganish darsligi. Tabiat" (T., O'zdavnashr 1933), A.S.Barkov va Polovinkinlarning "Tabiiy geografiya" (T., O'zdavnashr, 1936) va "Fizik geografiya" (Toshkent, Samarqand, 1939) darsliklaridagi ayrim terminlar haqida to'xtalib o'tish lozim. Dastlabki ikki darslik tarjimalaridagi terminlar o'rtasida deyarli farqlar yo'q. 1933 yilgi tarjimada *jo'g'rofiya*, *xarita*, *yer usti shakllari*, *do'ng* (tepalik), *ma'dan chashmalari*, *mag'ora* (g'or), *egrilik*, *daryo tindirmalari* (cho'kmalari), *darajalik to'r*, *bo'ylik* (uzunlik), *tabaqalik tog'* (palaxsali tog'), *taqim orollari*, *muztog'* kabi oldindan qo'llanib kelingan terminlar ishlatilgan. 1936 yilgi tarjimada bo'lsa, *jo'g'rofiya*, *xarita*, *plan olish*, *masshtab*, *taxminlash*, *vizir chiziq*, *do'ng*, *gorizont*, *qumtosh*, *granit*, *ma'dan chashmalari*, *artezian*, *karstlik hodisalar*, *magora*, *stalaktit* va *stalakmit*, *manba*, *suvayirg'ich*, *asl qirg'oq*, *egriliklar* (meandra), *temperatura*, *lab*, *buxta*, *gorizont*, *darajalik to'r*, *ekvator*, *meridian*, *parallel*, *kenglik* va *bo'ylik*, *orbita*, *litosfera*, *gidrosfera*, *atmosfera*, *episentr tabaqali tog'*, *troposfera*, *stratosfera*, *izoterma*, *barometr*, *flyuger*, *briz*, *musson*, *tropik poyas*, *muztog'* va boshqa terminlar qo'llanilgan. Ushbu tarjimada ilmiy geografik adabiyotga rus tili orqali kirib kelayotgan yangi atamalar bilan birga, *taxminlash*, *do'ng*, *ma'dan chashmalari*, *mag'ora*, *asl qirg'oq*, *egrilik*, *poyas* kabi ko'pgina terminlar avvalgi shakllarida ishlatilgan.

1939 yilgi tarjimada esa rus tili orqali kirib kelgan yangi terminlar ko'proq qo'llanilgan: *geografiya*, *karta*, *kompas*, *fizik geografiya*, *terrasa*, *sutka*, *gradus (to'ri)*, *arxipelag*, *poyas* va boshqalar.

Ruscha *землетрясение*–zilzila, *пещера* - g'or, *умеренный пояс* - o'rtacha poyas, *оползень* - o'pirilish deb tarjima qilindi, xolbuki ungacha bu terminlarining o'zbek tilidagi tarjimalari, yani *yer qimirlashi*, *ungur*, *mo'tadil mintaq*a, *surilma* kabi terminlar bo'lgan.

Aynan mana shu yillari geografik terminlarda o'zgarishlar sodir bo'ldi. Buni quydagi jadvaldan ko'rish mumkin:

1 - jadval

<i>Ruscha</i>	<i>1936 y. Tabiiy jo'g'rofiya (A.Obizov tarj.)</i>	<i>1939 y. Fizik geografiya (A. Obizov tarj.)</i>
География	Jo'g'rofiya	Geografiya
Карта	Xarita	Karta
Компас	Kompas	Kompas
Сутка	Kun - tun	Sutka
Рельеф	Yer usti shakllari	Yer usti formalari
Устье	(dryoning) quyilish joyi	Mansab
Холм	Do'ng	Do'ng
Оползень	Surilma	O'pirilish
Землетрясение	Yer qimirlashi	Zilzila
Атмосферное давление	Atmosfera bosimi	Atmosfera bosimi
Планшет	Planshet	Planshet
Перистые облака	Parra bulutlar	Patli bulutlar
Овраг	Jar	Chuqur
Пояс	Poyas	Poyas
Умеренный пояс	Mo'tadil poyas	O'rtacha poyas
Пещера	Mog'ora	G'or
Долгота и широта	Bo'ylik va kenglik	Uzunlik va kenglik
Меандр	Egrilik	Meandr
Градусная сеть	Darajalik to'r	Gradus to'ri
Глыбовые горы	Tabaqali tog'	Palaxsali tog'
Архипелаг	Taqim orollari	Arxipelag
Айсберг	Muztog'	Aysberg
Физическая география	Tabiiy jo'g'rofiya	Fizik georafiya

40 - yillarning boshlarida nashr etilgan darslik, qo'llanma va lug'atlarda ayrim terminlar rus tilidagi xolicha qo'llangan. M.X.Bektemirov

va S.M.Saidrasulovlarning ruscha - o'zbekcha lug'atida *уступ, утыос, стремнина, скала, продукт, пурга, пойма оболочка, нанос, корабл* kabi ruscha so'zlar o'zbek tilida aynan berilgan. Vaholanki ularni o'zbekcha muqobillari mavjud: *jarlik, qoyatosh (tik qoya), ostona (daryoning tezoqar joyi), qoya, mahsulot, qor bo'roni, qayir, chuqur joy (o'zanda), qobiq, oqiziq (jinslar), kema* kabi. Keyingi nashr etilgan geografik adabiyotlarda atamalar biroz barqarorlashgandek bo'ldi.

O'zbek geografik terminshunosligi, lug'atchiligi tarixida, terminlarning barqarorlashuvi va qat'iylashuvida atoqli olim H.Hasanovning "Ruscha - o'zbekcha va o'zbekcha - ruscha geografiya terminlari lug'ati" (T, 1964) kitobi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kitob so'zboshisida muallifning ayrim terminlar xususidagi mulohazalari berilgan. Ruscha "*осадок*" so'zining bir necha ma'nosi bor. Ximiyada *cho'kma, quyqa* deb olingan, geografiyada атмосферные осадки - *yog'inlar* deb ishlatiladi. Geologiyada *осадочные породы* - *cho'kindi jinslar* deyiladi.

Ammo geografiyada yerning va dengiz ostining chuqurchasini ifodalaydigan *впадина* so'zini *cho'kma* deyish - yuqoridagilarga zid bo'lib qolmoqda. Demak, *впадина* so'zi uchun boshqa termin topishimiz kerak. Lug'atda *botiq* va *chuqurcha* so'zlarini ishlatdik.¹

Поверхность - *yuza, sirt, ust, оболочка* - *qobiq, кора* - *po'st, пласт* - *qavat, слой* - *qatlam, покров* - *qoplam, высокие облака* - *baland bulutlar, верхние облака* - *yuqori bulutlar (yoki baland bulutlar)* deb qat'iy tarzda tarjima qilinadi. Shuningdek, terminologiyada ayrim sinonimlar qatoridan dominantlar ajratib ko'rsatilgan: ruscha *водонад* so'zining sinonimlari (*sharqirama, sharshara, shovva, uchrasuv*) orasidan *sharshara* dominant qilib olinadi. *Наводнение, разлив, паводок, полная вода, паводье* so'zlarining har biriga muqobil so'z topiladi: *Наводнение* - umuman *toshqin*, *паводок* - ma'lum mavsumda (bahor yoki kuzda) muz yoki qor erishi, *yog'in yog'ishi* bilan suvning qisqa muddatga birdan ko'payishi yoki toshishi, *полная вода* - suvning eng ko'tarilgan holati, to'lin suv, *половодье* daryoda, umuman suvning ko'payishi hodisasidir. H.Hasanov ruscha *стень* so'zining *cho'l* emas, balki *dasht* deb tarjima qilinishi lozimligini 1952 yildayoq aytib o'tgan edi. Ushbu fikr yuqoridagi kitobda ham ma'qullanib, bir necha dalillar keltirilgan. Lug'atda esa *стень* - *dasht, стень* deb berilgan. Keyinchalik *dasht* bo'lib ketdi va lug'atlardan

¹ Hasanov H. Geografiya terminlari lug'ati. T., "Fan", 1964, 6-7 betlar.

chuqur o'rin oldi. Ushbu ruscha - o'zbekcha lug'at ko'p yillar davomida geograf - tarjimonlar uchun dasturilamal bo'lib keldi.

Ruscha - o'zbekcha geografiya lug'atchiligida geograf olimlardan YU.Sultonov, M.Qoriyev, N.Dolimov, M.Mirboboyev keyinchalik P.G'ulomov, S.Qorayev va R.Rahimbekovlarning hizmatlari kattadir.

Ushbu olimlar tomonidan bir qancha oliy va o'rta maktablar uchun darsliklar, qo'llanmalar o'zbek tiliga o'girildi.

Xullas, 90 - yillarning boshlariga qadar rus tilidan qilingan tarjimalar natijasida geografik adabiyotlarda **tarjima terminlari** paydo bo'ldi. Ayrim terminlar kalka yo'li bilan tarjima qilindi: *водораздел* - *suvayirg'ich*, *водохранилище* - *suv ombori*, *плоскогорье* - *yassi tog'lik*, *полнолуние* - *to'lin oy*, *ледокол* - *muzyorar*, *ледорез* - *muzkesar*, *дождемер* - *yog'uno'lchagich* kabi.

Mustaqillik davridan boshlab darsliklar, o'quv qo'llanmalari mahalliy, o'lkashunoslik prinsiplariga amal qilgan holda o'zbek tilida yozilib, nashr etila boshlandi.

Xalq terminlari (atamalari)

Xalq terminlari umuman terminlarning muhim turlaridan biri bo'lib, ilmiy terminlarning milliy - mahalliy xususiyatlarini aks ettiradi. Qomusiy geograf olim L.S.Berg ta'rifi bilan aytiladigan bo'lsa, xalq tilida bitmas - tuganmas boylik bor, bu - ilmiy terminlarni kengaytiruvchi manbadir.

Ayrim geografik ilmiy tadqiqotlarda xalq terminlarini mahalliy terminlar deb atashadi. Qozog'istonlik G.Konkoshbayev ko'proq xalq geografik terminlari iborasini, ozarbayjonlik M.Geldixonov esa mahalliy geografik terminlar iborasini ko'proq ishlatadi. Mahalliy geografik terminlar iborasi ko'proq lokal xarakterga ega bo'lib, muayyan bir hududga oid bo'ladi. Xalq geografik terminlari iborasi esa kengroq ma'no kasb etadi.

Xalq terminlarining asosiy manbalari quyidagilardir:

1. Xalq og'zaki ijodi - folklori.
2. Qadimgi qo'lyozma manbalar.
3. Turli lug'atlar, ensiklopediyalar.
4. Yirik masshtabli topografik xaritalar.
5. Sharqshunoslarning asarlari.

Xalq terminlarini to'plash, saralash va tasniflash muhim vazifalardan biri bo'lib, ularni to'plash uchun ilmiy terminologik ekspeditsiyalar uyushtirish zarur bo'ladi. Bunday ilmiy ekspeditsiyalar

uzoq qishloqlarga, tog' vodiylari va daryo bo'ylaridagi aholi punktlariga uyushtirilishi lozim. Sababi, bunday aholi punktlarida xalq terminlari o'zgartirilmasdan, uzoq yillardan buyon ishlatilib kelinadi. Bundan tashqari, ayrim xalq an'analari, va urf odatlari qadim zamonlardan saqlanib kelinmoqda va bu hodisa xalq terminlarida o'z aksini topgan. Masalan, Janubiy O'zbekistonda - buloqlarning atrofini tozalash, ko'zini ochish maqsadida uyushtiriladigan hashar teganak (taganak) deb yuritiladi va bu marosim ajdodlardan meros bo'lib, hozir ham amalga oshirib kelinmoqda. Bu va shunga o'xshash ko'plab xalq terminlarini mahalliy aholi, asosan qariyalar bilan suhbatlar chog'ida to'plash mumkin.

Xalq geografik terminlarining muhim manbalaridan biri qadimgi qo'lyozma manbalardir. Yuqorida qayd etilganidek Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarlari eng qadimiy yaxlit manbalardir.

Turli davrlarda yozilgan lug'atlar, ensiklopediyalar ham xalq geografik terminlarini to'plashning muhim manbalaridan hisoblanadi.

Ilmiy baynalmilal terminlar qatoridan o'rin olgan xalq geografik terminlarini ko'proq yirik sharqshunos olimlarning asarlaridan to'planadi. O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston hududiga oid ko'plab ilmiy asarlar yozgan yirik sharqshunos olim V.V.Bartold turkiy (o'zbek) xalq geografik terminlaridan ko'p foydalangan.

Tabiiy geografiyaga oid o'zbek (turkiy) xalq geografik terminlarini (XGT) quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Geografik o'rinni bildiruvchi XGT;
2. Relyefni bildiruvchi XGT;
3. Iqlimga oid XGT;
4. Hidrologiyaga oid XGT;
5. Tuproqshunoslikka oid XGT;
6. Biogeografiyaga oid XGT;
7. Landshaftshunoslikka oid XGT;
8. Tog' jinslariga oid XGT.

Ayrim xalq geografik terminlari E.M.Murzayev ta'biri bilan aytganda, anatomik terminlar - inson tanasi a'zolari nomlari bilan bog'liq. Quyida ulardan ayrim namunalar keltiriladi.

Anatomik xalq (mahalliy) geografik terminlaridan namunalar

<i>№</i>	<i>Termin</i>	<i>Geografik ma'nosi</i>
-----------------	----------------------	---------------------------------

1	Barmoq	Tik qoya, eol ishi natijasida hosil bo'lgan ystuncha
2	Bel	Dovon, oshuv, ko'tal
3	Bosh	Daryoning boshlanish qismi, tog' cho'qqisi
4	Burun	Burun, quruqlikning dengiz ichiga kirib borgan qismi
5	Bo'yin	Quruqliklar, tog'larni (relyefning musbat shakllarini) tutashtirib turuvchi kambar joy
6	Bo'g'iz	Dengizlarni, ko'llarni va ularning qismlarini tutashtirib turuvchi kambar suv hududi, akvatoriya
7	Kindik	Tabiiy - hududiy birliklarning o'rta, markaziy qismi
8	Ko'z	Buloq ko'zi - buloq chiqqan joy
9	Oyoq	Etak, quyi qism, odoq
10	Og'iz	Daryolarning quyilish joyi (ko'rfaz), tog, darasining eng tor joyi
11	Til	Ko'rfaz oldi qum orollar
12	Tirsak	Daryoning burilish joyi
13	Tumshuq	Tog', tepalik va orollarning burni, uch tomoni
14	Qovoq	Daryo va ko'llarning baland qirg'og'i, jarlik; baland terrasa
15	Qosh	Uzun cho'zilgan tepalik, marza

Toponimik terminlar

Joy nomlari (toponimlar) tarkibida qatnashib, ular ifodalagan obyektни bildiruvchi so'zlar (turdosh otlar) toponimik termihlar (topoterminlar) deb yuritiladi. Ayrim ilmiy adabiyotlarda toponimik aniqlagich (TA), indikator deb ham ataladi.

Atoqli geograf terminshunos E.M.Murzayev aytganidek, turdosh otlar toponimlarning asosini tashkil etadi va tabiiy geografik obyektlarning turini ifodalaydi.

Xalq geografik terminshunosligini atroflicha bilish joy nomlarini o'rganishni osonlashtiradi. Hech bir xalq tilida mahalliy terminlar ishtirok etmagan toponimlar bo'lmasa kerak.

Aksariyat joy nomlari asosida oddiy geografik terminlar yotadi, shuning uchun E.M.Murzayev: "Har qanday toponimik tadqiqot geografik terminlarni o'rganishdan boshlanishi kerak" deb to'g'ri ta'kidlab o'tgan.

Toponimik terminlar barcha tillarda takrorlanadi. Bu haqida H.Hasanov quyidagicha yozadi: "...Bordi - yu o'ntacha asosiy tilni biladigan kishi kartadagi nomlarni shu tillarga tarjima qilib o'qisa, aksari

shahar, tog', daryo va ko'llarning nomlari deyarli bir ma'noda ekanini ko'rib hafsalasi pir bo'lar edi".

Reka, missi, rio, river, shott, xe, yoyiq so'zlari - daryo demakdir. Jayhun, ob, ganga so'zlari ham suv, daryo ma'nosida.

Ko'h, jabal, shan (min), maunt, berg (gebirge), montana, kordilyera, syerra, monte - tog' demakdir. Obod, kent qo'shilgan nomlarning ma'nodoshlari - pur, grad, kin, taun, vil, pol, burg, shtadt qo'shilgan toponimlardir.

Toponimik terminlarni o'zi ifodalayotgan obyektlarga qarab quyidagicha guruhlashtirish mumkin.

1. Geomorfologik topoterminlar: (ag'ba (dovon), alang, alin (tizma, o'rmonli tog'), bayir, bag'ir, bel (dovon, o'tkil), bum (bo'm, qism, tor dara), dasht, do'ng, yozi, jar, kungay, ko'tal, ort, oshuv, terskay, tog', chuqur, qir, qopchig'ay (dara), qorator, qurum va boshqalar).

2. Hidrologik topoterminlar: (arashon (arasan), arna, ariq, buloq, guzar, daryo, duob, yop, idil, kom, ko'l, pul (ko'prik), qayir, qorasuv, quduq, hovuz va boshqalar).

3. Floristik va faunistik topoterminlar: (arpa, bodom, patta (tol navi), tol, terak, tut, jiyda, qayrag'och, olma, o'rik, gazol, tuya va boshqalar).

4. Oykonimik topoterminlar: (qishloq, kent, kat, ovul, mahalla, guzar, qo'rg'oncha, ko'cha va boshqalar).

5. Etnonimik topoterminlar: (o'zbek, qipchoq, qangli, ming, nayman, qirg'iz, qatag'og, do'rmon, yuz, arab, tojik, uyg'ur va boshqalar).

6. Turli topoterminlar: (obyektning belgi - xususiyati, tomon, o'rin - joy, hajm va boshqa xususiyatlarni ifodalovchi terminlar: obod, orqa, katta, kichik, o'rta, yuqori, quyi, yangi, ko'hna, eski, oq, qizil, achchiq, chuchuk, sho'r, shirin va boshqalar).

Toponimik terminlar (TT)ning turlari va ayrim namunalar:

Geomorfologik TT	Gidrologik TT	Floristik va faunistik TT	Oykonimik TT	Etnonimik TT	Turli TT
bel	arashon	arpa	guzar	arab	katta
soy	arna	bodom	daha	do'rmon	kichik
do'ng	ariq	olma	ko'cha	ming	ko'hna
jar	buloq	terak	kent	nayman	chuchuk
ko'tal	guzar	tol	mahalla	saroy	shirin
ort (art)	daryo	o'rik	ovul	uyg'ur	eski

tog'	yop	g'izol	sahar	yuz	yuqori
chuqur	kom	tuya	qishloq	o'zbek	o'rta
qorator	ko'l		qo'rg'on	qangli	qizil

Xullas, terminlarni turli mezonlarga ko'ra guruhlashtirish mumkin. Har bir fanga oid terminlarni guruhlashtirilgan holatda o'rganish shu fanning terminlarini, binobarin terminologiyasini chuqurroq o'zlashtirib olish imkoniyatini beradi. Ayniqsa, tabiiy geografiyaga oid terminlar aksariyat hollarda tabiiy geografik obyekt turini ifoda etadi. Shuning uchun tabiiy geografik terminlarni yaxshi bilish tabiiy geografiya fanini chuqurroq o'zlashtirish Imkonini beradi.

ILOVA

Toponimikani qanchalik bilasiz?

O'ZINGIZNI BIR SINAB KO'RING

1. Toponimika fani nimalarni o'rganadi?
2. Toponimiya deganda nimani tushunasiz?
3. Toponimika qaysi fanlar bilan yaqin bog'langan va ularning qanday tadqiqot metodlaridan foydalaniladi?
4. Geografik termin va geografik nom nima?
5. Antonim geografik nomlar qanday nomlar?
6. Metafora geografik nomlar qanday nomlar?
7. Memorial nomlar qanday nomlar?
8. Etnonimlar nima?
9. “Devonu lug'atit turk” asari muallifi kim? Bu inson haqida nimalarni bilasiz?
10. Toponimika sohasida ko'p ishlar qilgan bobokolon olimlardan kimlarni bilasiz?
11. H.H.Hasanovning toponimikaga oid qanday asarlari bor?
12. Oddiy turdosh otlardan hosil bo'lgan qanday geografik nomlarni bilasiz?
13. Aniqllovchi (sifat) qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan qanday nomlarni bilasiz?
14. Aniqllovchi (son) qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan qanday nomlarni bilasiz?
15. Aniqllovchi (ot) qo'shish yo'li hosil bo'lgan qanday nomlarni bilasiz?
16. Geografik nomlardan hosil bo'lgan qanday geografik terminlarni bilasiz?
17. Detoponimizatsiya nima?
18. Nomlarning ko'chishidan hosil bo'lgan qanday toponimlarni bilasiz?
19. Umumlashtirishdan hosil bo'lgan qanday geografik nomlarni bilasiz?
20. Tarjima qilingan nomlardan nechta misol keltira olasiz?
21. Qanday nomlar aniq ma'noli nomlar deyiladi?
22. Joyning geografik o'rniga bog'liq bo'lgan nomlarga 10 ta misol keltiring.

23. Joyning tabiiy xususiyatiga bog'liq geografik nomlarga 10 ta misol keltiring.

24. Joyning relyefiga bog'liq nomlarga 5 ta misol keltiring.

25. Suv bilan bog'liq nomlarga O'zbekistondan 10 ta misol keltiring.

26. O'simliklar bilan bog'liq nomlarga 10 ta misol keltiring.

27. Hayvonlar bilan bog'liq nomlarga 10 ta misol ayting.

28. Foydali qazilmalarga bog'liq toponimlarga 10 ta misol ayting.

29. Aholining kasb - hunari nomi bilan bog'liq nomlarga 10 ta misol toping.

30. O'zbekistondagi etnonimlarga 10 ta misol keltiring.

31. Shaxslarning ism - familiyasi, tahallusi bilan bog'liq bo'lgan nomlarga 10 ta misol ayting.

32. Diniy geografik nomlarni qanday aniqlaysiz?

33. Toshkentdagi tabiiy nomlarga 10 ta misol ayting.

34. Toshkentdagi Hadra, Chorsu, Beshyog'och, Eskijo'va, O'rda, Anhor, Arpapoya, Achchi, Sebzor, Degrezlik nomlarning ma'nosi nima?

35. Qanday nomlar to'liq tarjima qilinadi?

36. Qanday nomlar chala tarjima qilinadi?

37. G'aroyib nomlar deb qanday nomlarga aytiladi?

38. Jinko'cha, Xotinko'prik, Cho'ntakqishloq, Bo'g'ozterak, Alvastiko'prik qanday toponimlar turiga kiradi?

39. Dunyodagi qaysi dengizlar ranglar nomi bilan ataladi?

40. Antarktida bilan Antarktika izohida qanday farq bor?

41. Janubiy Amerikaning iqlimi eng sovuq oroli nega Olovli Yer deb ataladi?

42. Shimoliy va Janubiy Amerika oralig'ida joylashgan orollar nega Vest - Indiya orollari deb ataladi?

43. Toshbaqa orollari, Ayiq ko'li, Kenguru oroli, Buqa tog'i, Qirg'iy orollari, It orollari, Echki orollari, Ilon kechigi qayerda?

44. Qaysi dengizlar mamlakat nomi bilan ataladi?

45. Yangi Gvineya, Yangi Zelandiya, Yangi Kaledoniya orollari borligini bilasiz. "Eski" Gvineya, Zelandiya, Kaledoniya orollari qayerda?

46. Qaysi mamlakatlar ko'l nomi bilan ataladi?

47. Qaysi mamlakatlar daryo nomi bilan ataladi?

48. Qaysi mamlakatlar vulqon nomi bilan ataladi?

49. Qaysi mamlakatlar tog' nomi bilan ataladi?

50. Pokiston mamlakati nomi ma'nosini bilasizmi?

51. Gazlama nomini eslatuvchi joy nomlaridan qaysilarini bilasiz?

52. O'lik dengiz, Ajal vodiysi, Borsakelmas, Dashti Lut, Dashti Margoh qayerda va ular nima uchun shunday ataladi?

53. Quyidagi geografik nomlardan qaysilari to'g'ri, qaysilari noto'g'ri yozilgan: Yangiobod, Katta Qo'rg'on, Qora daryo, Eski Toshkent, Yangi Yo'l, Eskijo'va, Koson - soy, Ola - Buqa, Qora Qamish, O'rta Chirchiq.

54. Eng xato geografik nom qaysi va uning hatto ekanini isbotlab bering.

55. Toldiqo'rg'on, Qarag'anda, Olmaliq, Konibodom, Florida toponimlarning qaysi turiga mansub?

56. Nil, Amur, Don, Rio, Rivera, Ganga, Shott daryolari nomi ma'nosini ayting.

57. Quyidagi mamlakatlar nomlaridan qaysilari xalq nomidan olingan? O'zbekiston, Pokiston, Turkiya, Boliviya, Kolumbiya, Braziliya, Iordaniya, Shvetsiya, Nigeriya, Keniya.

58. Appalachi tog'lari, Eri ko'li, Karib dengizi, Qizil shahri, Bo'ka tumani, Barbara dashti, Ayova shtati, Qurama tog'lari toponimlarning qaysi turiga kiradi?

59. O'z joyining (mahallangiz, qishlog'ingiz, tumaningiz, shaharingiz, viloyatingiz) nomining ma'nosi nima?

60. Tyanshan, Ohangaron, Qo'qon, Urganch, Nukus, Buxoro, Namangan, Jizzax, Termiz, Zarafshon nomlarining ma'nosini bilasizmi?

Adabiyotlar

1. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining izohli lug'ati. T., "O'qituvchi", 1977.
2. Enazarov T., Nazarov K. Joy nomlarini yig'ish so'roqligi. T., 1995, 32 b.
3. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. T., "Fan" 1967.
4. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики, М., "Наука". 1974.
5. Мурзаев Э.М. География в названиях. М., "Наука", 1979.
6. Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. М., "Мысль" 1984.
7. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. T., "O'qituvchi". 1988.
8. Поспелов Е.М. Топонимика в школьной географии. М. "Просвещение". М. 1988.
9. Поспелов Е.М. Школьный топонимический словарь. М., «Просвещение». 1988.
10. Суперанская А.В. Что такое топонимика? М., «Наука», 1985.
11. Termin tanlash mezonlari. T., "Fan", 1996.
12. Qorayev S. Toshkent toponimlari. T., "Fan", 1991.
13. Hasanov H. Geografik nomlar imlosi. T., "Fan", 1962.
14. Hasanov H. Geografik terminlar lug'ati. T., "Fan", 1964.
15. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. T., "Fan", 1965.
16. Hasanov H. Yer tili. T., "O'qituvchi", 1977.
17. Hasanov H. Geografik nomlar siri. T., "O'qituvchi", 1985.
18. G'ulomov P. Geografiyadan qisqacha ruscha - o'zbekcha atamalar va tushunchalar lug'ati. T., "Universitet", 1993.
19. G'ulomov P. Jo'g'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati. T., "O'qituvchi", 1994.

MUNDARIJA

So'z boshi.....	3
<i>I - BO'LIM</i> TOPONIMIKA.....	4
Toponimik atamalar va tushunchalar.....	6
Toponimikaning rivojlanish tarixidan.....	7
Geografik nomlarning paydo bo'lishi.....	11
Geografik nomlarning oddiy so'zlarga aylanishi (detoponimizasiya)	14
Geografik nomlar ma'nosi haqida.....	16
Toponimlarning paydo bo'lishi.....	17
Joy nomlarining to'g'ri yozilishi.....	24
Tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlar.....	28
Toshkent toponimlari.....	30
Geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish...35	
Toponimik ma'lumotlar to'plash.....	36
<i>II - BO'LIM</i> . GEOGRAFIK TERMINSHUNOSLIK.....	38
Geografik terminlar va ularning turlari.....	38
O'zbek (turkiy) geografik terminshunosligiga oid ilk manbalar.....	41
O'zbek geografik terminshunosligining XX asrda rivojlanishi...58	
O'zbek geografik terminshunosligining rivojlanishida tarjima (ruscha - o'zbekcha) adabiyotining ahamiyati.....	69
Xalq terminlari (atamalari).....	73
Toponimik terminlar.....	75
Ilova.....	78
Adabiyotlar.....	82